Ta’kidlash joizki, axborot urushi deganda, bir mamlakat yoki davlatlar birlashmalarining ikkinchi bir mamlakatga qarshi ommaviy axborot vositalari (bosma va elektron matbuot, internet) orqali amalga oshiradigan xurujlari tushuniladi [6;78-b.]. Aksariyat hollarda, hatto g‘oyaviy, siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarishda soxta axborotlardan foydalaniladiki, bu oddiy fuqarolarning axborotning rost yoki yolg‘onligini ajrata olmay qolishiga ham olib boradi. Maqsad esa nishonga olingan mamlakat va uning rahbarlari obro‘yiga putur yetkazish, o‘sha mamlakat qurolli kuchlari va tinch aholisini hokimiyatga qarshi qo‘yish, kelajakda qo‘llanish mumkin bo‘lgan harbiy harakatlarni oqlash va dalillash, raqib yoki dushmanning geosiyosiy nafsoniyatlariga monelik qilishdan iboratdir.

Eng yomoni, bunday axborot oqimlari omma tafakkuriga jiddiy ta’sir ko‘rsatmay qolmasligini alohida ta’kidlash joiz. Chunki axborot odamlar ongini zaharlay boshlasa, bu xunuk oqibatlarga olib kelishi muqarrar. Uzoqqa bormaylik, yaqinda Gruziyaning «Imedi» telekanali namoyish etgan ko‘rsatuv Tbilisi aholisini sarosimaga solibgina qolmay, ikki nafar fuqaroning yurak xuruji orqali o‘lim topishi va xalqaro to‘polonlar bilan yakunlanganini bir esga olaylik.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, qo‘poruvchilik harakatlarining real xavf va asoratlarini anglash mumkin, ammo ma’naviyatni buzishga qaratilgan urushlarning xatarini qay darajadaligini tushunib yetish, bilish qiyin. Milliy o‘zlik, qadriyatlar, shunga yarasha tafakkur qilishning buzilishida turli tadqiqotlar, OAV va reklama agentliklari katta rol o‘ynashi bilan bir qatorda, aksincha, mazkur xavfning oldini olish yoki to‘g‘rilashda ham muhim ahamiyatga egadir. Ongni bo‘ysundirish, aqlni buzish, axborot urushlari haqida fikr bildirish kimlar uchundir balandparvozlik, jimjimador gaplar bo‘lib tuyular. Ammo munosabatlarning turli ekanini tabiiy qabul qilish lozim. Shuni ham unutmaslik kerakki, axborot asrida amalga oshirilishi odat tusiga kirib borayotgan turli ayyorliklarni o‘z vaqtida anglab, uni mafkuraviy immunitet chig‘irig‘idan o‘tkazgan har bir odam ma’naviy kompasini qayerga yo‘naltirsa, maqsadga muvofiq bo‘lishini chuqurroq tushunib yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

(1). M.Usmonov. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi: mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo‘llari. Toshkent, 2017, 285-bet.

(2). A.Abdumalikov. Yoshlar ongida axborot madaniyatini shakllantirish. Farg‘ona, 2025, 302-bet.

(3). Padover S.K. Psychological warfare and foreign policy//The theory and practice of international relations. Englewood Cliffs, 1960, p. 238.http://lib.aldebaran.ru

(4). M.M.Kadirov. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. Darslik, 2-qism, T., O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019, 306-bet.

(5). Dadabayeva R.A., Nasriddinova Sh.T., Shoaxmedova N.X., Ibragimova L.T., Ermatov Sh.T. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari. O‘quv qo‘llanma, T., “Sano-standart”, 2017, 552-bet.

(6). Kenjabayev A.T., Ikromov M.M., Allanazarov A.Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent, 2023, 506-bet.

Iskandarova Shamsiyabonu Ulug‘jonovna (BuxDU tayanch doktoranti (PhD);
e-mail: shamsiyaiskandarova@gmail.com)

BILIM VA BILISH NAZARIYASI – EPISTEMIOLOGIYA TADRIJI

Annotatsiya. *Bilish nazariyasi – epistemiologiya antik davrdan boshlab bugungi kunga qadar turli xil qarashlar, aksiomalar yaratilishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Ushbu maqolada o‘z davrining yetuk olimlari, faylasuflari, adiblari tomonidan turlicha talqin qilingan epistemiologik qarashlar tahlil qilinib, ular o‘rtasida o‘xshash hamda farqli jihatlar qiyosiy o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *bilim, Platon, epistemiologiya, modernizm, Kopernik, bilish nazariyasi, Nyuton, Jon Benvill.*

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ТЕОРИИ ПОЗНАНИЯ – ЭПИСТЕМОЛОГИЯ

Аннотация. Теория познания *– эпистемология, начиная с античных времен и до наших дней, продолжает вызывать различные взгляды и порождать аксиомы. В данной статье анализируются эпистемологические взгляды, интерпретируемые различными выдающимися учеными, философами и литераторами своего времени, и проводятся сравнительные исследования их схожих и отличительных аспектов.*

Ключевые слова: *знание, Платон, эпистемология, модернизм, Коперник, теория познания, Ньютон, Джон Бенвил.*

THE EVOLUTION OF THE THEORY OF KNOWLEDGE – EPISTEMOLOGY

Annotation*. The theory of knowledge – epistemology, from ancient times to the present day, has led to the creation of various views and axioms. This article analyzes the epistemological views interpreted by*

the prominent scholars, philosophers, and writers of their time, comparing their similarities and differences.

Keywords: *knowledge, Plato, epistemology, modernism, Copernicus, theory of knowledge, Newton, John Banville.*

Kirish. Epistemologiya inson bilimining tabiati, kelib chiqishi va chegaralarini o‘rganadigan falsafiy yo‘nalishdir. Epistemologiyaning asl mohiyatini o‘rganishga qaratilgan izlanishlar g‘arb falsafasi tarixida qadimgi yunon olimlaridan boshlab hozirgi zamongacha uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Xususan, yunon olimi Platon o‘zining dialektik “Teatet” (“Theaetetus”) asarida bilimning ta’rifini chuqur tadqiq etadi. Unga ko‘ra, “bilim –to‘g‘ri va noto‘g‘rini farqlay oladigan va sababini tushuntira oladigan fikr hisoblanilib, u oddiy fikrdan farqli ravishda aniq va o‘zgarmas bo‘ladi [15;81-b.]. Bundan tashqari, Platonning fikricha, “haqiqiy bilim bizga tanish bo‘lgan moddiy dunyoni bilish emas, aksincha, insonga notanish bo‘lgan va o‘zgarmas hisoblaniladigan “ezgu g‘oyalar” ni bilishdir. Chunki u bilishning eng so‘nggi bosqichi va o‘zgaruvchan hisoblaniladigan moddiy dunyoga tegishli bo‘lgan har qanday narsadagi to‘g‘rilik, go‘zallik va yorug‘likning manbaasi”dir [15;45-b.]. Insonning ruhida azaldan, tug‘ilishidan oldin mavjud bo‘lgan bilimni kishi fikr yuritish va savol berish orqali eslaydi [15;7-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bilim va bilish nazariyasi – epistemologiya masalalari qadimgi davrlardan boshlab ko‘plab faylasuf va olimlar tomonidan tadqiq etilib kelinmoqda. Mazkur masala falsafa tarixida muhim o‘rin egallab, turli davr mutafakkirlarining ilmiy qarashlari orqali boyib borgan. Epistemologik qarashlarning ilk nazariy asoslari qadimgi yunon faylasuflari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, xususan, Platon bilimning mohiyati va manbaini izohlashga alohida e’tibor qaratgan. U o‘zining “Theaetetus” asarida bilimni asoslangan va haqiqatni anglashga qaratilgan fikr sifatida talqin qiladi. Yangi davrga kelib, bilish nazariyasining ilmiy asoslari yanada rivojlandi. Rene Dekart ratsionalizm g‘oyasini ilgari surib, bilimning asosini inson tafakkurida ko‘rdi. Aksincha, Jon Lokk empirizm tarafdori sifatida bilim inson tajribasi orqali shakllanishini ta’kidladi. Bu qarashlar epistemologiya rivojida muhim nazariy yo‘nalishlarni shakllantirdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda epistemologiya rivojini o‘rganishda tarixiy-mantiqiy yondashuvdan foydalanildi. Antik davrdan zamonaviy davrgacha bo‘lgan faylasuflarning qarashlarini tahlil qilishda qiyosiy-tahliliy metod qo‘llanildi. Shuningdek, bilish nazariyasining evolyutsiyasini ochib berishda induktiv va deduktiv usullar hamda sistemali yondashuvdan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali turli davr mutafakkirlarining epistemologik qarashlari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar. Aristotelning ta’rificha, “haqiqiy bilim – narsalarning umumiy va zaruriy sabablarini anglashdir” [1;8-b.]. Ya’ni, bilim hodisaning yuzaki tasviri emas, balki nega aynan shunday sodir bo‘lishini tushuntiradigan asosli, zaruriy va umumiy qonuniyatdir. “Natijaviy analitika” asarida faylasuf haqiqiy bilim bajarishi kerak bo‘lgan talablarni qo‘yadi [15;34-b.].G‘arb falsafasi va ilohiyotshunosligining taniqli vakillaridan biri avliyo Avgustin Hippo klassik davr falsafasi va xristian ta’limoti o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaruvchi olim sifatida qaralib, uning g‘oyalari “o‘rta asr tafakkuri”ni shakllantirgan [3;304-b.]. Faylasufning bilim tushunchasiga yondashuvi ilohiyot bilan chuqur bog‘liqdir.

G‘oyalar, bilimlar yoki nazariyalarni birlashtirib, yaxlit tizim yaratuvchi olim sifatida tanilgan Foma Akvinskiy o‘rta asrlar Yevropa ilm-fanining ahamiyatli vakillaridan biri hisoblanilgan. Uning “Mohir sintezlovchi” [10;3–5-b.] deb sifatlanishiga sabab u har qanday mavjud falsafiy qarashlarning asl mohiyatini va ahamiyatini chuqur anglagan. Xususan, xristian diniga amaldagi Platoncha qarashlarni tushunib o‘zi xayrixoh bo‘lgan jihatlaridan foydalanib, qarshi bo‘lgan jihatlarining sababini izohlab, dinga Aristotelcha emperik nuqtai nazardan yondashib, Aristotelning qarashlarini rivojlantiradi va mukammal, mantiqiy sistema sifatida shakllantiradi. Aristotel singari Akvinas ham *“Intellektda (aqlda) hech qanday narsa yo‘qki, u avval sezgilarda mavjud bo‘lmagan bo‘lsa”* degan g‘oyani da’vo qiladi. Sezgi orqali vujudga kelgan tasavvur tushunishi uchun ong har safar murojaat qilishi kerak bo‘lgan aniq hissiy ko‘rinish – fantaziya ni vujudga keltiradi. Aslida, ranglarni ko‘zga ko‘rinadigan bo‘lishida yorug‘likning ahamiyati bo‘lganligi singari ilohiy bo‘lgan “agent”tafakkur [5;12-b.] ham fantaziyaning vujudga kelishida asosiy omil hisoblaniladi.

Nikolay Kopernik (1473–1543)ning ham epistemiologik qarashlari antik dunyo nazariyalarini rad etmasdan, ulardagi ta’limotni amalda isbotlashga ulgurdi. U bilimni shakllantirishda matematik model va kuzatuvning roli haqidagi “De revolutionibus orbium coelestium” (1543) asarida katolik cherkovi inkvizitsiyasiga uchrashiga qaramasdan fazoning geliotsentrik modelini bayon etadi. Ya’ni, bu epistemologik nuqtayi nazar nazariy tuzilma (matematik model) haqiqatni anglash uchun zarur vosita bo‘lib, kuzatuvlar esa uni tasdiqlash yoki inkor etish uchun xizmat qilishi lozim. Bu fikr “Mathematica mathematicis scribun-tur” [7;5-b.] tarzida beriladi. Yohan Kepler (1571–1630) fanni faqat empirik hisob-kitoblar vositasi sifatida emas, balki haqiqiy fizika va sabablar izlash yo‘li deb ko‘radi. U go‘yoki Kopernikning matematik modelini

haqiqatni anglash uchun yetarli emas deb hisoblab, o‘zining “Mysterium Cosmographicum” asarida geliotsentrik tizimni shunchaki hisob-kitob model sifatida emas, balki haqiqiy sabablar bilan izohlaydi. Kepler uchun matematika va geometriya – dunyoning mohiyatini anglashi va uni aniqlab berishi mumkin bo‘lgan epistemik vosita. Kepler Kopernikning nazariyasini shunchaki matematik instrument sifatida emas, balki kosmosning haqiqiy tuzilmasi deb ko‘rdi. U skeptik astronomlarga qarshi turib, kosmos haqiqatan ham matematik qonun-tartibotlar bilan boshqarilishini ta’kidladi – bu epistemologik-realistik yondashuv hisoblanadi. Keplerda epistemologik qarashlarning yana bir qismi – “tenglamalarni o‘rganish ruhning faoliyati bilan bog‘liq” degan xitobi bo‘lgan. U tushunish jarayonini faqat sezgidan emas, balki ongning faol ishtiroki bilan bog‘laydi. Qolaversa, Keplerning “temporis filia veritas; cui me obstetricari non pudet” [11;47-b.] fikri uning butun falsafasini mujassam etgandek.

Rene Dekart (1596-1650) ratsionalizm (haqiqiy bilim tajribadan oldin tafakkurga hali tug‘ilmasdan oldin berilgan bo‘ladi) tarafdori bo‘lgan. Olim aniq bilimga erishishda radikal shubha (skeptisizm) [9;135-b.] metodini qo‘llaydi, ya’ni, u oxiri aniq bir xulosa kelib chiqquniga qadar o‘rganilayotgan obyektlarga nisbatan o‘z-o‘ziga savol bilan murojaat qiladi. Xuddi o‘ylanishimizning o‘zi (“Cogito ergo sum”- “Men o‘ylayapman, demak mavjudman”) aniq haqiqat bo‘lgani singari tafakkur qilib ongdan noto‘g‘ri ma’lumotlarni ham chiqarib tashlab aniq haqiqatga erishiladi. Dekart uchun haqiqiy bilishning belgilari – uning aniqligi va farqlanadiganligidir. Ingliz olimi Jon Lokk (1632–1704) ning fikricha, bilim “insonning g‘oyalari o‘rtasidagi muvofiqlik va nomuvofiqlikni anglash”dir [12;19-b.]. Rene Dekarddan farqli ravishda Jon Lok ongni “bo‘sh qog‘oz” (“tabula rasa”) sifatida ko‘radi va uning fikricha, bu qog‘ozni tajriba yozadi ya’ni, kishining ongida Platon, Augusti Hippo va Rene Dekart da’vo qilgan “tug‘ma bilim” bo‘lmaydi, aksincha, bilimga tajriba orqali erishiladi.

O‘z davrigacha bo‘lgan epistemiologik qarashlarni to‘liq o‘zlashtirib, qolaversa, ilmning yangi bosqichini boshlab bergan ingliz olimi Isaak Nyuton (1643–1727) uchun ilmiy bilim bu tajribadan induktiv ravishda chiqarilgan, aniq matematik tarzda ifodalangan va mavhum farazlardan holi qonunlar tizimidir. Nyuton uchun bilim tajriba va matematik isbot birligiga asoslanadi. U spekulyativ (metafizik) tushuntirishlardan qochadi. Uning ilm to‘g‘risidagi umumiy qarashlari o‘zining “Men farazlar ilgari surmayman. Chunki tajribada kuzatilgan hodisalardan mantiqan keltirib chiqarib bo‘lmaydigan har qanday tushuncha faraz hisoblanadi; metafizik, fizik yoki yashirin sifatlar haqidagi bunday farazlar esa eksperimental falsafada o‘z o‘rniga ega emas” [13;504-b.]. Eynshteyn (1879–1955)ning dunyoni o‘rganishga qaratilgan qarashlari makon–vaqt, sababiyat, ilmiy nazariya va haqiqat tushunchalarini tubdan o‘zgartirdi. Eynshteyn na sof empirist, na sof ratsionalist edi. Uning qarashlari, ko‘pincha, tanqidiy realizm va nazariy konstruktivizm sifatida tavsiflanadi.

Xulosa va takliflar. Ayni davrdagi badiiy adabiyotdagi epistemiologik qarashlar ham diqqatga sazovordir. Xususan, yozuvchi Jon Benvil zamonaviy Irland adabiyotining eng nufuzli namoyandalaridan biri bo‘lib, u, asosan, bilim va haqiqatning subyektiv tabiatini o‘rganadi. Benvilning fikriga ko‘ra, haqiqat to‘liq obyektiv bo‘la olmaydi, zero, inson tafakkuri va hissiy tajribasi uni har doim filtrlab oladi, shu sababli u ilm yoki san’atda subyektivlik va intuitsiyaga katta e’tibor beradi. Benvil ilmiy epistemologiyaga bevosita katta e’tibor qaratmaydi, lekin uning qarashlari adabiy epistemologiyaga yaqin. Uning nuqtai nazariga ko‘ra, san’at va adabiyot haqiqatni tushunishning alohida yo‘li bo‘lib, yozuvchi orqali o‘quvchi tajribani qayta ixtiro qiladi, bilimga yaqinlashadi. Shu nuqtayi nazardan, Benvilning epistemologiyasi “bilim–faqat empirik fakt emas, balki subyektiv tafakkur orqali yaratiladigan haqiqat” [6;45-b.] deb tavsiflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aristotle. Posterior Analytics. Translated by E.S.Bouchier, B.H.Blackwell, 1901, 231 p.

(2). Aristotle. Nicomachean Ethics. Translated by W.D.Ross, revised by Lesley Brown. Oxford: Oxford University Press, 2009, Book VI, Chapter 3, 650 p.

(3). Augustine, *Confessions*, XII.25, trans. J.G.Pilkinton (*International Collectors Library*, Garden City, N.Y.) 1962, 301 p.

(4). Augustine, Tractates on the Gospel of John 11–27, trans. John W.Rettig, The Fathers of the Church, vol. 79 (Washington, D.C.: The Catholic University of America Press, 1988), Tract. 30, sec. 3, 567 p.

(5). Aquinas, Thomas. *Summa Theologiae*. Translated by the Fathers of the English Dominican Province. London: Burns Oates & Washbourne, 1911, 92 p.

(6). Banville J. *The Sea*. London, Picador, 2005, 240 p.

(7). Copernikus. *De revolutionibus orbium coelestium.* translated and with notes by Edward Rosen. THE johns hopkins university press. London, 1992, 342 p.

(8). Einstein Albert. Out of My Later Years. Philosophical Library, 1950, 230 p.

(9). Gouhier, Henri. “*Doute méthodique ou négation méthodique?*” *Études philosophiques*, vol. 9, № 2, 1954, 430 p.

(10). Gilson, Étienne. *The Christian Philosophy of St. Thomas Aquinas*. New York, Random House, 1956, 200 p.
(11). Johannes Kepler. Gesammelte Werke, ed. M Caspar et al., Munich, 1937, 321 p.
(12). Locke, John. *An Essay Concerning Human Understanding*. Book IV, Ch. I, Oxford: [Edition], 1689, 89 p.
(13). Newton I., *The Mathematical Principles of Natural Philosophy.* Translated into English by Andrew Motte. New-York, Daniel Adee, First American Edition, 1848, 504 p.

Ruziyeva Dilnoza Muxtorovna (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti)

O‘ZBEK AYOLINING MA’NAVIY LIDERLIK FENOMENI

Annotatsiya*. Mazkur maqolada ma’naviy liderlik hamda uning o‘zbek ayoli hayotidagi aksi tahlil etiladi. Ma’naviy liderlik fenomeni tarixiy, madaniy va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar kontekstida kompleks o‘rganiladi. Liderlikning ma’naviy-axloqiy mezonlari, shakl va ko‘rinishlari ijtimoiy-falsafiy metodlar asosida tadqiq etiladi. Shuningdek, maqolada o‘zbek ayolining zamonaviy jamiyatdagi ma’naviy liderlik qiyofasi hamda uning oila institutini mustahkamlashdagi ahamiyati ochib beriladi. Ma’naviy liderlik fenomenini shakllanishida milliy qadriyatlar, sharqona an’ana va urf-odatlarning ta’siri tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *liderlik, o‘zbek ayoli, ma’naviy liderlik, gender falsafasi, ms’naviy-axloqiy asos, teng huquqlilik, insonparvarlik, inson qadri.*

ФЕНОМЕН ДУХОВНОГО ЛИДЕРСТВА УЗБЕКСКОЙ ЖЕНЩИНЫ

Аннотация. *В данной статье анализируется духовное лидерство и его отражение в жизни узбекской женщины. Феномен духовного лидерства изучается всесторонне в контексте исторических, культурных и современных социальных процессов. Духовно-нравственные критерии, формы и проявления лидерства исследуются на основе социально-философских методов. В статье также раскрывается образ духовного лидерства узбекской женщины в современном обществе и его значение в укреплении института семьи. Анализируется влияние национальных ценностей, восточных традиций и обычаев на формирование феномена духовного лидерства.*

Ключевые слова: *лидерство, узбекская женщина, духовное лидерство, гендерная философия, ду-ховно-нравственная основа, равенство, гуманность, человеческое достоинство.*

THE PHENOMENON OF SPIRITUAL LEADERSHIP AMONG UZBEK WOMEN

Annotation. *This article analyzes spiritual leadership and its reflection in the lives of Uzbek women. The phenomenon of spiritual leadership is studied comprehensively within the context of historical, cultural, and contemporary social processes. The spiritual and moral criteria, forms, and manifestations of leadership are explored using socio-philosophical methods. The article also explores the image of spiritual leadership among Uzbek women in modern society and its significance in strengthening the institution of the family. The influence of national values, Eastern traditions, and customs on the formation of spiritual leadership is analyzed.*

Key words: *Leadership, Uzbek woman, spiritual leadership, gender philosophy, spiritual and moral foundation, equality, humanity, human dignity.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy jamiyatda har bir xalq uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy tushunchalardan biri liderlik hisoblanadi. Vaholanki, liderlik tushunchasi jamiyat a’zolarini birlashtira olgan, yagona maqsad sari yetaklashga xizmat qiluvchi zaruriy funksional tushuncha sanaladi. Bugungi kunda zamonaviy lider qiyofasi, uning falsafiy mohiyati, axloqiy-estetik sifatlarini ilmiy-nazariy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, global taraqqiyot davrida insoniyatni birlashtirish, ezgulik maqsadlariga yo‘naltirish tobora murakkablashib bormoqda. Mamlakatimizda ham ma’naviy-axloqiy saviyasi yuksak rahbarlarni shakllantirish masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Xalqning dardi va tashvishlarini pisand qilmaydigan, el-yurtimiz osoyishtaligi va jamoat tartibini saqlashga, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga qurbi yetmaydigan har qanday darajadagi rahbarlarga nisbatan jiddiy chora ko‘riladi. Lo‘nda qilib aytganda, bunday loqayd va befarq shaxslarga rahbarlik lavozimlarida mutlaqo o‘rin yo‘q” [1;53-b.]. Bizningcha, davlat rahbari ta’kidlagan adolatlilik, xalqning dardi bilan yashash tuyg‘usi aynan ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosidagina shakllanishi mumkin. Bugungi kunda zamonaviy liderlikning ma’naviy-axloqiy mohiyatini anglab yetish muhim vazifalardan biri sifatida talqin etilmoqda. Zero, ma’naviy liderlik deyilganda, shaxsning axloqiy nufuzi, qadriyatlarga sodiqligi va ruhiy ta’sir kuchi orqali boshqalarni ijobiy yo‘nalishga undash qobiliyati tushuniladi. Shu boisdan ma’naviy liderlik hamda uning o‘zbek ayoli hayotidagi o‘rni masalasini falsafiy tahlil etish bugungi kunda zaruriy ahamiyat kasb etadi. Aslida, tarixiy nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek ayollarida azaldan liderlik qobiliyati shakllangan. O‘zbek jamiyatida ayol tarixan oilaning ma’naviy markazi sifatida qaralib, uning ta’siri faqat xonadon doirasi bilan cheklanmagan. Jamiyat hayotida ham oqila ayollar fikri o‘z ta’siriga ega bo‘lgan. Buni biz tariximizdagi ma’naviy liderlik qiyofasini shakllantira olgan

jasoratli malika Tumaris, aql va donishmandlik timsoli Oybarchin, temuriylar saltanatida ulkan siyosiy nufuz hamda diplomatik mavqega ega bo‘lgan Bibixonim (Saroymulk-xonim), shuningdek, Nodira, Uvaysiy, Dilshodi barno, Anbar Otin kabi ko‘plab ma’rifatparvar o‘zbek ayollari timsolida ko‘rishimiz mumkin. Shuni alohida qayd etish lozimki, o‘zbek ayolining liderlik qobiliyati ma’naviyat, xulq-atvor, nafosat, me’yor hamda ma’lum bir axloqiy chegara doirasida namoyon bo‘lib kelgan. Bundan kelib chiqib, bugungi zamonaviy jamiyatda ham ana shunday ma’naviy lider o‘zbek ayollarini shakllantirish, uning axloqiy-ma’naviy asoslarini tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Liderlik fenomeni jahon miqyosida ko‘p tahlil etilgan falsafiy muammolardan biri sanaladi. Ayniqsa, g‘arb mamlakatlarida mazkur tushuncha turli fanlar doirasida, jumladan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, psixologik, sotsiologik hamda falsafiy kontekstlarda tadqiq etilgan. Misol uchun, Saymon Vester [9;384-b.] qarashlarida g‘arbdagi yetakchilik g‘oyasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi hamda mazkur tushunchaga tanqidiy yondashiladi. Piter Northouse [6; 528-b] tadqiqotlarida esa liderlik nazariyasi hamda amaliyoti tushuntirib beriladi. Shuningdek, mazkur ilmiy izlanishlarda liderlik xususiyati, uning konstruktiv va destruktiv tomonlari ham tahlil etiladi. Shuningdek, Sara Sabir [8;28-b.] ilmiy izlanishlarida ta’lim dargohlaridagi liderlarning ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish usullari, R.Ramiez [7;488-b.] tadqiqotlarida rahbarning boshqaruvdagi imidji va estetik madaniyati, lider etikasi falsafiy tahlil etiladi. Y.N.Krivenisheva [3;162-b.] g‘arb va sharq hayotida liderlik fenomeni mohiyatini qiyosiy tahlil etgan bo‘lsa, P.Y.Ovsyankin [5;166-b.] ma’lum bir korxona taraqqiyotida lider faoliyatining ahami-yatini ochib beradi. Mazkur masalada mamlakatimiz olimlari, shuningdek, falsafa ilmi doirasida ham qator il-miy izlanishlar olib borilgan. Ayniqsa, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida rahbar kadrlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, g‘oyaviy-mafkuraviy salohiyati, ularda ratsional tafakkur va xulq-atvorni shakllantirish mexanizmlari borasida tadqiqotlar olib borgan A.A.Saidov, M.U. Atamuratov, K.S.Aliyeva, U.S.Elmurodov, K.A.Karimov, G.N.Nigmatova, L.U.Ravshanov, X.K.Buriyevlar ilmiy ishlarini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda, mazkur masala doirasida B.E.Yuldashev [12;133-b.]ning zamonaviy rahbar ij-timoiy mavqeyi, U.B.Shakarov [11;150-b.]ning rahbar axloqiy qiyofasi, N.T.Kariyeva [2;123-b.]ning rahbar hamda uning boshqaruvidagi insonlar bilan munosabati borasidagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Ammo yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlarida asosan rahbarlik, liderlik fenomeni hamda uning axloqiy jihatlari umumiy ma’noda falsafiy tahlil etiladi. Bizning tadqiqot ishimizda esa aynan o‘zbek ayollarining ma’naviy liderlik qiyofasi, uni shakllantirish mexanizmlari tadqiq etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli tahlil, obyektivlik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ma’lumki, liderlik tushunchasi, asosan, jamiyat a’zolari orasida o‘z o‘rni, nufuzi hamda obro‘siga ega bo‘lgan, kishilarni yagona maqsad yo‘lida birlashtirib, o‘z orti-dan ergashtira olgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Ba’zi manbalarda “Liderlik – jamoa orasida turli vaziyat-lar ta’sirida yuzaga keladigan rahbarlik, lekin bu rahbarda rasmiy vakolat tizimi mavjud emas” [10;46-b.], deya talqin etiladi. Demak, liderlik faqatgina ma’lum bir mansabdorlik, yoxud rahbarlik faoliyati bilan bog‘liq emas, aksincha, liderlar xalq orasida o‘z so‘zini ayta oladigan hamda kishilar ongi va tafakkuriga ta’sir etib, ularni ishontira oladigan kishilardir. Ular oddiy inson bo‘lishi mumkin, ammo xalq unga ishonadi hamda ergashadi. Aynan sharq xalqlarida liderlik fenomeni tushuntirilganda bu fikr yaqqol namoyon bo‘ladi. Vaholanki, o‘zbek xalqi uchun ham asrlar davomida liderlar ma’lum bir rahbarlik, mansab vakolatidan qat’iy nazar, xalq orasida o‘z o‘rniga ega insonlar hisoblab kelingan. Ayniqsa, xalqimizga xos muhim ijtimoiy bo‘g‘inlardan biri bo‘lgan mahalla sistemasida bu holat yaqqol namoyon bo‘lib keladi. Ammo yana boshqa manbalarda liderlik tushunchasining falsafiy mohiyati yetakchilik, rahbarlik, ma’lum bir jamoaviy mas’uliyat faoliyati bilan bog‘liq holatda tushuntirib beriladi.

O‘zbek xalqi hayotida rahbarlarga, boshqaruvchilarga, ya’ni liderlarga munosabat azaldan muhim hisoblanadi. Xalqimizga xos eng muhim xususiyatlardan biri boshqaruvchiga itoatkorlik, ishonch, yuksak hurmat sifatlari lider va uning boshqaruvidagi insonlar munosabatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ammo bugungi zamonaviy jamiyatda liderlik fenomeni ham tobora rivojlanib, yangicha shaklda namoyon bo‘lmoqda. Bugun odamlarni ishontirish, o‘z ortidan ergashtirish oson vazifa emas. Inson tafakkuri yuksalgani sari u ergashadigan liderlarga nisbatan talabi ham ortib bormoqda. Bugungi kunda jamiyat a’zolari kimga ergashishni, kimga ishonish hamda kimning so‘ziga quloq tutishni, asosan, mantiqan tafakkur qilgan holatda hal etishadi. Ammo hizirgi zamonda insonlarni qandaydir bir yovuz maqsadlar yo‘lida birlashtirshga uringan, ularni ishonchiga kirib, ko‘r-ko‘rona ergashtirayotgan liderlar ham borligini qayd etish lozim. Shu boisdan ham zamonaviy liderlarni shakllantirishda axloqiy-ma’naviy asoslarning ahamiyatini aniqlash, bugungi kunda ayniqsa dolzarb hisobla-nadi.

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi doirasida mulohaza olib borganda bugun mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o‘zbek ayolining ma’naviy liderlik fenomenini falsafiy, ilmiy-nazariy asosda tizimlashtirish hamda uning tarixiy va zamonaviy shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Bu borada ayollarimizning yetakchilik qobiliyati, uning tarixiy, ma’naviy-axloqiy, nazariy asoslarini o‘rganish, ayniqsa dolzarb sanaladi. Zero gender falsafasi tobora mustahkamlanib borayotgan hozirgi dunyoda zamonaviy lider ayol, uning ma’naviy qiyofasi hamda bu qiyofani shakllantirish mexanizmi, usul va vositalarini ishlab chiqish zaruratga aylanib bormoqda. Ma’lumki, ***“Gender*** – psixologiyada (erkak, ayol) tushunchasiga aniqlik kirituvchi ijtimoiy biologik tavsifnoma. Jins biologik kategoriya bo‘lganligi uchun ijtimoiy psixologlar aksariyat hollarda biologik asoslangan gender farqlarni (jinsli farqlar) sifatida qarashadi” [10;27-b.]. Ammo, bizningcha, bu tushunchaning fal-safiy mohiyatiga ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Chunki “Odamlar o‘rtasida biologik farqlardan tashqari, ularning ijtimoiy vazifalari, xulqi, ruhiyati va hissiyotida ham muayyan tafovut mavjud. Gender deganda turli jamiyatlarda yashovchi erkak va ayollar xulqini belgilovchi ijtimoiy va madaniy vazifalar me’yorlari majmuasi tushuniladi. Tadqiqotlarda turli jins vakillari xulq-atvoridagi farq (mas.shaxsning psixologik sifatlari, xulq shakllari, faoliyat turlari, erkak va ayollar shug‘ullanadigan kasblar) biologik asosdan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy-madaniy me’yorlar bilan belgilanishi aniqlangan. Gender erkak va ayollarga xos ijtimoiy model sifatida jamiyatda shakllanadi va u orqali erkak va ayolning jamiyat va uning turli institutlaridagi mavqeyi belgilanadi” [4;119-b.]. Jamiyatdagi bu mavqeni belgilanishida o‘zbek ayolining ma’naviy-axloqiy xususiyatlari, xulq-atvor elementlari hamda oqilonalik, madaniyatlilik sifatlari alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, uning oiladagi, siyosiy sistemadagi, boshqaruvdagi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi vazifalariga alohida urg‘u beriladi. O‘zbek ayolining liderlik qiyofasi aynan uning madaniyatida, axloqida, ma’naviyati, ham oiladagi, ham boshqaruvdagi teng va oqilona funksiyalarida hamda aql-idrokida namoyon bo‘ladi. Bizningcha, o‘zbek ayoli uchun liderlik qiyofasini shakllantirish murakkab jarayon sanaladi. Chunki o‘zbek ayoliga xos iffat, hayo, erkaklarga nisbatan ulkan hurmat tuyg‘ulari asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan eng asosiy aksiologik xususiyatlar sifatida ularning faoliyatiga ham ta’sir etadi. Ammo aynan shu qadriyatlar o‘zbek ayolining ma’naviy liderlik qiyofasini shakllantiradi. Bizningcha, o‘zbek ayolida manaviy liderlik fenomenini shakllantirishda quyidagi ma’-naviy-axloqiy mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, o‘zbek ayolida ma’naviy liderlik fenomenini shakllantirish va rivojlantirishda adolat, insonparvarlik, saxiylik, me’yoriylik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat, muhabbat kabi ulkan axloqiy sifatlar dolzarb sanaladi.

Bizning nuqtayi nazarimizga binoan, o‘zbek ayolining ma’naviy liderlik fenomeni ham asrlar davomida shakllangan xulq-atvor me’yorlari, an’ana va qadriyatlar, milliy urf-odatlar ta’sirida, ham bugungi kunda to-bora ommalashib borayotgan gender falsafasi doirasida rivojlantirilishi lozim. Bu ikki yo‘nalish uug‘unligi, aniqrog‘i zamonaviy gender falsafasidagi liderlik tamoyillarini an’anaviy liderlik xususiyatlari bilan integrat-siyasi o‘zbek ayolining ma’naviy liderlik fenomenini shakllantiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Birinchdan, zamonaviy o‘zbek ayolining ma’-naviy liderlik fenomenini shakllantirish tarixiy tajriba hamda yangicha gender falsafasiga tayanishni taqozo eadi. Bu o‘zbek ayoli ma’naviy liderlik qiyofasini milliy, ma’naviy-axloqiy hamda estetik qadriyatlar asosida shakllanishini ta’minlaydi. Zamonaviy o‘zbek ayoli ma’naviy liderligi fenomeni taraqqiyotida ma’naviy-axloqiy tamoyillar va estetik ko‘nikmalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, o‘zbek ayoli ma’naviy liderlik fenomeni xalqimizga xos eng muhim tarbiyaviy sifatlar hi-soblanuvchi adolat, halollik, insonparvarlik, mehrlilik, shafqat, kechirimlilik kabi ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida shakllanadi, rahbar qiyofasini mukammallashtiradi.

Uchinchidan, o‘zbek milliy qadriyatlari, an’ana va urf odatlari, o‘ziga xos oqilona xulq-atvor normalari zamonaviy o‘zbek ayoli ma’naviy liderlik fenomenini shakllantirishda muhim ma’naviy-axloqiy, nazariy-falsafiy hamda fundamental asos vazifasini bajarib, uning konstruktiv taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Демократик ислоҳотларни чукурлаштириш, барқарор ривожланишни таъминлаш – халқимиз учун муносиб ҳаёт даражасини яратишнинг кафолатидир. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017.

(2). Кариева Н. Ёш ходимлар ва раҳбарлар орасидаги ишончни шакллантириш механизмлари. Пси. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс., Тошкент, O‘RYOIAHYOMO‘IKTI, 2022.

(3). Кривенышева Е.Н. Этические основания лидерства в западной и отечественной культурах. Дис. ...канд. филос. наук, Саранск, 2010.

(4). Назаров Қ ва б. Маънавият: асосий тушунчалар луғати. Т., Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021.

(5). Овсянкин П.Е. Социально-философские аспекты управления развитием организации. Дис. ...канд. филос. наук, Архангельск, 2000.

(6). Piter G. Leadership: Theory and Practice. 2018. ISBN 9781506362298.
(7). Ramirez R. Aesthetics and Leadership: An Essay. Psychoanalytic Inquiry, 41(7),2021.
(8). Sabir S. A study on Ethical leadership perceptions and its impact on teachers' commitment in Pakistan. International Journal of Educational Leadership and Management. 9 (1), 2020.
(9). Simon W. Leadership: A critical text. SAGE, 2013. M09 18 ISBN 9781446294208.
(10). Xalimova M.V. va b. Psixologik atamalar izohli lo'g'ati.Uslubiy qo'llanma. Andijon, Andijon davlat universiteti, 2017.
(11). Шакаров У. Раҳбар ахлоқи ва адолатли бошқарувни ташкил этиш муаммолари. Сиё. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс., Тошкент, ТошАҚИ, 2018.
(12). Юлдашев Б. Замонавий раҳбар ижтимоий қиёфасини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс., Самарқанд, ҚарДУ, 2022.

Mo'minov Fazliddin Qobil o'g'li (Samarqand shahar IIO FMB huzuridagi Qo'riqlash xizmati boshlig'i o'rinbosari, katta leytenant; ORCID: 0009-0003-1315-8990; fazliddinmominov213@gmail.com)

MILLIY VA UMUMINSONIY AXLOQIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGINING SHAXS MA'NAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDAGI IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uyg'unligining shaxs ma'n-viy immunitetini shakllantirishdagi ijtimoiy-falsafiy asoslari IMRAD metodologiyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi milliy ma'naviy an'analar va umuminsoniy etik tamoyillarning dialektik birligini nazariy jihatdan asoslashdir. Tarixiy-taqqoshlash, dialektik, germenevtik va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar (vatanparvarlik, sadoqat, an'ana) hamda umuminsoniy qadriyatlar (adolat, insonparvarlik, erkinlik) uyg'unligi shaxsning ma'naviy barqarorligi va axloqiy mustahkamligini ta'minlaydi. Xulosa sifatida mazkur uyg'unlik ma'naviy immunitetning aksiologik poydevori ekani asoslandi.*

Kalit so'zlar: *milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, axloq, ma'naviy immunitet, aksiologiya, integratsiya.*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ГАРМОНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье на основе методологии IMRAD анализируются социально-философские основы гармонии национальных и общечеловеческих моральных ценностей в формировании духовного иммунитета личности. Цель исследования – теоретически обосновать диалектическое единство национальных духовных традиций и общечеловеческих этических принципов. Использовались методы историко-сравнительного, диалектического, герменевтического и концептуального анализа. Результаты показали, что сочетание национальных ценностей (патриотизм, верность, традиции) и общечеловеческих ценностей (справедливость, гуманность, свобода) обеспечивает нравственную устойчивость и нравственную силу человека. В заключении утверждалось, что эта гармония является аксиологической основой духовной неприкосновенности.*

Ключевые слова: *национальная ценность, общечеловеческая ценность, мораль, моральный иммунитет, аксиология, интеграция.*

SOCIAL-PHILOSOPHICAL BASIS OF THE HARMONY OF NATIONAL AND UNIVERSAL MORAL VALUES IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL SPIRITUAL IMMUNITY

Annotation. *This article analyzes the role of the harmony of national and universal moral values in human spiritual development based on the IMRAD methodology. The purpose of the study is to substantiate the dialectical unity of national spiritual traditions and universal ethical principles from a socio-philosophical perspective. Historical-comparative, dialectical, hermeneutic and conceptual analysis methods were used. The results showed that the harmony of national values (patriotism, loyalty, courage) and universal values (justice, peace, humanity) forms the spiritual immunity of the individual. In conclusion, it was substantiated that this harmony is a philosophical law that ensures a balance between personal duty and freedom, discipline and conscience.*

Keywords: *national value, universal value, morality, spiritual maturity, integration, spiritual immunity.*

Kirish. Globallashuv jarayonlari va mafkuraviy tahdidlar kuchaygan sharoitda shaxs ma'naviy immunetetini shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Ma'naviy immunitet bu shaxsning axloqiy barqarorligi, mafkuraviy mustaqilligi va ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlovchi ichki qadriyatlar tizimidir.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi va madaniy xotirasiga tayanadi. Umuminsoniy qadriyatlar esa insoniyatning umumiy axloqiy tajribasini ifodalaydi. Muammo shundaki, ayrim konsepsiyalarda milliylik va universallik qarama-qarshi tushunchalar sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot maqsadi – milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining shaxs ma’naviy immunitetini shakllantirishdagi ijtimoiy-falsafiy mohiyatini asoslash.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida:

•tarixiy-taqqoshlash metodi;

•ijtimoiy-falsafiy tahlil;

•dialektik yondashuv;

•germenevtik interpretatsiya;

•konseptual tahlil usullaridan foydalanildi.

Nazariy asos sifatida quyidagi mutafakkirlarning qarashlari o‘rganildi:

•Hans Küng – global etika konsepsiyasi;

•Emile Durkheim – axloqning ijtimoiy tabiatiga oid nazariya;

•Zygmunt Bauman – global axloqiy mas’uliyat konsepsiyasi;

•Charles Taylor – axloqiy gorizont nazariyasi;

•Abdulla Avloniy – milliy axloqiy tarbiya konsepsiyasi;

•Abu Nasr Forobiy – fazilatli jamiyat g‘oyasi.

Nazariy asos sifatida Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlari o‘rganildi. Xususan, Arastu [7], Aflotun [8], Forobiy [9;10-b.], Ibn Sino [11], G‘azzoliy [12], Yusuf Xos Hojib [13], Avloniy [14], MacIntyre [1], Rawls [2], Cassirer [3], Toynbee [4], Jaspers [15], Habermas [16], Nussbaum [17], Walzer [18] va boshqalar-ning ilmiy qarashlari tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida qadriyatlarning ontologik, aksiologik va ijtimoiy mohiyati o‘zaro bog‘liqlikda o‘rga-nildi.

Musulmon sharqida Abu Hamid G‘azzoliy milliy va umuminsoniy axloqiy g‘oyalarning uyg‘unligini “qalb tarbiyasi” konsepsiyasi orqali asoslab, “haqiqiy axloqiylik – bu insonning o‘z nafsini tarbiya qilish orqali jamiyatda ezgulikni qaror toptirishidir” deya ta’kidlaydi.[1] G‘azzoliy konsepsiyasi umuminsoniy etik tamoyillarni muqaddas manbalar bilan bog‘laydi, ammo bu yondashuv ba’zan diniy normativlikning universallashuvi orqali milliy madaniy xususiyatlarning boy xilma-xilligini umumiylikka bo‘ysundirish xavfini tug‘dirishi mumkin. K.Jaspers umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni “axial age” – axial davr g‘oyasi bilan izohlab, “umuminsoniy ma’naviyatning yadro qadriyatlari turli millatlarning ruhiy uyg‘onish jarayonlarida parallel ravishda vujudga kelgan” deya qayd etadi.[2] Jaspersning yondashuvi milliy qadriyatlarning umuminsoniy ildizlarini ko‘rsatadi, ammo har bir xalqning tarixiy-madaniy kontekstini bir xil sxemaga solish xavfini tug‘diradi.

Milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi masalasi insonning mazmunli mavjudligini belgilovchi fundamentdir. F.Zero, har bir xalqning tarixiy-madaniy tajribasi o‘ziga xos qadriyatlar tizimini yaratadi, ammo bu tizim umuminsoniy axloqiy ufqlar bilan kesishganda, normativ yaxlitlikning yanada boy va universal modelini shakllantiradi. Shuning uchun milliylik va umuminsoniylik bir-biriga qarama-qarshi emas; aksincha, ular falsafiy manoda bir-birini to‘ldiruvchi ma’naviy butunlikning ikki qirrasi sifatida namoyon bo‘ladi. K.Mannheim madaniy qadriyatlarning shakllanishida tarixiy ijtimoiy ongning rolini ta’kidlab, “milliy qadriyatlar tarixiy ong shakllarining muayyan ijtimoiy tajribaga moslashgan ko‘rinishidir” deya yozadi.[3] Mannheimning yondashuvi milliy axloqiy qadriyatlarning tarixiy kontekstga chuqur bog‘langanini ochib beradi, ammo uning ijtimoiy shartlanganlikka haddan tashqari urg‘u berishi milliy qadriyatlarning metafizik-ruhiy ildizlarini soyada qoldiradi. U.Beck esa globallashuv sharoitida aksiyologik uyg‘unlik zaruratini asoslab, “umuminsoniy axloqiy qadriyatlar global xavflarning umumiy mohiyatida shakllanadi” deb ta’kidlaydi.[4] Beckning “xavf jamiyati” konsepsiyasi umuminsoniy muammolarni birgalikda hal qilishga qaratilgan etik birlikni ilgari suradi, biroq milliy madaniyatlarning o‘ziga xos yetik dunyosini soddalashtirib yuborish ehtimolini ham tug‘diradi.

Sharq falsafasida Ibn Miskaveyh milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini fazilatli jamiyat kon-sepsiyasi orqali asoslab, “axloqiy fazilatlar insonning tabiiy quvvatlari uyg‘unlashganda, jamiyatning umumiy ezgulik tamoyillariga mos keladi”,deya qayd etadi.[5] Miskaveyhning ushbu fikri milliy va universal

[1] G‘azzoliy A.H. Ihyo Ulum ad-Din. Qohira, Dar al-Ma’rifa, 2005, 64-bet.

[2] Jaspers K. Vom Ursprung und Ziel der Geschichte. München, Piper Verlag, 1949, p. 78.

[3] Mannheim K. Ideology and Utopia. London, Routledge, 1952, p. 67.

[4] Beck U. World Risk Society. Cambridge, Polity Press, 1999, p. 38.

[5] Miskaveyh A. Tahzib al-Axloq. Beirut. Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2003, p. 54.

qadriyatlar o‘rtasidagi tabiiy uyg‘unlik asosini ko‘rsatadi, ammo uning modeli tarixiy-siyosiy dinamikani yetarlicha tahlil qilmaydi. Poststrukturalistik falsafada J.Derrida umuminsoniy etikani “turli madaniylarning o‘zaro ochiqligi” bilan izohlab, “umuminsoniylik – bu farqning o‘chirilishi emas, balki farqning muqaddas tan olinishi” deya ta’kidlaydi.[1] Derridaning bu fikri milliy xususiyatlarni universal etik tushunchaga qo‘shishning yangi hermenevtik modelini taklif qiladi, biroq u normativ barqarorlikni haddan tashqari dekonstruksiya qilishi mumkin. A.Sen esa umuminsoniy qadriyatlarni ijtimoiy adolat kontekstida tahlil qilib, “umuminsoniy axloqiy qadriyatlarning mazmuni turli madaniyatlarning ochiq va ko‘p ovozli muloqotida shakllanadi”, deya qayd etadi.[2] Ammo Senning haddan tashqari pluralistik modeli milliy qadriyatlarning mustahkam asoslangan ichki normativ tizimini nisbatan zaif tushuntiradi. Shuningdek, X.Arendt umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni inson faoliyatining umumiy sharti sifatida ko‘rib, “axloqiylik – bu insonning o‘zga bilan birga yashash majburiyatidir”, deya ta’kidlaydi.[3] Arendt yondashuvi universal etikani ijtimoiy mavjudlik bilan bog‘laydi, biroq milliy madaniyatning ruhiymental xususiyatlarini umumlashtirib yuboradi.

Milliy qadriyatlarning ahamiyatini chuqur tahlil qilgan O.Shpengler esa “har bir sivilizatsiya o‘zining ruhiy-madaniy shaklida axloqiy dunyoni yaratadi” deya yozadi.[4] Bu fikr milliy axloqiy dunyoni yirik madaniy makon sifatida tushuntiradi, ammo milliy chegaralarning qat’iyligi global etik umumiylikka qarama-qarshi qo‘yilishi xavfini tug‘diradi. Milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurning eng murakkab, shu bilan birga, dolzarb konsepsiyalaridan biridir. Bu uyg‘unlik insoniyatning umumiy ma’naviy ideallarini xalqning tarixiy-madaniy xotirasi, mentaliteti va an’analari bilan dialektik ravishda birlashtiruvchi aksiologik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar – xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy ongining qatlamlari va ruhiy olamini aks ettiruvchi ma’naviy kodlardir. Umuminsoniy qadriyatlar esa insoniyatning umumiy axloqiy kontsentratini tashkil etadi. Ularning uyg‘unligi nafaqat madaniy integratsiyaning belgisi, balki insonning ma’naviy yetukligi, jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun ham zarur falsafiy asosdir. Bu jarayonni chuqur anglash uchun birinchi navbatda K. Jaspersning “umuminsoniy ma’naviyatning axial davrda bir vaqtning o‘zida turli hududlarda pishib yetilishi” haqidagi fikri e’tiborga loyiq. U shunday deydi: “Umuminsoniy qadriyatlarning ildizi insonning ichki uyg‘onish davrida, madaniy va diniy uyg‘onishlar kesishgan tarixiy nuqtada namoyon bo‘ladi”.[5] Jaspersning konsepsiyasi milliy qadriyatlarning universal mazmun bilan tutashish tarixiy asosini ko‘rsatadi, biroq u moddiy-madaniy sharoitlarning rolini kamroq yoritadi.

Shuningdek, T.Parsons milliy va umuminsoniy axloqiy tizimlar o‘rtasidagi aloqani ijtimoiy tizimlarning integrativ funksiyasi bilan bog‘lab, “har qanday jamiyat universal axloqiy tamoyillarni o‘zining madaniy me’yorlari bilan integratsiya qilgan holda barqarorlikka erishadi” deya ta’kidlaydi.[6] Parsonsning modeli integratsiyaning tizimiy asosini beradi, ammo milliy identitetning ma’naviy-ruhiy o‘ziga xosliklarini sotsiologik strukturaga haddan tashqari bog‘lab qo‘yadi. J.Habermas axloqiy universallikni kommunikativ faoliyat bilan bog‘lab, “umuminsoniy axloqiylik bu barcha uchun maqbul bo‘lgan muloqot predmetidir” deya ta’kidlaydi.[7] Uning fikricha, milliy qadriyatlar ham muloqot doirasida universallik sari ochilishni talab qiladi. Biroq Habermas muloqot uchun zarur bo‘lgan teng sharoitlarning real jamiyatlarda kamdan-kam mavjudligiga yetarlicha e’tibor bermaydi. G.Hofstede esa milliy qadriyatlarning madaniy kod sifatida mustahkamligini asoslab, “milliy qadriyatlar insonning idrok, munosabat va axloqiy tanlovlariga chuqur singigandir” deya qayd etadi.[8] Hofstedtning yondashuvi milliylikning ijtimoiy-psixologik asoslarini chuqurlashtiradi, biroq uning modeli umuminsoniy etik qadriyatlarni psixologik relativizmga haddan tashqari bog‘lab qo‘yishi mumkin. Sharq nuqtayi nazaridan Yusuf Xos Hojib milliy qadriyatlar universallik sari yo‘nalishini adolat orqali asoslab, “adolat – elning bekasi, xalqning to‘qati, davlatning suyanchi”, deb yozadi.[9] Yusuf Xos Hojib qadriyatlarning universallashishini faqat tashqi singdirish emas, balki ichki komillikning tabiiy oqimi sifatida talqin qiladi. Ammo uning qarashi diniy-ma’naviy markazga haddan tashqari tayanishi sababli sekular etik tizimlar bilan integratsiya masalasini cheklangan yoritadi.

---

[1] Derrida J. The Other Heading. Bloomington, Indiana University Press, 1992, p. 117.
[2] Sen A. Identity and Violence. New York, Norton, 2006, p. 142.
[3] Arendt H. The Human Condition. Chicago. University of Chicago Press, 1958, p. 74.
[4] Spengler O. Der Untergang des Abendlandes. München, Beck, 1922, p. 89.
[5] Jaspers K. The Origin and Goal of History. New Haven, Yale University Press, 1953, p. 41.
[6] Parsons T. The Social System. New York, Free Press, 1951, p. 201.
[7] Habermas J. Moral Consciousness and Communicative Action. Cambridge, MIT Press, 1991, p. 82.
[8] Hofstede G. Culture’s Consequences. Thousand Oaks, Sage Publications, 2001, p. 56.
[9] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2021, 114-bet.

Birinchidan, milliy qadriyatlar tarixiy-madaniy manbaning konkret ifodasi bo‘lib, ular universal etik ta-moyillarning turli madaniy muhitlarda “milliy ohang bilan yangrashidir”.

Ikkinchidan, umuminsoniy qadriyatlar – inson tabiatiga daxldor oliy tamoyillar bo‘lib, ularning tarixiyligi yo‘q, biroq ularning talqini milliy madaniyatlarda turlicha bo‘ladi.

Uchinchidan, uyg‘unlik jarayoni – milliylikning universallikka singib ketishi emas, balki “milliy ma’naviyatning universal ma’nolarni qayta yaratish qobiliyati”, universal tamoyillarning esa milliy kontekstlarda “mazmuniy chuqurlashuvi”dir.

To‘rtinchidan, bu uyg‘unlik tarixiy dialog, madaniy almashinuv, ma’naviy rezonans va ijtimoiy ong evolutsiyasi orqali vujudga keladigan murakkab, dinamik falsafiy jarayondir. Natijada milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi – insonning ma’naviy kelajagini belgilovchi, milliy o‘zlikni mustahkamlaydigan va global yetik muloqotni rivojlantiradigan fundamental falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijalar. Tahlil natijasida quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

1. Milliy qadriyatlar identitet asosidir. Milliy qadriyatlar shaxsning tarixiy va madaniy o‘zligini mustahkamlaydi.

2. Umuminsoniy qadriyatlar normativ mezondir. Adolat, hurmat, inson qadr-qimmati kabi qadriyatlar universal axloqiy gorizontni belgilaydi.

3. Uyg‘unlik – dialektik integratsiya jarayoni. Milliy qadriyatlar universallikni boyitadi, universal qadriyatlar esa milliy an’analarni mazmunan chu-qurlashtiradi.

4. Ma’naviy immunitet shakllanish mexanizmi.

Uyg‘unlik natijasida:

•axloqiy barqarorlik kuchayadi;

•mafkuraviy mustaqillik shakllanadi;

•ijtimoiy mas’uliyat ortadi.

Muhokama. Hans Küng global etik yadroni asoslaydi, biroq milliy kontekst mexanizmlarini yetarli ochmaydi.

Émile Durkheim axloqning ijtimoiy integratsiya vazifasini ta’kidlaydi.

Zygmunt Bauman global javobgarlik g‘oyasini ilgari suradi.

Charles Taylor milliy qadriyatlarni umumiy ma’naviy gorizont ichida talqin qiladi.

Abu Nasr Forobiy fazilatli jamiyatni milliy va universal uyg‘unlik asosida tushuntiradi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘zaro antagonistik emas, balki aksiologik sintezga asoslangan yaxlit tizimdir.

Xulosa. Milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi:

•shaxs ma’naviy immunitetining aksiologik poydevorini yaratadi;

•jamiyat normativ barqarorligini ta’minlaydi;

•global etik muloqotning mustahkam asosini shakllantiradi.

Demak, mazkur uyg‘unlik shaxs ma’naviy yetukligining zarur sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Küng H. Global Responsibility. London, SCM Press, 1991.
(2). Durkheim E. The Division of Labour in Society. New York, Free Press, 1893.
(3). Bauman Z. Globalization: The Human Consequences. Cambridge, Polity Press, 1998.
(4). Taylor C. Sources of the Self. Cambridge. Harvard University Press, 1989.
(5). Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1913.
(6). Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. Toshkent, 1993.
(7). Küng H. Global Responsibility. In Search of a New World Ethic. London, SCM Press, 1991.
(8). Durkheim E. The Division of Labour in Society. New York, Free Press, 1893.
(9). Bauman Z. Globalization. The Human Consequences. Cambridge, Polity Press, 1998.
(10). Taylor C. Sources of the Self. Cambridge. Harvard University Press, 1989.
(11). Walzer M. Thick and Thin. Moral Argument at Home and Abroad. Notre Dame. University of Notre Dame Press, 1994.
(12). Nussbaum M. Cultivating Humanity. Cambridge, Harvard University Press, 1997.
(13). Gadamer H.-G. Truth and Method. New York, Continuum, 1989.
(14). Hare R.M. Moral Thinking. Oxford, Clarendon Press, 1981.
(15). Elias N. The Civilizing Process. Oxford, Blackwell, 2000.
(16). Geertz C. The Interpretation of Cultures. New York, Basic Books, 1973.
(17). Maritain J. Man and the State. Chicago, University of Chicago Press, 1951.

Davletov Jamshid Bekmatovich (Urganch RANCH Texnologiya universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD); UDK: 316.7. 303.3.173; davletovjamshid7@gmail.com; ORGID https://orcid.org/0009-0005-0338-2272)

Аннотация. *Связь коннотации с семантико-прагматическими отношениями является более всеобъемлющей аксиомой фразеологического состояния во французском языке, чем в узбекском. В результате сложностей социальной жизни характер межличностных и массовых коммуникаций изменился в плане коннотационных отношений. Потребность в адекватной организации и интер-*

претации текстов, а также в правильном понимании их получателем возникает из необходимости информировать общество.

Ключевые слова: *коннотация, семантико-прагматический подход, фразеология, коммуникация, субъективный текст.*

Akhrarova Fotima Bahramovna (Associate Professor of the National University of Uzbekistan (PhD)

CONNOTATIVE SIDE OF PHRASEOLOGICAL MEANING

Annotation. *The connection of connotation with semantic-pragmatic relations is a more comprehensive axiom of the phrase logical state in French than in Uzbek. As a result of the complexities of social life, the nature of interpersonal and mass communication has changed in terms of connotation relationships. The need for an adequate organization and interpretation of texts, as well as for their correct understanding by the recipient, arises from the need to inform society, to convey to the mass recipient the most complete and correctly formatted information about the outside world information.*

Keywords: *connotation,semantic-pragmatik approach, phraseology, communication, subjective text.*

Kirish. Konnotatsiya frazeologik ma'noning subyektiv murakkablashishi natijasida shaxslararo va ommaviy kommunikatsiyalarning tabiati o'zgardi. Konnotatsik frazeologiya ma'noning subyektiv matnlarni tashkil etish va talqin qilish, shuningdek, qabul qiluvchi tomonidan to'g'ri tushunish zarurati jamiyatni xabardor qilish, ommaviy qabul qiluvchiga tashqi dunyo to'g'risida eng to'liq va to'g'ri rasmiylashtirilgan ma'lumotlarni yetkazish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Konnotatsiya frazeologik ma'noning subyektiv mazmuni sifatida frazeologik ma'no tarkibida mazmunli (obyektiv) ma'noga qo'shimcha ravishda, ma'ruzachining nutq mavzusiga yoki uning o'tish shartlariga befarq bo'lmagan munosabatini ifodalovchi hissiy, baholovchi va stilistik belgilar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavjud konnotatsiya tushunchalari zamonaviy tilshunoslikda konnotatsiya to'g'risida kelishuv mavjud emas, bu tushuncha tilshunoslikdagi eng noaniq, tarqoq tushunchalardan biridir [1].

U stilistik ma'no sifatida talqin etiladi; stilistik ma'no (T.G.Vinokur, Y.M.Skrebnev nuqtai nazari); hissiy ma'no (L.A.Novikovning so'zlariga ko'ra); pragmatik ma'no (L.A.Kiseleva, V.N.Komissarovning so'zlariga ko'ra), hissiy qatlamlar (akad. D.N.Shmelev), potensial belgilar (V.G.Gakning talqini). Biz E.V.Paduchevaning ta'rifini eng keng, "noaniq" deb hisoblaymiz: konnotatsiyalar tegishli tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan uyushmalardir [2].

V.A.Maslova ushbu atamani leksik birliklarga qo'llashda o'ziga xos madaniy ma'noga e'tiborni qaratadi va uning quyidagi ta'rifini taklif qiladi: konnotatsiya – bu so'z bilan bog'liq bo'lgan, ichki shaklga asoslangan, ma'lum bir til, ma'lum bir madaniyat ona tilida so'zlashuvchilarga xos xususiyat [3]. Ba'zi tadqiqotchilar konnotatsiyani nafaqat leksik birliklarga, balki yuqori darajadagi birliklarga, shu jumladan iboralarga ham qo'llashadi. Bu esa tilshunoslar orasida O.S.Axmanova, "so'z yoki iboraning qo'shimcha mazmuni, uning asosiy ma'nosiga qo'shilgan semantik yoki stilistik soyalari, har xil ekspressiv-emotsional-baholovchi ohanglarni ifodalashga xizmat qiladi va bayonotga tantanali, qulaylik, o'ynoqilik, tanishlik va boshqalarni berishi mumkin" degan ma'noni anglatadi [4]. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, O.S.Axmanova bilvosita bu ma'noning tarkibiga hissiy, baholovchi, stilistik tabiatning kiritilishini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotchi kontekstdan tashqari til birliklariga xos bo'lgan ingerent va kontekstdan hosil bo'lgan adgerent ma'nolarni ajratib ko'rsatadi. Ikki turdagi konnotatsiyaning mavjudligi ikkinchisini lingvistik hodisa deb hisoblash imkonini beradi. Konnotativ tarkibga ega so'zlarni sof stilistik muammolarga qisqartirish mumkin emas, chunki ular har doim ma'lum bir madaniyatda uning tarbiyasi natijasida yuzaga keladigan odamning ba'zi tajribalariga murojaat qilishadi. V.I.Goverdovskiy konnotatsiyaning tilga tashqi tomonga yo'naltirilganligini ta'kidlab, konnotatsiyalarning tarixiy-madaniy turini ajratib ko'rsatdi.

Konnotatsiya deganda belgilangan ob'ektlarning belgilarini emas, balki ma'ruzachining belgilangan yoki nutq shartlariga munosabatini aks ettiruvchi yechimlarning yig'indisi tushunilishi mumkin [5]. Olimlar konnotatsiyaning quyidagi belgilarini aniqlaydi:

- qiymatning denotativ tomoniga qo'shimcha;
- denotatsiya uchun ikkilamchi;
- hissiy, ifodali va baholovchi ma'lumotlarni ifodalash.

Y.D.Apresyan konnotatsiyani chuqur tadqiq qilib, oxirgi tilda aniq tilda qonuniylashtirilgan haqiqat obyektini baholaydi, unda ta'rifning mohiyati yotadi. Olim ushbu til jamoasida voqelikning tegishli faktini (uning nomi til birligi) baholashni aks ettiruvchi til birligi tomonidan ifoda etilgan tushunchaning xususiyatlarini til birligini qo'llash uchun zarur shart-sharoitlarni tashkil etmaydigan ahamiyatsiz ma'nolarni o'zida mujassam etishga e'tibor qaratadi. Shu nuqtayi nazardan, olimlar konnotatsiyani keng ma'noda qisman tushunadi, ikkinchisida predmet konseptual (denotativ), shuningdek, til birligining grammatik tarkibini to'l-

diradigan va unga bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar asosida ekspressiv funksiyani beradigan har qanday tarkibiy qismni ko‘radi.

1) ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilarning empirik, madaniy-tarixiy, dunyoqarash bilimlari bilan;

2) nutq subyektlarining belgilangan yoki stilistik registrlarga hissiy yoki qiymat munosabati bilan, nutq shartlari, til faoliyati sohasi, nutq ishtirokchilarining ijtimoiy munosabatlari, uning shakli va boshqalar.

Tahlil va natijalari. Tor ma’noda, konnotatsiya nomning ikkinchi darajali funksiyasida ishlaydigan til birligining tarkibiy qismi ma’no sifatida qaraladi, u nutqda ishlatilganda uning obyektiv ma’nosini nomning ichki shaklini anglash asosida belgilangan voqelik haqidagi assotsiativ-majoziy tushuncha bilan to‘ldiradi, ya’ni, ushbu ifodani qayta ko‘rib chiqishga turtki bo‘lgan iz yoki nutq figurasining keng ma’nodagi qarash bilan bog‘liq belgilar. Bunday holda, konnotatsiyani xalq-madaniy o‘rganish fonda yo‘qoladi va asosiy e’tibor nutqda majoziy ma’noda ishlatiladigan til birligining xususiyatlariga qaratiladi. Ekspressiv rangli ma’no til birligining semantikasiga “hissiy”, subektiv, shaxsan qiziqishning “yutug‘ini” aks ettiradi, bu esa ma’noning ekspressiv ta’sirini va uning tilda maqsadga muvofiqligini tashkil etadi. Tadqiqotchi V.N. Teliusning asarlarida ham ishlab chiqilgan bo‘lib, u konnotatsiyani tor ma’noda ko‘rib chiqadi va ikkinchisini “til birligining semantikasiga kiradigan va nutq predmetining voqelikka hissiy-baholovchi va stilistik jihatdan belgilangan munosabatini ifoda etadigan, ma’lumot asosida ifodali ta’sirga ega bo‘lgan bayonotda bayon etadi” degan tushunchani bergan [6]. Konnotatsiyaning tavsiya etilgan ta’rifi frazeologiya uchun ham amal qiladi. U frazeologik birliklarning qo‘shimcha mazmunini, uning semantik yoki stilistik shakllarini o‘z ichiga oladi hamda murakkab o‘zaro aloqada bo‘lib, hissiy-baholovchi ikkilamchi ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi [7].

Konnotatsiyaning asosiy vazifasi ma’lumot oluvchiga ta’sir qilish funksiyasidir [8]. Bunday holda, konnotatsiya nafaqat mavzuni ko‘rsatadi, balki uning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashni ham o‘z ichiga oladi. Biroq konnotativ jihat, ko‘pincha, tildan tashqari voqelik elementining haqiqiy belgilarini emas, balki ma’lum bir til va madaniyatning tashuvchisi sifatida unga tegishli bo‘lgan xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. Frazeologiya ma’nosining konnotativ belgilarining umumiyligi frazeologik ma’noning “hissiy-ekspressiv tomoni” [9], shuningdek, “inson tomonidan kiritilgan subyektiv tarkib” [10]. bo‘lganligi sababli, ma’no frazeologiyaning paradigmatik ma’nosiga ta’sir qilmaydi. Konnotatsiyada faqat qo‘shimcha frazeologiya mazmuni, uning hamroh soyalari mavjud bo‘lib, ular frazeologik birliklarning umumiy ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lib, u bilan murakkab o‘zaro aloqada bo‘lib, hissiy-baholovchi nuanslarni ifodalashga xizmat qiladi [11].

Bundan tashqari, til inventarizatsiyasi birliklari qiymatining tarkibiy qismi sifatida konnotatsiya ixtiyoriydir: unda barcha til elementlari mavjud emas. Hech qanday ma’noga ega bo‘lmagan holda, ikkinchisi nutq predmetining o‘z bayonotiga ekspressiv rangli munosabatini aks ettirmaydi yoki V.N.Teliusning so‘zlariga ko‘ra, “mavzuni uning shaxsiy dunyosi bilan aniqlash uchun vositalarni o‘z ichiga olmaydi”[12]. Frazeologiyada bu holda ular nol pragmatikaga ega bo‘lgan frazeologiya haqida so‘z borganda, ya’ni, nutqda faqat nominativ funksiyada ishlaydigan neytral frazeologiya tushunchasida konnotatsik xarakatda amalga oshiriladi.

Xullas, insonlar nutqida konnotatsiyaning ifodalanishida morfologik birliklar ham alohida o‘rin tutadiga frazeologik munosabatlarni qamrab oladi. Morfologik birliklar sirasiga kiruvchi, ayniqsa, lug‘aviy shakl yasovchilar va affiks yuklamalar faol ishtirok etadigan va insonlar nutqining o‘ziga xos jihatlarini namoyon qiladi tushunchalarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. АН, ин-т яз-ния. М., “Наука”, 1986, 3 с.

(2). Падучева Я.В. Высказывание и его соотнесенность с действительностью. Референциальные аспекты семантики местоимений. Отв. ред. В.А.Успенский. М., “Наука”, 1985, 130 с.

(3). Маслова В.А. К построению психолингвистической модели коннотации. № 1, М., “Наука”, 1989, с. 108–108.

(4). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., “СЭ”, 1969, с. 203–204.

(5). Алефиренко Н.В. Современные проблемы науки о языке. М., “Флинта, Наука”, 2005, 410 с.

(6). Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. АН, ин-т яз-ния, М., “Наука”, 1986, с. 5.

(7). Кольшанский Ж.В. Соотношение субъективных и объективных факторов в языке. АН ин-т яз-ния, М., “Наука”, 1975, 126 с.

(8 Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. АН, ин-т яз-ния, М., “Наука”, 1986, 21 с.

(9). Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. 2-е изд., перераб., М., “Высш. шк.”, Дубна, Изд. центр “Феникс”, 1996, 310–381 с.

(11). Шепилова Т.А. Французские фразеологические единицы с компонентом зоонимом: семантический, функционально-стилистический и когнитивный аспекты. Дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук, Воронеж, 2001, 157 с.

(12). Николаева Е.А. Первичное фразообразование в бельгийском варианте французского языка. Семантический аспект, АКД, М., МПГУ, 2006, 18 с.

(13). Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. АН, ин-т яз-ния, М., “Наука”, 1986, с. 34.

Sadullayeva Sapura Batirbek qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi; sapura86325gmail.com)

KOGNITIV LINGVISTIKADA KONSEPT: TIL, TAFAKKUR VA MADANIYAT O‘RTASIDAGI INTEGRATIV YONDASHUV

Annotatsiya. *Maqolada konsept kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatildi. Tadqiqotda semantik tahlil, metafora va metonimiya modellashtirish hamda diskursiy kuzatuv usullari qo‘llanildi. Natijalar konseptning leksik, obrazli va aksiologik qatlamlarini, freym va prototip mexanizmlarini hamda madaniy motivatsiyani ochib beradi. Ilmiy yangilik konsept indikatorlarini tizimlashtirish va ularni amaliy tahlilda qo‘llash mezonlarini taklif qilishda namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *konsept, kognitiv lingvistika, freym, prototip, metafora, metonimiya, diskurs, madaniyat.*

Садуллаева Сапура Батирбек кизи (преподаватель Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни; sapura86325gmail.com)

КОНЦЕПТ В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ: ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД МЕЖДУ ЯЗЫКОМ, МЫШЛЕНИЕМ И КУЛЬТУРОЙ

Аннотация. *Статья посвящена анализу концепта с позиции когнитивной лингвистики, выявлению взаимосвязей между языком, мышлением и культурой. В исследовании использовались семантический анализ, моделирование концептуальных метафор и метонимий, а также наблюдение в дискурсе. Результаты показывают лексический, образный и аксиологический уровни концепта, механизмы фрейма и прототипа, а также культурную мотивацию. Научная новизна заключается в систематизации индикаторов концепта и предложении критериев их практического анализа.*

Ключевые слова: *концепт, когнитивная лингвистика, фрейм, прототип, метафора, метонимия, дискурс, культура.*

Sadullayeva Sapura Batirbek qizi (teacher Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni; sapura86325gmail.com)

CONCEPT IN COGNITIVE LINGUISTICS: AN INTEGRATIVE APPROACH BETWEEN LANGUAGE, THOUGHT, AND CULTURE

Annotation. *The article analyzes the concept from the perspective of cognitive linguistics, highlighting the interrelations between language, thought, and culture. The study employs semantic analysis, conceptual mapping of metaphor and metonymy, and discourse-based observation. The results reveal the lexical, figurative, and axiological layers of the concept, as well as frame and prototype mechanisms and cultural motivation. The scientific novelty lies in systematizing concept indicators and proposing criteria for their practical analysis.*

Keywords: *concept, cognitive linguistics, frame, prototype, metaphor, metonymy, discourse, culture.*

Kirish. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning kognitiv yo‘nalishi jadal rivojlanmoqda, uning maqsadi nafaqat tilni o‘rganish, balki bilishni, ya’ni, insonning aqliy va intellektual qobiliyatlari to‘plami bo’lgan kognitiv jarayonni ham o‘rganishdir. Kognitiv lingvistika tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki inson tajribasini tartiblaydigan va bilimni tuzadigan kognitiv mexanizm sifatida tadqiq etadi. Shu nuqtayi nazardan konsept kategoriyasi markaziy o‘rin egallaydi, chunki u til birliklari ortida turgan mental tuzilmalarni, tajriba sxemalarini va madaniy ahamiyatni birlashtiruvchi uzel vazifasini bajaradi. So‘nggi yillarda konseptga oid tadqiqotlar ko‘paygan bo‘lsa-da, ilmiy adabiyotda ikki muammo saqlanib qolmoqda: birinchisi, “konsept”ning ta’rifi va chegaralari turli maktablarda bir xil emasligi; ikkinchisi, til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro ta’siri konsept tahlilida ko‘pincha parchalanib, alohida yo‘nalishlar doirasida yoritilishi. Natijada konseptni tahlil qilishda mezonlarning barqarorligi, tahlil birliklari o‘rtasidagi nisbat va empirik dalilga tayanuvchanlik masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Konsept” atamasi tarixiga nazar tashlansa, avval, falsafa, psixologiya, psixolingvistika sohalarida keng qo‘llanilgan, keyinchalik, kognitiv tilshunoslik va lingvoma-

daniyatshunoslikda o‘ziga xos ma’no olgan. Konsept (lotincha “conceptus”–“tushuncha” degan ma’noni anglatadi) atamasi fanga, dastlab, o‘rta asrlarda U.Gobbs, P.Abelyar, U.Okkam kabi faylasuflar tomonidan olib kirilgan. Ular konseptni narsalarning belgilarini umumlashtiruvchi va ong tomonidan uning ichki foydalanishi uchun gavdalantirilgan, o‘zida muhim va dolzarb axborotni jamlagan universal omil sifatida izohlaganlar. Lingvistik adabiyotlarda esa bu tushuncha XX asrning birinchi yarmidan paydo bo‘la boshlagan. Mazkur atama ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi S.A.Askaldov-Alekseyev maqolasida qo‘llangan. Biroq shunga qaramay, 70-yillargacha ham u izohtalab mavzulardan biri sifatida alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan [9;53-b.].

Kognitiv ilmiy paradigma konsepsiyani bilimning minimal "g‘ishtchasi" sifatida emas, ko‘p qatlamli, dinamik va kontekstga sezgir tuzilma sifatida ko‘radi. Misol uchun, o‘zbek tilida "mehmondo‘stlik" – lug‘at ma’nosi "mehmonni kutish" bo‘lsa, konseptda non pishirish, dasturxon yoyish va oilaviy issiqlik bilan to‘ldirilgan tajriba sifatida tushuniladi. Konsept ma’no bilan tenglashtirilmaydi: ma’no til tizimida kodlangan bo‘lsa, konsept tajriba, idrok, hissiy baho va ijtimoiy normalar bilan to‘ldirilgan mental modeldir. Shu bois konseptni" so‘z ma’nosi" orqali bevosita chiqarib olish cheklangan, u til, diskurs va madaniy amaliyotlar kesishmasidagi indikatorlar majmuasi orqali tiklanadi. Bu yondashuv Lakoff va Jonsonning konseptual metafora nazariyasi hamda Langakerning kognitiv grammatika qarashlari bilan uyg'unlashadi, chunki ularning ishlari ma’noni qo‘llanish va tajriba bilan bog‘laydi [4;276-b.; 3;516-b.].

Rus kognitiv va lingvomadaniy an’analarida konsept "madaniy mazmun tashuvchi mental birlik" sifatida talqin qilinadi va til birliklarida ijtimoiy qadriyatlar izini qoldiradi [2;477-b,].

Mazkur maqolaning ilmiy muammosi shundan iboratki, konsept talqinini integrativ model sifatida asoslab berish, ya’ni, konseptning kognitiv mexanizmlari bilan birga madaniy motivatsiyasini ham izchil metodologik doirada ko‘rsatish zarur. Tadqiqot bo‘shlig‘i konsept tahlilining amaliy mezonlari va qatlamlarini bir xil tilda ifodalash, ularni diskursiy dalillar bilan asoslash hamda til–tafakkur–madaniyat bog‘liqligini bitta analitik ramkada yig‘ish bilan bog‘liq. Maqolaning maqsadi konseptni kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan talqin qilishning nazariy asoslarini aniqlash va til, tafakkur hamda madaniyat o‘rtasidagi munosabatni konsept tahlili orqali modellashtirishdir. Maqolaning maqsadi konseptni kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan talqin qilishning nazariy asoslarini aniqlash hamda til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni konsept tahlili orqali ko‘rsatishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: konsept haqidagi asosiy talqinlarni tizimlashtirish; konsept tuzilmasining asosiy qatlamlarini ajratib ko‘rsatish; konsept indikatorlarini aniqlash; til birliklari va diskurs kontekstlari orqali konseptualizatsiya jarayonini yoritish. Natijada konsept tahlilini amalga oshirish uchun izchil metodik sxema taklif etiladi.

Metodlar. Mazkur tadqiqot interdisiplinar yondashuvga asoslanadi. Unda kognitiv semantika, lingvomadaniyatshunoslik hamda diskurs tahlili metodlari uyg‘un holda qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini konseptual metafora va metonimiyani inson tafakkurida ma’no hosil qilishning muhim kognitiv mexanizmi sifatida talqin qiluvchi qarashlar tashkil etadi [1;111–137-b.]. Shuningdek, freym semantikasi hamda prototip nazariyasining asosiy tamoyillaridan foydalanildi.

Konseptni tahlil qilishda bitta manbaga tayanib qolmaslik maqsadida uch turdagi dalillar birlashtirildi:

•Leksik-semantik dalillar, ya’ni, konseptni ifodalovchi asosiy nominatsiyalar hamda ularning sinonimik va antonimik munosabatlari. Masalan, “go‘zallik” o‘zbek tilida *chiroy, latofat, husn, jamol* kabi so‘zlar bilanifodalanadi.

•Diskursiy dalillar, ya’ni, turli nutq janrlarida uchraydigan tipik kollokatsiyalar, baholovchi birliklar va pragmatik kontekstlar. Masalan: *“tabiatning go‘zalligi”, “ichki go‘zallik”, “qalb go‘zalligi”* kabi birikmalar turli diskurslarda konseptning turli qirralarini ochib beradi.

•Madaniy-semiotik dalillar, ya’ni, urf-odatlar, ramzlar, stereotiplar va madaniy qadriyatlarni ifodalovchi barqaror obrazlar.

Masalan, o‘zbek madaniyatida *oydek yuz*, *guldek qiz*, *latofatli kelin* kabi tasvirlar go‘zallik konseptining madaniy obrazlarini ifodalaydi. Empirik material sifatida o‘zbek tilidagi ommaviy axborot vositalari matnlari, badiiy adabiyotdan tanlangan parchalar va izohli lug‘atlarda berilgan ma’no sharhlari tahlil qilindi. Tadqiqotda materiallar qat’iy statistik korpus sifatida o‘lchanmadi, chunki maqolaning asosiy maqsadi miqdoriy natijalarni aniqlash emas, balki konsept indikatorlari va ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatishdan iborat. Materiallarni tanlashda takrorlanuvchanlik va janrlararo barqarorlik mezonlariga amal qilindi. Agar biror birlik faqat bitta muallif uslubiga xos bo‘lsa, u konsept indikatoriga kiritilmadi. Shuningdek, qiyosiy-analitik usul yordamida konseptning kognitiv va madaniy qatlamlari ajratildi hamda rus va xalqaro ilmiy adabiyotlarda berilgan talqinlar bilan solishtirildi [2;477-b.;7;27-b.].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari konsept tuzilmasini uchta asosiy qatlam orqali tushuntirish mumkinligini ko‘rsatdi.

Birinchi qatlam nominativ-semantik qatlam bo‘lib, u konseptning til tizimidagi eng barqaror ifodasini ko‘rsatadi. Bu qatlamda konsept asosiy nomlar, ularning morfologik hosilalari hamda sinonimik qatorlar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, go‘zallik konsepti *go‘zallik, chiroy, latofat, husn, jamol* kabi birliklar orqali ifodalanadi. Ushbu birliklar konseptning lug‘aviy yadrosini tashkil etadi. Biroq faqat nominativ qatlamga asoslangan tahlil konseptning obrazli va qadriyatga oid tomonlarini to‘liq ochib bera olmaydi.

Ikkinchi qatlam *obrazli-assotsiativ qatlam* bo‘lib, u metafora, metonimiya va stereotip obrazlar orqali shakllanadi. Konseptual metaforalar bu qatlamda abstrakt tajribani tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida go‘zallikni tasvirlashda quyidagi metaforik obrazlar keng qo‘llanadi: *oydek yuz; guldek qiz; bahordek chiroy;nurli chehra.* Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, go‘zallik ko‘pincha tabiat obrazlari orqali ifodalanadi. Bunday tasvirlar insonning estetik tajribasini madaniy me’yorlar asosida tartibga soladi.

Uchinchi qatlam aksiologik-pragmatik qatlam bo‘lib, unda konseptning baholovchi va ijtimoiy ahamiyatga ega jihatlari namoyon bo‘ladi. Konseptlar nafaqat muayyan ma’noni anglatadi, balki unga nisbatan ijtimoiy munosabatni ham ifodalaydi. Masalan: *ichki go‘zallik tashqi go‘zallikdan muhim; go‘zallik qalb pokligida*

Bu kabi ifodalar go‘zallik konseptining nafaqat estetik, balki axloqiy qadriyatlar bilan ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, konsept tuzilmasini freym va prototip mexanizmlari orqali izohlash mumkinligini ko‘rsatdi. Freym konsept bilan bog‘liq tipik vaziyatni ifodalasa, prototip kategoriya ichidagi eng tipik namunani bildiradi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, konseptning prototip markazi va periferiyasi diskursga qarab o‘zgarishi mumkin, biroq bu o‘zgarish madaniy me’yorlar bilan chegaralanadi.

Olingan natijalar konseptni faqat lug‘aviy ma’no bilan tenglashtirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Konsept aslida ko‘p qatlamli mental va madaniy tuzilma hisoblanadi.

Lakoff va Jonson konseptual metafora abstrakt tafakkurni tashkil etuvchi muhim mexanizm ekanini ta’kidlaydi [4;276-b.]. Tadqiqot natijalari ham metafora konseptning obrazli qatlamini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, metafora aksiologik qatlam bilan ham bog‘lanib, muayyan baholashni tabiiy ko‘rinishda ifodalashga xizmat qiladi.

Langaker kognitiv grammatika doirasida ma’noni konseptualizatsiya jarayoni sifatida talqin qiladi va til birliklarining ma’nosi ularning qo‘llanish kontekstiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [3;516-b.]. Tadqiqot natijalari ham konsept tahlilida diskurs kontekstining muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Rus lingvomadaniyatshunoslik an’anasida konsept madaniyatning muhim mazmuniy birligi sifatida qaraladi. Xususan, Stepanov konseptni madaniyatning “asosiy hujayrasi” sifatida talqin qilgan [8; 992-b]. Ushbu qarash konseptning aksiologik qatlamini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, konseptni faqat qadriyatlar bilan bog‘lash ham yetarli emas. Konseptning nominativ va obrazli qatlamlari ham uning kognitiv tuzilishini shakllantiradi.

Karasik konseptni diskurs va kommunikativ xulq bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi [2;477-b]. Bu yondashuv ham tadqiqot natijalari bilan mos keladi, chunki konsept til tizimi, diskurs va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatni aks ettiradi.

Freym semantikasi doirasida Charles J. Fillmore ma’noni muayyan situativ tuzilma sifatida tushuntiradi. Unga ko‘ra, har bir so‘z ortida ma’lum bir “sahna” yoki vaziyat modeli mavjud bo‘ladi va so‘z ma’nosini tushunish uchun shu vaziyatni ongda tiklash zarur [1;115-b.]. Tadqiqot natijalari freym tahlili konseptning situativ tuzilishini aniqlashda samarali metod ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ijtimoiy rollar va ijtimoiy kutilmalar bilan bog‘liq konseptlarni o‘rganishda bu yondashuv muhim ahamiyatga ega.Masalan, go‘zallik konsepti bilan bog‘liq freymda quyidagi elementlar namoyon bo‘lishi mumkin:

•tashqi ko‘rinish (chehra, kiyinish, qomat);

•ichki sifatlar (odob, muloyimlik, samimiyat);

•ijtimoiy baholash (maqtov, e’tirof, ideal obraz).

Biroq freym yondashuvi o‘z-o‘zidan baholovchi komponentni to‘liq ochib bera olmaydi. Ko‘pincha, baholash unsurlari diskursiy pragmatika orqali aniqlanadi. Shu sababli freym tahlilini baholovchi indikatorlar bilan birlashtirish konseptni yanada to‘liqroq tavsiflash imkonini beradi.

Shuningdek, Eleanor Rosch tomonidan ishlab chiqilgan Prototype Theory kategoriya chegaralarining qat’iy emasligini va kategoriya ichida markaz hamda periferiyaning mavjudligini asoslab beradi [7;27–48-b]. Tadqiqot natijalari prototip markazi diskursga qarab o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatdi. Shu bois prototipni faqat statik namuna sifatida emas, balki kontekstga moslashuvchi kognitiv tayanch sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, go‘zallik konseptining prototipi turli diskurslarda turlicha namoyon bo‘lishi mumkin:

•badiiy adabiyotda – ruhiy poklik va ichki latofat;

•ommaviy madaniyatda – tashqi ko‘rinish va jismoniy joziba;

•xalq og‘zaki ijodida – tabiat obrazlari bilan bog‘liq estetik tasvirlar.

O‘zbek tilshunosligida semantika va uslubiyat bo‘yicha shakllangan an’analar konsept tahlili uchun muhim tayanch bo‘la oladi, chunki ular ma’no qatlamlari, uslubiy rang va nutqiy muhit masalalarini izchil yoritgan [5;256-b.].

Mazkur natijalar shu an’analarni kognitiv yondashuv bilan integratsiya qilish mumkinligini ko‘rsatadi: masalan, uslubiy rang va baholovchi birliklarni aksiologik qatlam indikatorlari sifatida, frazeologik barqarorlikni esa konseptning madaniy kodlash mexanizmi sifatida ko‘rish mumkin. Rahmatullayevning o‘zbek leksik-semantik tizimi bo‘yicha ishlari nominativ qatlamni tahlil qilishda metodik aniqlik beradi, chunki konseptni rekonstruksiya qilish, ko‘pincha, aynan leksik munosabatlar tarmog‘idan boshlanadi [6;152-b.].

Tadqiqot natijalarini umumlashtirganda, til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi munosabat konsept orqali oddiy “uch bo‘g‘inli” bog‘lanish sifatida emas, balki ko‘p yo‘nalishli tizim sifatida namoyon bo‘lishi aniqlanadi.

•**Til** konseptni kodlaydi va uni ifodalash vositalarini taqdim etadi.

•**Tafakkur** konseptni inson tajribasi asosida shakllantiradi.

•**Madaniyat** esa konseptning baholovchi va ramziy qatlamlarini barqarorlashtiradi.

Biroq bu uch omil o‘zaro mustaqil emas. Ular diskurs jarayonida doimiy ravishda bir-biriga ta’sir qiladi va konsept mazmuni ham shu jarayonda yangilanib boradi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqotda konseptni kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan talqin qilishning nazariy va metodik asoslari ko‘rib chiqildi. Tahlil natijalari konseptni faqat lug‘aviy ma’no bilan cheklab bo‘lmasligini, balki u til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi ko‘p qatlamli mental tuzilma ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida konsept tuzilmasining nominativ-semantik, obrazli-assotsiativ va aksiologik-pragmatik qatlamlari ajratildi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berildi. Shuningdek, freym va prototip mexanizmlari konsept tuzilmasini tizimli tarzda tushuntirishda samarali nazariy vosita ekani aniqlandi. Leksik birliklar, diskurs kontekstlari hamda madaniy-semiotik belgilarni birgalikda tahlil qilish konseptni yanada to‘liq rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Natijada konsept indikatorlarining majmuasi aniqlashtirildi va konsept tahlilini amalga oshirish uchun integrativ metodik yondashuv taklif qilindi. Ushbu yondashuv keyingi tadqiqotlarda, xususan, muayyan lingvomadaniy konseptlarni, jumladan, go‘zallik konseptini chuqurroq o‘rganishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mum-kin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Fillmore C.J. Frame Semantics. In: Linguistics in the Morning Calm. Seoul, Hanshin Publishing Company, 1982, p. 111–137.

(2). Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, “Перемена”, 2002. 477 с.

(3). Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1. Theoretical Prerequisites. Stanford, Stanford University Press, 1987, 516 p.

(4). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, University of Chicago Press, 2003, 276 p.

(5). Нурмонов А. Умумий тилшунослик. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2001, 256-бет.

(6). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг лексик семантикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1985, 152-бет.

(7). Rosch E. Principles of Categorization. In: Cognition and Categorization. Hillsdale, Lawrence Erlbaum Associates, 1978, p. 27–48.

(8). Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. Москва, “Академический проект”, 2004, 992 с.

(9). Sharipova O.X. Kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va psixolingvistikada konseptga munosabat masalasi. SCIENCE TIME, 2024, vol. 3, Issue 1. DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.14919640 52–54 p.

Uralov Azamat Begnarovich (Sirdaryo viloyat Pedagogik mahorat markazi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor; azamaturalov06@gmail.com)

IJTIMOIY TARMOQLARDA YOZUV MADANIYATI VA STILISTIKA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda yozuvning kommunikativ, stilistik va pragmatik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Onlayn muloqot shakllari – chat, post, sharh va statuslar an’anaviy yozma nutqdan farqli ravishda tezkorlik, ixchamlik va interaktivlik tamoyillariga asoslanishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Matnda onlayn nutq modeli, fragmental struktura, auditoriyaga moslashuv mexanizmlari hamda stilistik ixchamlashuv jarayonlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *onlayn yozuv, kommunikativ model, stilistik ixchamlashuv, multimodal nutq, emoji, sleng, auditoriya moslashuvi, til brendlashuvi, normativ va noformal yozuv.*

КУЛЬТУРА И СТИЛИСТИКА ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Аннотация. *В данной статье проводится всесторонний анализ коммуникативных, стилистических и прагматических особенностей письменной речи в социальных сетях. Научно обосновано, что формы онлайн-коммуникации – чат, посты, комментарии и статусы, в отличие от традиционной письменной речи, основаны на принципах скорости, лаконичности и интерактивности. В тексте рассматриваются модель онлайн-речи, фрагментарная структура, механизмы адаптации к аудитории и процессы стилистической компактификации.*

Ключевые слова: *онлайн-письмо, коммуникативная модель, стилистическая компактификация, мультимодальная речь, эмодзи, сленг, адаптация к аудитории, языковой брендинг, нормативно-неформальное письмо.*

WRITING CULTURE AND STYLISTICS IN SOCIAL NETWORKS

Annotation. *This article comprehensively analyzes the communicative, stylistic and pragmatic features of writing in social networks. It is scientifically substantiated that online communication forms – chat, posts, comments and statuses, unlike traditional written speech, are based on the principles of speed, conciseness and interactivity. The text covers the online speech model, fragmented structure, audience adaptation mechanisms and stylistic compactification processes.*

Keywords: *online writing, communicative model, stylistic compactification, multimodal speech, emoji, slang, audience adaptation, language branding, normative and informal writing.*

Kirish. Ijtimoiy tarmoqlarda yozuvning kommunikativ xususiyatlari an’anaviy nutqdan sezilarli darajada farq qiladi. Chatlar, postlar, sharhlar va statuslar kabi onlayn muloqot shakllari foydalanuvchiga tezkor, ixcham va interaktiv ifoda vositalarini talab qiladi. Shu sababli onlayn yozuvning asosiy modelini tushunish tilning raqamli davrdagi tabiiy evolyutsiyasini tadqiq etishda muhimdir. Chat, post va sharhlardagi nutq modeli, odatda, ixcham va fragmental bo‘ladi. Uzoq, murakkab jumlalar o‘rniga foydalanuvchilar qisqa, ekspressiv va tez tushunarli iboralardan foydalanadi. Masalan, do‘stlar o‘rtasida muloqotda “Men ham shu fikrni qo‘llayman” o‘rniga “Shu”, “Ha, aynan” kabi qisqa ifodalar ishlatiladi. Shu bilan birga, postlar va sharhlarda auditoriyani jalb qilish uchun savol shaklida iboralar yoki emojilar qo‘llanadi, bu esa nutqning interaktiv xarakterini oshiradi. Tezkor muloqotning matn strukturasi onlayn yozuvning yana bir muhim jihati hisoblanadi. Foydalanuvchilar bir vaqtning o‘zida bir nechta izoh yoki javob yaratishi mumkin, bu esa nutqni dinamik va ritmik qiladi. Struktur jihatdan, chat va postlar ko‘pincha qisqa paragraf yoki bo‘linmalardan iborat bo‘lib, har bir segment ma’lum bir fikrni yoki hissiy ohangni yetkazishga xizmat qiladi. Shu tarzda, matnning ixchamligi va ritmikligi kommunikativ samaradorlikni oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlarda berilishicha interaktiv kommunikatsiya va auditoriya moslashuvi onlayn yozuvning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Foydalanuvchilar o‘z nutqini auditoriyaning yoshiga, til savodxonligiga va kontekstga moslashtiradi. Masalan, Z.Karimovaning fikricha, yoshlar submadaniyati vakillari o‘rtasida qisqa, sleng va kod-aralashuvli yozuv ishlatilsa, rasmiy blog yoki jamoatchilik postlarida normativ va ixcham tilda yozuv ustunlik qiladi. Shu tarzda, nutqning auditoriyaga moslashuvi interaktiv muloqot samaradorligini ta’minlaydi. Onlayn yozuvning kommunikativ xususiyatlari ijtimoiy tarmoqlarda tezkor, ixcham va interaktiv muloqotni ta’minlaydi. Chat, post, sharh va statuslarda nutq modeli, matn strukturasi va auditoriya moslashuvi internet tilining asosiy tendensiyalarini aks ettiradi hamda foydalanuvchilarga samarali va ekspressiv ifoda vositalarini yaratish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy tarmoqlarda yozuvning asosiy xususiyatlaridan biri stilistik ixchamlashuv hisoblanadi. Onlayn muloqot tezkor va interaktiv bo‘lgani sababli foydalanuvchilar o‘z ifodasini qisqa va samarali shaklda yetkazishga intiladi. Bu jarayon nutqning ritmikligi, ekspressivligi va kreativligini oshiradi hamda internet tilining o‘ziga xos estetikasini shakllantiradi.

Qisqa va ekspressiv ifodalar chat va postlarda eng ko‘p ishlatiladigan stilistik vositalardan biri hisoblandi. Uzoq jumlalar o‘rniga foydalanuvchilar minimal leksik birliklar orqali o‘z fikrini yetkazadi. Masalan, “Bu yangilik juda qiziq” o‘rniga “Zo‘r!”, “Ajoyib!” kabi ixcham iboralar ishlatiladi. Shu bilan birga, takroriylik, emojilar va punktuatsiyalardagi o‘yinlar nutqni yanada ekspressiv va jonli qiladi, matnga hissiy ohang qo‘shadi. Sleng, meme va hashtaglar orqali stilistik o‘zgarish yanada kengayadi. Yoshlar submadaniyati va internet-madaniyatiga xos iboralar, masalan, “lol”, “bruh”, “mood”, memlar va GIFlar matnga xumor, ironik yoki dramatik ohang beradi. Hashtaglar esa matnga semantik qatlam qo‘shadi va kontentni tizimli ravishda kategoriyalash imkonini yaratadi. Shu tarzda, stilistik ixchamlashuv nutqni interaktiv va auditoriyaga mos qiladi, shuningdek, onlayn muloqotning kreativligini oshiradi.

Matnning vizual va semantik dizayni ham stilistik ixchamlashuvda muhim rol o‘ynaydi. Foydalanuvchilar matnni turli usullar bilan bo‘lishadi: bo‘linmalar, punktuatsiya belgilarining ijodiy ishlatilishi, bo‘shliq va emoji kombinatsiyalari orqali vizual ritm yaratishadi. Bu matnni nafaqat o‘qish oson bo‘lishiga, balki auditoriyada kuchli vizual-hissiy ta’sir qoldirishiga yordam beradi. Shu tarzda, matnning vizual va semantik

dizayni stilistik ixchamlashuvni mustahkamlaydi va kommunikativ samaradorlikni oshiradi. Stilistik ixchamlashuv va kreativlik ijtimoiy tarmoqlardagi yozuvning asosiy tendensiyalari hisoblanadi. Qisqa va ekspressiv ifodalar, sleng va hashtaglar, shuningdek matnning vizual-semantik dizayni internet tilini dinamik, interaktiv va auditoriyaga mos qiladi. Ushbu jarayon foydalanuvchilarga tezkor, ekspressiv va kreativ ifoda vositalarini yaratish imkoniyatini beradi hamda tilning raqamli davrdagi tabiiy evolyutsiyasini aks ettiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda yozuvning ajralmas qismi sifatida emojilar, piktogrammalar va multimodal belgilar kommunikativ jarayonga yangi ifoda vositalarini olib kirdi. Ular matnni boyitadi, hissiy ohang qo‘shadi va nutqning ekspressivligini oshiradi. Onlayn nutqda bu belgilar faqat vizual aks ettirish vositasi emas, balki tilning lingvistik funksiyasini ham bajaradi. Ekspressiv belgilar lingvistik funksiyasi turlicha ko‘rinadi. Emojilar oddiy so‘zlarni o‘rnini bosishi, hissiy ohangni kuchaytirishi va murakkab fikrlarni qisqa shaklda yetkazishi mumkin. Masalan, kulayotgan yuz yoki qo‘llar bilan salomlashuvchi piktogramma matndagi emotsional nuqtani aniq ifodalaydi. Shu tarzda, lingvistik va vizual kodlar birlashib, nutqni tez va samarali yetkazish imkonini yaratadi. Emotikon va mem.lar orqali kommunikativ niyat yanada murakkablashadi. Mem.lar nafaqat hazil, ironik yoki sarkastik ohang yaratadi, balki ijtimoiy kontekstni ham ifodalaydi. Misol uchun, ma’lum bir mem bir guruh foydalanuvchilar orasida tez tarqaladi va ular orasida umumiy tushuncha yoki hazil shakllantiradi. Shu bilan birga, emotikonlar va memlar foydalanuvchining niyatini, hissiy reaksiyasini va kontekstga moslashuvini aniqroq ifodalaydi.

Multimodal yozuvning stilistik jihatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Matn, emoji, GIF va boshqa vizual elementlar bir-birini to‘ldiradi va matnga ritm, ohang va ekspressivlik beradi. Multimodal yozuv interaktivlikni kuchaytiradi, chunki foydalanuvchilar matn orqali nafaqat ma’lumot yetkazadi, balki hissiy va stilistik ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, multimodal belgilar tilning evolyutsiyasiga ta’sir qiluvchi innovatsion vosita sifatida xizmat qiladi, yangi kommunikativ normalarni shakllantiradi. Emojilar, piktogrammalar va multimodal belgilar internet-muloqotning asosiy stilistik va lingvistik elementlariga aylangan. Ular nutqning ekspressivligini oshiradi, foydalanuvchining niyatini aniq ifodalaydi va matnni auditoriyaga moslashtiradi. Shu tariqa, multimodal yozuv onlayn kommunikatsiyani dinamik, kreativ va interaktiv qiladi hamda raqamli davrda o‘zbek tilining stilistik evolyutsiyasini aks ettiradi.

Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga nafaqat ma’lumot almashish imkoniyatini beradi, balki shaxsiy identitetini yaratish va til orqali brendlashuv jarayonini ham shakllantiradi. Bloggerlar, influencerlar va faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o‘z nutqini nafaqat kommunikativ, balki stilistik va strategik maqsadlar uchun ham moslashtiradi. Blogger va influencerlar tili – bu onlayn nutqning eng kreativ va dinamik shakllaridan biridir. Ular kontent orqali o‘z shaxsiy brendini yaratadi, auditoriyani jalb qiladi va o‘zaro interaktiv muloqotni boshqaradi. Nutqning ritmikligi, sleng va kod-aralashuvlardan foydalanish, emojilar va memlar bilan boyitilgan ifodalar influencerlarning shaxsiy uslubini shakllantiradi. Shu bilan birga, ularning tili auditoriya bilan o‘zaro bog‘lanishni kuchaytiradi, foydalanuvchida ishonch va qiziqish uyg‘otadi. Foydalanuvchi identitetini yaratish usullari bir necha qatlamli bo‘ladi. Avvalo, u shaxsiy nutq uslubini tanlaydi: ixcham va ekspressiv jumlalar, emojilar, hashtaglar, memlar orqali o‘z ifodasini shakllantiradi. Ikkinchidan, vizual va multimodal elementlar yordamida matnni boyitadi, bu esa auditoriyaga yanada jozibador bo‘lishini ta’minlaydi. Shu tarzda, har bir foydalanuvchi o‘z “onlayn men” konsepsiyasini yaratadi va uni ijtimoiy tarmoq maydonida faol ravishda ifodalaydi.

Stil va ton tanlovi ham shaxsiy identitetni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Yozuvning rasmiy yoki norasmiy ohangi, hazil, sarkazm, hissiy ekspressivlik va auditoriyaga moslashuv nutqning shaxsiy brendini belgilaydi. Misol uchun, yosh auditoriyaga mo‘ljallangan blog postlarda qisqa, hazilomuz va interaktiv ohang ustun bo‘lsa, rasmiy kontentda normativ, ixcham va professional stil qo‘llaniladi[1].

Ijtimoiy tarmoqlarda nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri normativ va noformal yozuv shakllarining uyg‘unligi va o‘zaro ta’siridir. Internet-muloqotning tezligi, interaktivligi va kreativ tabiati an’anaviy adabiy til me’yorlaridan ma’lum darajada chetlanishga olib keladi. Shu bilan birga, noformal yozuvning o‘ziga xos afzalliklari mavjud bo‘lib, ular foydalanuvchilarga samarali va ijodiy ifoda imkonini yaratadi. Adabiy norma va internet tili o‘rtasidagi tafovut, asosan, yozuvning ixchamlashuvi, sintaktik va morfologik o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, normativ til me’yorlariga muvofiq jumlalar uzun, to‘liq va punktuatsiya bilan aniqlangan bo‘lsa, onlayn yozuvda ular qisqa, fragmental va ekspressiv shaklda bo‘ladi. Shu bilan birga, fonetik yozuv, transliteratsiya va qisqartmalar internet-muloqotning tabiiy vositalariga aylangan. Bu tafovut tilning kreativ va kontekstga moslashuvchan shakllarini yuzaga keltiradi.

Noformal yozuvning kommunikativ afzalliklari, ko‘p jihatdan, uning tezkorligi va auditoriyaga moslashuvchanligida namoyon bo‘ladi. Qisqa, ekspressiv va multikodli iboralar foydalanuvchiga o‘z fikrini tez

[1] Uralov A. Lingvomadaniyat va ijtimoiy tarmoqlar tili. Toshkent, Grand kondor print, 2026, 69-bet.

va aniq yetkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, noformal yozuv ijtimoiy interaktsiyani mustahkamlaydi: sleng, hashtaglar, emojilar va memlar orqali foydalanuvchilar o‘zaro bog‘lanadi, umumiy submadaniyatni shakllantiradi va nutqning hissiy ohangini oshiradi. Yoshlar tilining innovatsion xususiyatlari ham normativ va noformal yozuvning integratsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar tez-tez yangi leksik birliklar, kod-aralashuv, qisqartmalar va multikodli elementlardan foydalanadi, bu esa onlayn nutqni dinamik, interaktiv va kreativ qiladi. Shu tarzda, yoshlar submadaniyati internet tilining rivojlanishiga va yangi kommunikativ normalarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Normativ va noformal yozuv shakllari ijtimoiy tarmoqlarda o‘zaro uyg‘unlashib, internet-muloqotning asosiy tendensiyalarini belgilaydi. Adabiy norma va noformal til o‘rtasidagi tafovut, noformal yozuvning kommunikativ afzalliklari va yoshlar tilining innovatsion xususiyatlari internet tilining tezkor, interaktiv va ekspressiv shakllanishini ta’minlaydi. Shu tariqa, foydalanuvchilar nafaqat samarali muloqot qiladi, balki tilning kreativ va zamonaviy evolyutsiyasini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdullayev Sh. Til va raqamli madaniyat. Toshkent, “Fan”, 2019.

(2). Karimova Z. Zamonaviy internet tilining lingvopragmatik xususiyatlari. Toshkent, O‘zMU nashriyoti, 2021.

(3). Kellner D., Share J. Critical Media Literacy. Routledge, 2019.

(4). Mardiyeva X. Ijtimoiy tarmoqlarda til registrlarining shakllanishi va funksiyalari. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. Italiya, 2024.

(5). Rustamova M. Ijtimoiy tarmoqlarda norasmiy muloqot va uning tilga ta‘siri. Filologiya masalalari, 2020.

(6). Uralov A. Lingvomadaniyat va ijtimoiy tarmoqlar tili. Toshkent, Grand kondor print, 2026.

Xoliyorova Charosxon Davron qizi (Tadqiqotchi, O‘zbekiston Milliy universiteti; charosxondavronovna@gmail.com)

“PSIXOLINGVISTIKA”NING FAN SIFATIDA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada psixolingvistikaning rivojlanish bosqichlari va uning rivoji uchun hissa qo‘shgan ko‘plab olimlarning fikrlari keltirilgan. Psixolingvistika ko‘plab fanlar bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlangan. Uning tadqiqotlari orqali boshqa fanda ham izlanishlar olib borishi bu fikrning yorqin misolidir. Shuningdek, maqolada psixolingvistikaning bir nechta tamoyillari ham keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar*: psixolingvistika, tilshunoslik, nutq, til, ong, tushuncha.*

Холиёрова Чаросхон Даврон кызы (научный сотрудник Национального университета Узбекистана; charosxondavronovna@gmail.com)

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛИНГВИСТИКИ КАК НАУКИ

Аннотация. *В данной статье представлены этапы развития психолингвистики и взгляды многих ученых, внесших вклад в ее развитие. Психолингвистика развивалась в тесной связи со многими дисциплинами. Ярким примером этой идеи является тот факт, что ее исследования привели к исследованиям в других дисциплинах. В статье также представлены несколько принципов психолингвистики.*

Ключевые слова: *психолингвистика, лингвистика, речь, язык, сознание, концепция.*

Kholiyorova Charoskhon Davron kizi (Researcher, National University of Uzbekistan; charosxondavronovna@gmail.com)

THE STAGES OF FORMATION OF PSYCHOLINGUISTICS AS A SCIENCE

Annotation. *This article presents the stages of development of psycholinguistics and the views of many scientists who contributed to its development. Psycholinguistics has developed in close connection with many disciplines. The fact that its research has led to research in other disciplines is vivid example of this idea. The article also presents several principles of psycholinguistics.*

Key words: *Psycholinguistics, linguistics, speech, language, consciousness, concept.*

Kirish. Til rivojlangani sari jamiyatda ham yuksalish bo‘laveradi va shuning uchun ham tilshunoslik sohasi har doim jamiyatning eng kerakli bo‘ginlaridan biri bo‘lib qolaveradi. Bu sohaning ichida bir qancha sohalar rivojlangan bo‘lib, ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan psixolingvistika va uning rivojlanish tarixiga e’tiborimizni qaratamiz.

Til jonli nutq jarayoni hisoblanib, nutq so‘zlovchining kayfiyati, ruhiyati bilan bog‘liq holda vujudga keladi. Insonning ruhiyati, ichki holatini o‘rganuvchi fan – psixologiya va tilshunoslik fani birgalikda psixolingvistika fani orqali o‘rganiladi va uning tarixi va uning rivojlanish bosqichlari ham o‘ziga xos jarayonni bosib o‘tgan. 1936-yilda psixolingvistika atamasi ilk bor Jako Robert Kantorning “Grammatikaning obyektiv psixologiyasi” deb nomlangan kitobida qo‘llanilgan [9]. Keyinchalik bu atama boshqa olimlar to-

monidan ham keltirib o‘tilgan. Xususan, 1946-yilda uning shogirdi, amerikalik psixolog Nikoloy Genri Prankoning tomonidan yozilgan “Til va Psixolingvistika: Sharh” deb nomlangan maqolasi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Jako Robert Kantorning Indiana universitetidagi hamkasblarining ham bu atamadan unumli foydalanishi yanada psixolingvistika atamasining keng qo‘llanila boshlashi uchun zamin yaratib bergan.

Psixolingvistikaning alohida fan sifatida e’lon qilinishida 1953-yilda AQSHning Blumington shaxridagi Indian universiteti tashkil etgan universitetlararo ilmiy seminar muhim ahamiyat kasb etdi. Seminarda universitet huzuridagi Lingvistika va Psixologiya qo‘mitasi tashkilotchi bo‘ldi va amerikalik mashxur psixologlar Charls Osgud, Djon Kerroll va tilshunos olim Tomas Sibeoklar faol ishtirok etdi. 1954-yilda esa “Psixolingvistika. Nazariya va tadqiqot muammolari ocherki” deb nomlangan to‘plam chop etildi. Unda ilmiy seminar jarayonidagi qabul qilingan psixolingvistikaning nazariy va amaliy muommo va masalalari va eksperimental tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari belgilandi [4;25-b.]. Bu nazariy bilimlar fanlararo psixolingvistik eksperementlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Miloddan avvalgi 384–322-yillarda yashab ijod etgan Arestotelning ham psixolingvistika sohasiga doir mavzularda fikr yuritgani, bu fanning qadimda ham rivojlanish bosqichlari mavjud ekanligidan darak beradi. U nutq, tafakkur va mantiqiy fikrlash o‘rtasidagi o‘zoro bog‘liqliklar haqida salmoqli fikrlar keltirib o‘tgan. Uning ta’kidlashicha “so‘zlar tafakkurning belgisi hisoblanadi”. Keltirilgan bu fikrlar, keyinchalik, psixolingvistik qarashlarga asos bo‘lgan.

O‘rta asrlarda esa Abu Ali ibn Sinoning Psixolingvistikaning psixologik poydevori hisoblangan ma’lumotlari keltirib o‘tilgan. Olim ruhiyat, idrok, xotira va nutq jarayonlari haqida fikr yuritib, inson ongida so‘zning qanday shakllanishi haqida so‘z yuritgan.

Germaniyalik dunyodagi birinchi eksperemental psixologiya labaratoriya asoschisi, olim W.Wundt ham psixologiya nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, psixolingvistik nazariyalarni keltirib o‘tgan. U o‘zining “Physiological Psychology Principles” asarida ong, idrok, sezgi, his-tuyg‘u va iroda kabi jarayonlarni ilmiy yo‘l bilan o‘rganadi. Shuningdek, u nutqni psixologik jarayon sifatida o‘rganadi. Olimning yuqoridagi keltirilgan mavzular doirasidagi ilmiy izlanishlari bugungi kunda psixolingvistikaning yaratilishida poydevor sifatida xizmat qilib kelmoqda,

Bu fanning rivoji uchun yana ko‘plab olimlarning izlanishlari asos bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, nemis tilshunoslari V.Fon Gumbolt, A.Shleyxer va X.Shtayntal, rus polyak tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene, shvetsariyalik tilshunos F.De Sossyur, rus va ukrain filologi va psixologi A.A.Potebnya, amerikalik tilshunos L.Blumfild va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari yangi soha – psixolingvistikaning yaratilishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Tilshunoslikdagi psixologizm oqimi tarafdorlari naturalizmni tanqid ostiga oladilar va ular tilning taraqqiyot bosqichini inson tafakkuri va uning ruhiy taraqqiyoti bilan bog‘liq degan g‘oyani ilgari suradilar. Aslida, tilshunoslikka psixologik muommolar logik va naturalistik g‘oyalar orqali kirib kelgan. Bunda esa V.Fon Gumboldning semantik qurilishda nutqiy ijodiy yondashuv xususidagi konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi.

Berlin universiteti professori bo‘lgan Geyman Shteyental V.Fon Gumboldning g‘oyalarini davomchisi hisoblanadi [8;364-b.]. Uning izlanishlarida til va psixologiyaning bog‘liqligi haqidagi ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Uning fikricha “Til–bu psixologik hodisa”. Ya’ni, til – bu grammatik qoidalar yig‘indisi bo‘libgina qolmay, balki inson ongining mahsulidir. Shuningdek, G. Shteyental “Tilni tushunish uchun inson ruhiy holatlarini o‘rganish zarur ekanligi va til qonunlari – psixologik qonunlar bilan bog‘liq ekanligini takidlagan. E’tiborli jihati shundaki, olimning bunday qiziqarli ilmiy faoliyati boshqa bir guruh olimlarning nazaridan chetda qolmadi. Xususan, Potebnya va Poul, B.De Kurtene, Sepir va Shcherbalar til aloqasining shaxs va xalqqa bog‘liqligi ta’limotini qo‘llab-quvvatlaydi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy asoslarning o‘zi orqali psixolingvistika rivojlanib qolmagan. Uning rivoji uchun rus psixalogiya maktabi vakillari L.S.Vigotskiy (1956), A.A.Leontev (1977–1981) va A.R.Luriya (1959–1962–1975–1979) tomonidan ishlab chiqilgan nazariy tamoyillar ham asos bo‘lib xizmat qiladi. “Tafakkur va nutq mustaqil emas, balki rivojlanish jarayonida bir-biriga singib boradi”,deydi rus olimi L.S.Vigotskiy. Olim o‘zining ichki nutq nazariyasi orqali psixolingvistika uchun nutqni ishlab chiqish modelini ko‘rsatib bergan. Uning fikricha, tashqi nutq ichki nutqqa aylanadi, ichki nutq esa o‘z navbatida qisqa, Grammatik jihatdan to‘liq bo‘lmaydi va ma’noga yo‘naltiriladi. Masalan: bola ovozini chiqarib: “Mashinani bu yerga qo‘yaman”, deydi. Keyin esa ichida “kubni…bu yerga”, deydi. E’tibor qilsak, nutq ichkilashuvi sodir bo‘lganda, bola grammatik qoidalarga bo‘ysunmadi va asosiy so‘zlardan foydalanib maqsadini ifodaladi. Shuningdek, L.S.Vigotskiy bugungi kundagi kognitiv psixologiyaning markaziy tamayillaridan biri hisoblangan “Nutq – fikrni shakllantiruvchi asosiy psixologik vosita”, degan fikrni ilgari surgan.

L.S.Vigotskiy maktabining davomchisi sifatida tanilgan A.N.Leontev faoliyat nazariyasining asoschisi hisoblanib, u nutqni faoliyat sifatida talqin qilgan. Uning fikricha “Nutq passiv jarayon emas, balki maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatdir”. Olim nutqni 3 darajaga bo‘ladi:

1. Faoliyat – motiv bilan bog‘liq.
2. Harakat – maqsad bilan bog‘liq.
3. Amal – sharoitga bogliq bo‘ladi.

Yuqoridagi 3 ta daraja bugungi kundagi kommunikativ nazariyaga asos bo‘ladi. Shuningdek, Leontev “Speech activity” tushunchasini ilmiy muomilaga kiritib, psixolingvistikaning yana bir tomonini ochib bergan.

XIX asrning birinchi yarmida va XX asrning boshlarida psixologik maktablar ham vujudga keldi. Ular til va nutq muommolariga bog‘liq bo‘lgan funksional belgilarni hamda, til qurilishi va nutqiy faoliyatni o‘rganishgan. Bu maktab tarafdorlari asosiy e’tiborni tilning ichki tomoniga, jonli nutqqa, nutqiy jarayonga, so‘z va jumlaning ma’nosiga qaratgan. Ular bu orqali asotsativ psixologiya tushunchalarini aniqlashni maqsad qilishgan. O‘rganishlar natijasida esa psixolingvistikaning o‘rganish obyektlariga quyidagilarni kiritishgan.

•Nutqiy faoliyatning vujudga kelish mexanizmi.
•Bolalar nutqini shakllanish jarayoni.
•Muayyan nutqiy vaziyatlarda so‘zlovchi bilan tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar.
•Nutqning axborot tashish funksiyasini o‘rganish va boshqalar [1;45-b.].

E’tiborlisi shundaki, bugungi kunda ham tilshunoslikning aynan yuqorida keltirilgan yo‘nalishlari ilmiy izlanuvchilarni ko‘proq qiziqtirib kelmoqda.

Taxlil va natijalar. Dastlab, psixolingvistik tadqiqqotlarning asosiy maqsadi matn semantikasini eksperimental o‘rganishga, va matnni qabul qiluvchining matnni qay darajada semantik idrok etishini va matnning mazmunini shakllantirish va tuzilishini o‘rganish edi. A.A.Leontevning tadqiqotlariga e’tibor qaratsak, matnning aloqa aktini ya’ni muloqot holatini biz obyektivlashtirgan holatda tushunamiz. Matnning tarkibiy qismlari esa aloqa predmeti, adresant va adresatlardan tashkil topadi. Bunday vaziyatda matn shakl sifatida va shu shaklda ifodalangan mantiq sifatida qaraladi. Psixolingvistika fani o‘z navbatida tilning haqiqiy psixik muommosi, nutq madaniyati, nutq potologiyasi, fikr va nutq o‘rtasidagi o‘zoro munosabati va barcha nutq bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlarni o‘rganishni o‘z zimmasiga oladi.

Yana bir tilshunos olim Sharl Ballning izlanishlarida esa his hayajonga to‘la nutq holatlarini o‘rganishga katta ahamiyat berilgan. Olim tilda his-hayajonli vaziyatlarni vujudga kelishini ikki maqsadga bo‘lib ko‘rsatadi.

1. So‘zlovchining his tuyg‘usi va yetkazilayotgan ma’lumotga baho berish.
2. Muloqot ishtirokchilariga nutqiy ta’sir o‘tkazish maqsadida lisoniy vositalardan unumli foydalanish [4;75-b.].

Ushbu ikki madsad bugungi kundagi muloqotimizni maqsadlarini ko‘rsatib bera oladi. Ular hozirda psixolingvistika, pragmalingvistika va tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlarida bir qator muommolarni o‘rganib chiqishda asosiy omillar safiga kiritiladi. Demak, olimning bu keltirib o‘tgan fikr va mulohazalari o‘rinli va diqqatga sazovar bo‘lib qoladi.

Psixolingvistika tilning boshqa hususiyatlarini ham o‘rganadi. Unda aynan til birliklaridan nutqiy faoliyatda foydalanish, ularni shaxsning xususiyatlari, ruhiyati va tafakkuri, xarakteri va kayfiyatini ham asosiy masala sifatida o‘rganadi. Xulosa qiladigan bo‘lsak til va uning elementlarisiz nutq yuzaga kelmaydi.

Psixolingvistikaning obyekti nutqiy hodisalar yoki nutqiy voqealarni o‘zoro birlashuvidir. Psixolingvistikani o‘rganishda nutqiy fanlarga bog‘liq bo‘lgan usullardan foydalaniladi. Ular, asosan, uchta guruhga bo‘linadi.

1. Umumiy metodologiya.
2. Ilmiy metodologiya.
3. Maxsus tadqiqot metodlari [2;57-b.].

Umumiy metadalogiya falsafa hisoblanib, psixolingvistik fikrning ilmiy haqiqat yo‘li tomon baholanishi falsafada kichadi. Ilmiy bilish jarayonida, har bir izlanuvchi u yoki bu konsepsiyani tanlaydi. Psixolingvistikada falsafiy yondoshuv, asosan, dialektik falsafa yo‘nalishida olib boriladi. Shuni esda tutish kerakki, ba’zi holatlarda nutqiy faoliyat o‘zgarib turuvchi ichki aloqalar bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda, psixolingvistikaning bir nechta tamoyillarini ham o‘rganib chiqamiz.

1. Nutqiy faoliyat va nutqsiz faoliyatning o‘zoro bog‘liqligi. Ushbu tamoyil insonning shaxs sifatida rivojlanishi bilan belgilanadi.

2. Nutqning funksional tizim sifatida tan olinishi. Ushbu tizim aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, lingvistikaning leksik, semantik jihatlarini umumlashtiradi. Ushbu tamoyilda faoliyatning ichki va tashqi shart-sharoitlariga bog‘langan holda olib boriladi.

3. Nutq faoliyatining to‘lqinligi bo‘lib, nutqiy jarayonlar va uni tavsiflovchi elementlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

4. Bu tamoyil esa o‘zida nutq semantikasini aks ettiradi. Bunday hollarda nutqdan til belgilari ajratib olinadi va nutq ma’nosini belgilab, shakllantirib uzatadi.

5. Nutqiy faoliyatning bevosita shaxs bilan bog‘liqligi. Bunda insonning dunyoqarashi va ijtimoiy yo‘naltirilganligi uning nutqiy faoliyatiga ta’sir etishi bilan ajralib turadi [2;35-b.].

Yuqorida keltirilgan tamoyillar “Psixolingvistika” fanining bugungi kunga qadar fan sifatida rivojlanib kelishini ko‘rsatib beradi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, “Psixolingvistika” fani rivojlanib alohida bir soha sifatida shakllangunga qadar ko‘p davrlarni va fikr mulohazalarni o‘zida jamladi. Psixolingvistika sohasi yuksalgani sari, jamiyatda uning ahamiyati ham ko‘tarilib bormoqda. Muloqot jarayonida inson ruhiy kechinmalari va nutqiy faoliyatning bog‘liqligi psixolingvistika nuqtayi nazaridan o‘rganilishi ham, olimlarning say harakatini qay darajada yuksak ekanligigni ochib bermoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, psixolingvistika barcha tilshunoslik ilmiga xos bo‘lgan bir nechta yangi sohalar kommunikativ tilshunoslik va matn lingvistikasi, diskurs, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va boshqa sohalarga doir tadqiqot ishlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Karimov S.A. Nazariy tilshunoslik masalalari. Samarqand, 2012, 60–68-betlar.

[2]. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, 86–87-betlar.

[3]. Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. d-ri... dis., Toshkent, O‘zR FA TAI, 2009, 49–70-betlar.

[–]. Osgood C.E. Psycholinguistics: A Survey of Theory and Research Problems. The Hague: Waverly Press, 1954, 212 p.

[5]. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). М.,Тривола, 2000, с. 8–13.

[6]. Глухов В.П., Ковшиков В.А. Психолингвистика: Теория речевой деятельности. М., АСТ, Астрель, 2007, с. 10.

[7]. Сорокин Ю.А. Текст: цельность, связность, эмотивность. Аспекты общей и частной теории текста. М., 1982, с. 61–73.

[8]. Steinthal, Heymann. Grammatik, Logik und Psychologie: ihre Prinzipien und ihre Verhältnisse zueinander. Berlin: Ferd. Dümmler’s Verlagsbuchhandlung, 1855, 364 s.

[9]. https://uz.wikipedia.org/wiki/Psixolingvistika

Bafoyeva Roxila Valijon qizi (Osiyo xalqaro universiteti, PhD, tadqiqotchi, tayanch doktorant; rokhilabafaeva050796@gmail.com)

POSTMODERN ADABIYOTDA FRAGMENTATSIYA VA MUALLIFNING NISBIYLASHUVI: RAMZIYLIK VA INTERTEKSTUALLIK ASOSIDA TALQIN

Annotatsiya. *Har bir badiiy asar ijodiy jarayon mahsuli sifatida kitobxon bilan yuzlashgan zahoti yangi ma'nolar qatlamini namoyon etadi. Uning talqini va mazmuniy jilosi kitobxonning badiiy-estetik saviyasi bilan chambarchas bog'liq holda o'zgaradi. Mazkur maqolada modernizm va postmodernizm o'rtasidagi muallif konsepsiyasi farqi tahlil qilinadi: modernizmda muallif markaziy figuraga aylansa, postmodernizmda muallif mavqei nisbiylashib, talqin jarayoni kitobxon tafakkuri bilan belgilanadi.*

Kalit so'zlar: *postmodernizm, fragmentatsiya, intertekstuallik, dekonstruksiya, metafiktsiya, amziylik.*

Бафаева Рохила Валиджон кизи (Азиатский международный университет соискатель степени PhD, докторант базовой докторантуры; rokhilabafaeva050796@gmail.com)

ФРАГМЕНТАЦИЯ И РЕЛЯТИВИЗАЦИЯ АВТОРА В ПОСТМОДЕРНИСТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НА ОСНОВЕ СИМВОЛИЗМА И ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ

Аннотация. *Каждое художественное произведение как результат творческого процесса при встрече с читателем раскрывает новые смысловые пласты; его интерпретация и содержательная многогранность напрямую зависят от художественно-эстетического уровня читателя. В данной статье анализируется различие авторской концепции в модернизме и постмодернизме: если в модернизме автор занимает центральное место, то в постмодернизме его статус нивелируется, а процесс интерпретации определяется читательским сознанием.*

Ключевые слова: *постмодернизм, фрагментация, интертекстуальность, деконструкция, метафикция, символизм.*

Bafoyeva Roxila Valijon qizi (PhD Candidate (Basic Doctoral Student), Asia International University; rokhilabafaeva050796@gmail.com)

FRAGMENTATION AND THE RELATIVIZATION OF THE AUTHOR IN POSTMODERN LITERATURE: AN INTERPRETATION BASED ON SYMBOLISM AND INTERTEXTUALITY

Annotation. *Every literary work, as a product of the creative process, reveals new layers of meaning when it encounters a reader; its interpretation and semantic richness depend directly on the reader's aesthetic and artistic competence. This article analyzes the difference between the concept of authorship in modernism and postmodernism: while the author occupies a central position in modernism, in postmodernism the author's status becomes relativized, and interpretation is shaped by the reader's consciousness.*

Keywords: *postmodernism, fragmentation, intertextuality, deconstruction, metafiction, symbolism.*

Kirish. Postmodernizm estetikasi voqelikni bevosita bayon etishdan ko'ra, unga ishora qilish tamoyiliga tayanadi. Bu oqimda hech bir hodisa yoki tushuncha qat'iy va yakuniy ma'noda ifodalanmaydi; aksincha, u ramz va ishoralar orqali ochiladigan ko'pqatlamli mazmun sifatida namoyon bo'ladi. Natijada badiiy asarni anglash jarayonida markaziy o'rin kitobxonga beriladi. O'quvchining tafakkur darajasi, idrok etish salohiyati va estetik tayyorgarligi asarni tushunish yoki tushunarsiz deb baholash mezoniga aylanadi. Agar badiiy asarni yo'l sifatida tasavvur qilsak, postmodernizmga ko'ra, undagi harakatlantiruvchi kuch skriptordir, ya'ni cheksiz lug'atlar va matnlar qatlamidan yangi matn hosil qiluvchi subyektdir. Modernizmda asar yaratuvchisi muallif sifatida markazga qo'yilsa, postmodernizmda yaratuvchi tushunchasi skriptor timsolida talqin qilinadi. Biroq asarni anglash jarayonida asosiy kuch asardan voqelikka tomon harakat qiluvchi kitobxon hisoblanadi. Talqin jarayoni aynan o'quvchining faol ishtiroki bilan yuzaga chiqadi. Postmodernistik asarlarning mazmuni ramziy xarakterga ega bo'lib, u murakkab va ko'pqatlamli tuzilishga ega. Ramz go'yoki kalavalangan ip singari: agar uning to'g'ri uchi topilsa, mazmun qatlamlari izchil ochila boradi va keng ma'no maydonini egallaydi, aks holda, asar ichki sirlarini saqlagan holda anglanmasdan qolishi mumkin. Shu jihatdan qadimdan muhim hisoblangan ramziylik modernizm va postmodernizmda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, aksincha, yanada chuqurroq mazmun kasb etadi. Postmodernizm ko'plab an'anaviy tushunchalarni inkor etgan bo'lsa-da, ramziy tafakkur tamoyilini saqlab qoldi va uni yangi talqin darajasiga olib chiqdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Postmodern adabiyotga oid ilmiy manbalarda uning estetik va falsafiy mohiyati, avvalo, parchalanish va yaxlitlikning inkori bilan izohlanadi. Tadqiqotchilar postmodern asarni mazmunan sochma, fragmentar tuzilishga ega matn sifatida talqin qiladilar. Shuningdek, u tar-

tibsizlik, intertekstual aloqadorlik va haqiqatga nisbatan shubha kabi mezonlarni postmodern tafakkurning muhim belgilaridan biri sifatida qayd etadi. Jean-Frankois Lyotard esa postmodernizmni “katta rivoyatlar” yoki “meta-rivoyatlar”ga qarama-qarshi hodisa sifatida ta’riflab, bilim va haqiqatning mutlaq shaklini inkor etadi. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda universal haqiqat da’volari o‘z kuchini yo‘qotgan, natijada bilim ko‘plab kichik diskurslar doirasida shakllanadi. Fredrik Jameson postmodernizmni kech kapitalizmning madaniy mantiqi sifatida talqin qilib, uni iste’molchilik jamiyati bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, postmodern madaniyat yuzaki tasvirlar, kollaj va sitatalar orqali ishlaydi hamda tarixiy chuqurlikni yo‘qotgan estetikani namoyon etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot postmodern adabiyotning nazariy tamoyillari va badiiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks yondashuv asos qilib olindi. Avvalo, postmodernnizm vakillari tomonidan ilgari surilgan haqiqatning nisbiyligi, ko‘p talqinlilik hamda barqaror xarakter konsepsiyasining inkori haqidagi qarashlar nazariy-metodologik tayanch sifatida qabul qilindi. Tadqiqotda har qanday hodisaning yagona talqinga sig‘masligi va matnning ochiq tuzilma ekanligi tamoyili asosiy metodologik prinsip sifatida belgilandi.

Ish jarayonida qiyosiy-tahliliy metod qo‘llanilib, modernizm va postmodernizm o‘rtasidagi estetik farqlar, xususan mualliflik, xarakter, haqiqat va talqin masalalari solishtirildi. Shuningdek, strukturaviy va dekonstruktiv yondashuv asosida matn ichidagi o‘ynoqilik, ishonchsiz hikoyachi hamda metafiksiya unsurlari tahlil qilindi. Bu metod postmodern asarlardagi qatlamlilik, intertekstual bog‘lanish va ramziy ma’no hosil bo‘lish jarayonini ochib berishga xizmat qildi. Nazariy qarashlarni amaliy jihatdan asoslash maqsadida Umberto Ekoning “Il nome della rosa” romani hamda Patrik Süskindning “Das Parfum” asarlari misol tariqasida tanlab olindi. Ushbu asarlar ikki tomonlama kodlashtirish, ya’ni, elitar va ommaviy qatlamning uyg‘unlashuvi tamoyili asosida tahlil qilindi. “Il nome della rosa” romanida detektiv sujet va chuqur falsafiy-ramziy qatlamning uyg‘unligi, shuningdek, o‘rta asr qo‘lyozmalari va intertekstual ishoralar orqali bilim, haqiqat va talqin masalalarining ko‘pqatlamli talqini o‘rganildi. Asardagi ishonchsiz hikoyachi, ironik uslub hamda yashirin semantik strukturalar dekonstruktiv metod asosida sharhlandi.

Tahlil va natijalar. Tahlil jarayonida postmodern adabiyotning asosiy xususiyatlari badiiy matnlar misolida ko‘rib chiqildi. Xususan, Richard Bachning 1970-yilda yaratilgan “Jonathan Livingston Seagull” (Parvoz zavqi) asari ramziy-falsafiy qatlam asosida tahlil qilindi. Asarda qush obrazi va parvoz timsoli insonning erkinlikka intilishi, o‘z qiyofasini saqlab qolish, jamiyatdagi adolatsizlik va yovuzlikka qarshi ichki kurashi sifatida talqin qilindi. Parvoz bu yerda nafaqat jismoniy harakat, balki ruhiy yuksalish, mavjud chegaralarni buzish va o‘zlikni anglash jarayonining badiiy ifodasidir. Natijada asar postmodern ramziylik va allegorik tafakkurning yorqin namunasi sifatida baholandi.

Postmodern adabiyot vakillari orasida Milan Kundera, Italo Calvino va Milorad Pavik kabi ijodkorlar alohida o‘rin tutadi. Ularning asarlarida shaxsiyat, xotira va voqelik o‘rtasidagi murakkab munosabatlar fragmentar tuzilma hamda o‘yin estetikasiga asoslangan holda yoritiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, postmodernizm an’anaviy metodlarni inkor etib, fragmentatsiya, intertekstuallik, dekonstruksiya va ko‘p ma’nolilikni asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi. “Muallifning o‘limi” konsepsiyasi, janr chegaralarining buzilishi, ironik va referensial uslub, ikki tomonlama kodlashish kabi xususiyatlar postmodern matnning yetakchi belgilaridir. Postmodern adabiyot namunalari sifatida Tomas Pinchonning “The Crying of Lot 49”, Ulug‘bek Hamdamning “Sabo va Samandar”, Umberto Econing “Il nome della rosa”, Patrick Süskindning “Das Parfum” kabi asarlar ko‘rib chiqildi. Ushbu matnlar umumiy jihatdan ko‘p qatlamli semantika, o‘yin estetikasi va global madaniy kontekst bilan ajralib turadi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, postmodernizm globallashuv, texnologik taraqqiyot va madaniy xilma-xillik sharoitida shakllangan hamda hanuz o‘z ta’sirini yo‘qotmagan adabiy-falsafiy oqimdir. U tartibsizlikni inkor etmaydi, balki uni estetik mezonga aylantiradi, haqiqatni yagona nuqta emas, ko‘p oynali prizma sifatida ko‘radi. Natijada postmodern adabiyot zamonaviy tafakkur, madaniyatlararo muloqot va badiiy tajriba maydonida barqaror ahamiyat kasb etayotgan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, postmodernizm adabiy oqimi an’anaviy estetik mezonlarni qayta ko‘rib chiqib, haqiqatning nisbiyligi, ko‘p ma’nolilik va fragmentar tafakkurni markazga olib chiqadi. Ushbu oqimda matn yopiq tizim emas, balki ochiq semantik maydon sifatida namoyon bo‘ladi. “Muallifning o‘limi” konsepsiyasi orqali ijodkorning mutlaq hukmronligi cheklanadi va talqin jarayonida kitobxon asosiy subyektga aylanadi.

Tahlil qilingan asarlar, jumladan Richard Bachning “Jonathan Livingston Seagull”, Paulo Coelhoning “The Alchemist”, Umberto Econing “Il nome della rosa”, Patrick Süskindning “Das Parfum” hamda Thomas Pynchonning “The Crying of Lot 49” kabi namunalarda ramziylik, intertekstuallik, ikki tomonlama kodlashish, ironik uslub va janr chegaralarining buzilishi postmodern estetikani belgilovchi asosiy tamoyillar ekanligi aniqlandi.

Takliflar:

1. Postmodern adabiyot namunalarini o‘rganishda dekonstruktiv, semiotik va intertekstual tahlil metodlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Modernizm va postmodernizm o‘rtasidagi vorislik va farqlarni aniqlash maqsadida qiyosiy tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

3. O‘zbek adabiyotida postmodern unsurlarni aniqlash va ularni jahon adabiyoti kontekstida o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

4. Postmodern asarlarni talqin qilishda kitobxon kompetensiyasini oshirishga qaratilgan metodik qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish lozim.

5. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo intertekstual aloqalarni o‘rganish postmodernizmning yangi qirralarini ochishga yordam beradi.

Shunday qilib, postmodernizm adabiy tafakkur tarixida muhim bosqich bo‘lib, u nafaqat badiiy shakl va mazmunni, balki insonning olamni anglash usullarini ham tubdan yangilagan estetik hodisa sifatida ilmiy tadqiqotlarda izchil o‘rganishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction. Routledge (1988), p. 283.

(2). Eco U. Postscript to the Name of the Rose. Harcourt Brace Jovanovich (1984), p. 88

(3). Lyotard J.-F. The Postmodern Condition. A Report on Knowledge (G. Bennington & B. Massumi, Trans.). University of Minnesota Press (1984), p. 114.

(4). Jameson F. Postmodernism, or, The Cultural Logic of Late Capitalism. Duke University Press.

(5). (1991), p. 460.

(6). Derrida J. Of Grammatology (G.C.Spivak, Trans.). Johns Hopkins University Press. (1976), p. 354.

Muxammedova Xulkar Eliboyevna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti (Dsc), filologiya fanlari doktori, professor v.b.; E-mail:xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

GOTIK ROMAN JANRI TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Maqola zamonaviy ingliz adabiyotida ijod qilayotgan adiba Syuzen Hill ijodida XIX asr gotika roman janri xususiyatlarining transformatsiyasiga bag‘ishlanadi. Uning ijodida aks etgan gotik roman janriga xos elementlar XIX asr romanlarida tasvirlanganligi bilan e’tirofga loyiq. Uning ijodiga mansub “Qora libosli ayol” asari adabiyotshunoslar tomonidan turlicha baholanganligi kuzatiladi.*

Kalit so‘zlar: *asar, taqdir, obraz, xususiyat, adiba, ingliz, gotik, transformatsiya.*

Мухаммедова Хулкар Элибоевна (УзГУМЯ, доктор филологических наук; E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАНРА ГОТИЧЕСКОГО РОМАНА

Аннотация. *Статья посвящена трансформации особенностей жанра готического романа XIX века в творчестве современной английской писательницы Сьюзен Хилл. Отраженные в её произведениях элементы готического романа заслуживают признания благодаря тому, что они созвучны описаниям в романах XIX столетия. Примечательно, что её произведение «Женщина в чёрном» получает неоднозначные и разносторонние оценки со стороны литературоведов.*

Ключевые слова: *роман, судьба, образ, писательница, англичанин, готический, трансформация.*

Mukhammedova Khulkar Eliboyevna (UzSWLU, associate professor, Doctor of Science; E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

THE TRANSFORMATION OF THE GOTHIC GENRE

Annotation. *The article is dedicated to the transformation of 19th-century Gothic novel characterristics in the works of the contemporary English writer Susan Hill. The elements of the Gothic genre reflected in her writing are noteworthy for their alignment with the descriptions found in 19th-century novels. It is observed that her work, The Woman in Black, has been evaluated in diverse ways by literary critics*

Key words: *novel, fate, image, feature, writer, English, gothic, transformation.*

Kirish. Syuzen Hill zamonaviy ingliz adabiyotining gotika janrida ijod qiayotgan adiba hisoblanadi. U klassik gotika an'analarini zamonaviy romanlarda transformatsiya qilganligini kuzatish mumkin. Uning ijodida gotika shunchaki qo‘rqinchli elementlar yig‘indisi emas, balki inson ruhiyatining qorong‘u qatlamlarini ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Yozuvchining “Woman in Black – Qora libosli ayol” asari aynan XIX asrga xos bo‘lgan gotika janri elementlari transformatsiyasini o‘zida aks ettiradi. Gotika roman adabiyotshunoslik lug‘atlarida quyidagicha **“**Gotik roman yoki dahshatlar romani XVIII asrning ik-

kinchi yarmi yoki XIX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa va Amerikada paydo bo‘lgan g‘ayri tabiiy kuchlarni va dahshatli voqealarni tasvirlagan roman” [2;73-b.] ta’riflansa adabiyotshunos olim D.Quronov, Z. Mamajonova va M.Sheraliyevalar yaratgan adabiyotshunoslik lug‘atida “Gotik roman bu XVIII asrning ikkinchi yarmi yoki XIX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotlarida ommalashgan g‘ayrioddiy, dahshat va sirlarga to‘liq voqealarni qalamga olishi bilan xarakterlanadi [3;83-b.] deya izoh beriladi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarga asoslanadigan bo‘lsak, gotik roman g‘ayri tabiiy kuchlar va dahshatli voqealar bilan xarakterlanadi. Bunday roman xususiyatlari XIX asr ingliz yozuvchilaridan bo‘lgan opa-singil Brontelar hamda Charlz Dikkensning bir qator romanlarida ko‘rish mumkindir. Mazkur yozuvchilar ijodida gotika xos bo‘lgan sirli voqealar makoni bu uy tasvirida keng aks etadi.Sharlotta Brontening “Jeyn Eyr” asaridagi Tornfild qasri hamda Geytsxolldagi qizil xonada sodir bo‘luvchi sirli hodisalar Emili Brontening “Momaqaldiroq dovoni” asarida ham o‘z aksini topadi. Charlz Dikkensning “Katta umidlar” asarida esa miss Hevishamning katta uyidagi g‘alati muhit, ya’ni qorong‘ilik uy bekasining sirliligidan dalolat berib turardi. Adiba romanida esa botqoqlik o‘rtasidagi yolg‘iz Eel Marsh House uyi tashqi dunyodan uzilganlik va chorasizlik ramzi bo‘libgina qolmay uy bilan bog‘liq bo‘lgan sirli voqea makonidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorij tadqiqotchisi Jerrold E.Hogle Hill ijodini "Neo-Viktoriya gotikasi" kontekstida o‘rganib, undagi tarixga qaytish motivlarini tahlil qilgan. Tadqiqotchi Gina Wisker esa Hillning ayol qahramonlari va "ona-arvoh" obrazini fojiaviy onalik hamda jamiyat tazyiqi nuqtayi nazaridan tadqiq etgan. Fred Botting "Gothic- Gotika" asarida adibani klassik gotikani, ya’ni, Viktoriya davri an'analarini XX asr oxiri va XXI asr boshiga muvaffaqiyatli transformatsiya qilgan adiba sifatida baholaydi. Susan Hill ijodidni o‘rgana turib, uning gotika janrida yozilganligini ta’kidlagan amerikalik yozuvchi Stefan King "Qora libosli ayol" asarini zamonaviy davrning eng mukammal qo‘rqinchli asarlaridan biri deb atagan va uning "kam vositalar bilan ko‘p qo‘rquv uyg‘otish" uslubini yuqori baholagan. Sara Vaters esa muallifning "The Little Stranger – Kichik mavjudotlar" asari "Qora libosli ayol" asaridagi muhit va psixologik daxshat uslubiga juda yaqinligiga e’tibor qaratgan. tadqiqotchi Hillning uylarni "tirik mavjudot"ga aylantirish mahoratini o‘rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Gotika janri – bu adabiyot va san’atdagi eng sirli, hayratlanarli va o‘ziga xos janrlardan biri. U nafaqat qo‘rqinch, balki inson ruhiyatining eng qorong‘u burchaklarini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. "Gotika" atamasi, dastlab, me’morchilikka nisbatan ishlatilgan (baland minoralar, rangli shishalar, mahobatli cherkovlar). Adabiyotga esa bu tushuncha XVIII asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. Horace Walpole 1764-yilda "Otranto qasri" (The Castle of Otranto) asarini yozib, janrga tamal toshini qo‘ydi. Gotik asarni tahlil qilishda beshta asosiy xususiyat qayd etiladi. Bu xususiyatlarda makon, muhit, g‘ayri tabiiy elementlar, qahramon, o‘tmishning qaytishi namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Mazkur jadvalda gotika roman xususiyatlari adiba asarlarida quyidagicha transformatsiya bo‘lganligini kuzatish mumkin:

Xususiyat	Klassik gotika	Hill gotikasi
Zamon	Uzoq o‘rta asrlar, Viktorian davri	Zamonaviy davr
Qo‘rquv manbayi	Tashqi dushman, arvohlar	O'tmish xotiralari
Yakun	Yovuzlik ustidan g‘alaba	Fojiaviy yoki ochiq yakun

Hillning mahorati shundaki, u qahramonni asta-sekin o‘z mantiqiy dunyosidan chiqarib, irratsional qo‘rqinchlar dunyosiga olib kiradi. Asar yakunida Kipps g‘alaba qozonmaydi – u yovuzlikning bir qismiga aylanadi, chunki uning o‘z oilasi ham bu la’nat qurboni bo‘ladi. Jadvalda aks etgan xususiyatlar asarda ro‘y beruvchi voqealar jarayonida hikoya qilinadi. Angliyaning sharqiy hududida joylashgan Marsh Ill uyida sirli voqealar bo‘layotganligi haqida turli mishmishlar yosh advokat Artur Kipsni shu uyiga yetaklab keladi. Uydagi qorong‘ilik sababini tushunishga uingan Artur uyning bekasi bo‘lgan miss Drablo bilan bo‘lgan suhbatlashishga urinadi. Biroq uy bekasi bunga unchalik ham ro‘yxushlik bermaydi. Uyda bir necha kun qolishga izn sor‘ragach u uyda begona ayolga tegishli bo‘lgan maktublarni topadi. Bu maktublarda Janet Hamfri va uning o‘g‘li haqida yozilgandi. U bunga izoh so‘raydi. Ammo yosh advokat ko‘plab narsalarga qo‘shnilardan oydinlik kiritadi. Misis Drabloning singlisi Janet Hamfri turmushga chiqib farzandli bolganligi va turli sabablar bilan opasiga bolaga qarab turishi uchun berganligi va natijada bolani qaytarib berishni istamagan misis Drablo singlisini o‘ldirganligini aniqlaydi. Biroq qo‘lida yetarlicha dalillar bo‘lmaganligi sababli uni qattiy ayblay olmaydi va uyiga qaytadi. Kunlardan bir kuni Artur Kipsning xotiniga qora libosli ayol arvohi tashlanadi. Ayol yaxshigina jarohat oladi. Bundan Artur Kips ishni oxirigacha yetkazish kerakligini tushunib yetadi. Artur Kipsni qora libosli ayol taqib qilishini esa muallif quyidagicha tasvirlaydi: “Qora libosli ayol, hatto bu yerda ham meni ta’qib qilayotgandek edi. U go‘yo karvotıмning oyog‘ida o‘tirar, uxlab yotganimda yuzini to‘satdan yuzimga yaqinlashtirib pastga egilardi, men esa dahshat ichida qichqirib uyg‘onib ketardim – The Woman in Black seemed to haunt me even here, to sit on the end of my

bed ,to push her face suddenly down close to mine as I lay asleep, so I awoke crying out in terror" [1;38 p.].Tasvirda muallif tomonidan ishlatilgan "haunt – ingliz gotikasida ham "ta'qib qilish", ham "ruh bo'lib ko'rinish" ma'nosini anglatib, "ta'qib qilish" asardagi ruhiy bosimni yaxshi ifodalaydi, push her face close to mine – bu harakatdagi to'satdan va tajovuzkor yaqinlikni ifodalasa, crying out in terror, shunchaki, "baqirib" emas, balki ichki qo'rquv va vahimani ko'rsatish uchun "dahshat ichida qichqirib" yuborishni ifodalaydi. Mazkur asardan keltirilgan parcha biz tahlil qilayotgan "qo'rquv psixologiyasi" sini ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Gotik roman xususiyatlarini muvaffaqiyatli transformatsiya qila olgan ingliz adibasi Syuzen Hill zamonaviy gotik romanni yarata olibgina qolmay, ulardan farq qiluvchi xususiyatlarni ham ko'rsatib berganligi bian e'tirofga loyiqdir. "qora libosli ayol" romani o'tmish va xozirgi kun hayoti uzviyligini voqealar jarayonida aks ettiradi. Muallifning bunday mahorati zamonaviy gotika romani janrida ijod qila olishini kitobxonlarga to'la qonli isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Hill S. Woman in Black**.** London, Hamish Hamilton, 1983, 350 p.

(2). Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, "Ўқитувчи", 1979, 250-бет.

(3). Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент, "Akademnashr", 2013, 300-бет.

Sabirova Sevara Baxtiyorovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi; e.mail:sevarasabirova09@gmail.com)

MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA FOLKLORIZM POETIKASI: MIFOLOGIK TAFAKKUR VA BADIIY TRANSFORMATSIYA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Matnazar Abdulhakim she'riyatida folklorizm hodisasining poetik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodi unsurlarining badiiy matndagi funksional o'rni, mifologik va arxaik obrazlarning semantik qatlamlari, marosim motivlarining poetik transformatsiyasi hamda milliy tafakkur bilan zamonaviy estetik ong o'rtasidagi uzviy bog'liqlik masalalari yoritildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, folklorizm shoir individual uslubining ichki tarkibiy qismi bo'lib, u poetik tizimning konseptual yaxlitligini ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar: *folklorizm, poetika, mifologizm, arxaik obraz, ramziylik, milliy mentalitet, badiiy transformatsiya, intertekstuallik.*

Сабирова Севара Бахтиёровна (независимый исследователь кафедры «Узбекский язык и литература» филологического факультета Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона, Беруни; e.mail: sevarasabirova09@gmail.com)

ПОЭТИКА ФОЛЬКЛОРИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ МАТНАЗАРА АБДУЛХАКИМА: МИФОЛОГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ

Аннотация. *В статье научно анализируются поэтические особенности фольклоризма в творчестве Матназар Абдулхакима. Исследуется функциональная роль элементов устного народного творчества в художественном тексте, семантика мифологических и архаических образов, художественная трансформация обрядовых мотивов, а также связь национального эстетического мышления с современным художественным сознанием. Делается вывод о том, что фольклоризм является ключевым компонентом индивидуального стиля поэта и обеспечивает концептуальную целостность его поэтической системы.*

Ключевые слова: *фольклоризм, поэтика, мифологизм, архаический образ, символика, национальный менталитет, художественная трансформация, интертекстуальность, эстетическая концепция.*

Sabirova Sevara Bakhtiyorovna (Independent researcher of the Department of "Uzbek Language and Literature" of the Faculty of Philology and Arts of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni; e.mail:sevarasabirova09@gmail.com)

THE POETICS OF FOLKLORISM IN THE WORKS OF MATNAZAR ABDULHAKIM: MYTHOLOGICAL THINKING AND ARTISTIC TRANSFORMATION

Annotation. *This article provides a scholarly analysis of folklorism in the poetry of Matnazar Abdulhakim. The study examines the functional role of folklore elements in poetic texts, the semantic layers of mythological and archaic imagery, and the artistic transformation of ritual motifs. It also explores the relationship between national aesthetic thinking and modern artistic consciousness. The findings*

demonstrate that folklorism serves as a key component of the poet's individual style and ensures the conceptual integrity of his poetic system.

Keywords: *folklorism, poetics, mythologism, archaic image, symbolism, national mentality, artistic transformation, intertextuality, aesthetic concept.*

Kirish (Introduction). Folklorizm zamonaviy adabiyotshunoslikda milliy estetik tafakkurning uzviy davomiyligini ifodalovchi muhim ilmiy kategoriya hisoblanadi. Har qanday milliy adabiyot o‘z shakllanish jarayonida xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi. Folklor xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va estetik ideallarini mujassam etgan murakkab ma’naviy tizimdir. Shu bois yozma adabiyotda folklor unsurlarining qayta talqini milliy identitetni saqlash va estetik izchillikni ta’minlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Folklorizm zamonaviy adabiyotshunoslikda milliy estetik tafakkurning uzviy davomiyligini ifodalovchi muhim ilmiy kategoriya hisoblanadi. O‘zbek she’riyati tarixida folklorizm, dastlab, bevosita syujet va obraz shaklida qo‘llanilgan bo‘lsa, zamonaviy bosqichda u ramziy, semantik va strukturaviy jihatdan qayta ishlanib, individual poetik tizimning ichki komponentiga aylangan. Bu jarayon folklor materialining oddiy takrorlanishi emas, balki uning badiiy transformatsiyasi bilan xarakterlanadi. Matnazar Abdulhakim ijodi aynan shu jarayonning chuqur va konseptual ifodasidir. Shoir poetikasida folklor unsurlari tashqi bezak emas, balki badiiy tafakkurning ichki mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Arxaik timsollar zamonaviy ruhiy-falsafiy mazmun bilan boyitilib, yangi estetik kontekstda talqin qilinadi. Mifologik obrazlar inson va borliq o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalovchi semantik markaz vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, shoir ijodida folklorizm milliy mentalitet va individual estetik qarashlar sintezini yuzaga keltiradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi shoir ijodida folklorizmning poetik funksiyasini aniqlash, uning strukturaviy va semantik xususiyatlarini asoslash hamda milliy estetik tafakkur bilan bog‘liqligini yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Folklorizm hodisasi adabiyotshunoslikda keng o‘rganilgan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. O‘zbek folklorshunosligida xalq og‘zaki ijodining janriy, poetik va semantik xususiyatlari yuzasidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” va “Folklorshu-noslik asoslari” kabi ilmiy manbalarda folklorning estetik tabiati, obrazlar tizimi va marosim motivlarining funksional xususiyatlari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar folklor poetikasining nazariy asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek adabiyoti tarixiga oid ilmiy ishlarda esa yozma adabiyot va folklor o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik masalasi tahlil qilingan. Xususan, zamonaviy she’riyatda folklorizmning ramziy va semantik transformatsiyasi, arxaik obrazlarning yangi estetik kontekstda talqin qilinishi masalalari yoritib berilgan.

Matnazar Abdulhakim ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda shoirning milliylik va zamonaviylik uyg‘unligiga asoslangan poetik tafakkuri qayd etiladi. Biroq uning she’riyatida folklorizmning mifologik tafakkur bilan bog‘liq strukturaviy va semantik xususiyatlari maxsus, tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Shu jihatdan, mazkur maqola folklorizmni nafaqat motiv darajasida, balki poetik tizimning konseptual asosi sifatida tahlil qilishni maqsad qiladi. Tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda, Matnazar Abdulhakim poetikasida folklorizmning estetik strategiya sifatidagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi. Qiyosiy-tarixiy metod orqali shoir she’rlari xalq og‘zaki ijodi janrlari bilan solishtirildi va obrazlarning tarixiy ildizlari aniqlashtirildi. Bu metod arxaik timsollarning kelib chiqishi hamda ularning zamonaviy talqini o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochishga xizmat qildi. Struktural tahlil yordamida poetik matnning ichki qurilishi, obrazlar tizimi va semantik qatlamlari o‘rganildi. Folklor unsurlarining matn strukturasi ichidagi funksional o‘rni aniqlashtirildi. Intertextuality (intertekstuallik – matnlararo bog‘liqlik) yondashuvi orqali folklor motivlarining yashirin va ochiq ko‘rinishlari tahlil qilindi. Mythological analysis (mifologik tahlil – mif asosidagi semantik o‘rganish) yordamida yer, osmon, daraxt, yo‘l kabi arxaik timsollarning mifologik ildizlari va zamonaviy poetik mazmuni o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berildi. Estetik tahlil usuli esa shoir individual uslubining shakllanish mexanizmini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot metodologiyasi (Methods). Tadqiqot metodologiyasi tizimli va ko‘p qirrali yondashuv tamo-yiliga asoslandi. Avvalo, badiiy matnni integral butunlik sifatida o‘rganish prinsipi qo‘llanildi. Bu prinsipga ko‘ra, folklor unsurlari alohida motiv yoki detal sifatida emas, balki poetik strukturaning tarkibiy qismi sifatida tahlil qilindi. Shoir ijodida uchraydigan mifologik obrazlar, marosim motivlari va arxaik timsollar kontekstual birlikda ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, semantik maydon tahlili usulidan foydalanildi. Mazkur usul orqali muayyan obraz atrofida shakllangan ma’no qatlamlari aniqlanib, ularning poetik funksiyasi asoslandi. Masalan, yer, ildiz, daraxt, yo‘l kabi timsollar nafaqat mifologik ramz sifatida, balki tarixiy xotira va ruhiy davomiylik konseptlarini ifodalovchi semantik markaz sifatida talqin qilindi. Diskursiv yondashuv yordamida shoir poetikasida milliy mentalitet va zamonaviy estetik ong o‘rtasidagi munosabat o‘rganildi. Bu metod folklorizmni

faqat estetik hodisa sifatida emas, balki madaniy identitetni ifodalovchi ma'naviy fenomen sifatida ko'rish imkonini berdi. Bundan tashqari, tipologik tahlil usuli orqali Matnazar Abdulhakim she'riyati boshqa zamonaviy o'zbek shoirlari ijodi bilan qiyosiy jihatdan ko'rib chiqildi. Natijada folklorizmning individual va umumadabiy xususiyatlari farqlab olindi. Tadqiqot jarayonida nazariy umumlashtirish va konseptual modellashtirish usullari ham qo'llanildi. Bu usullar shoir poetikasida folklorizmning strukturaviy modelini aniqlash va uning badiiy tizimdagi funksional o'rnini belgilashga xizmat qildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Matnazar Abdulhakim she'riyatida folklorizm ko'p qatlamli estetik tizim sifatida shakllangan. Mifologik qatlamda yer va osmon, yorug'lik va zulmat, daraxt va ildiz kabi timsollar kosmogonik tasavvurlar bilan bog'lanib, insonning ruhiy izlanishlarini ifodalovchi semantik markazga aylanadi. Ritmik-strukturaviy darajada xalq qo'shiqlariga xos takror va parallelizm unsurlari kuzatiladi. Bu she'riy matnning musiqiyligini oshirib, milliy poetik an'ananing davomiyligini ta'minlaydi. Leksik-semantik qatlamda esa maqollarga xos umumlashtirish kuchi seziladi. Marosim va an'ana motivlari shoir ijodida muhim o'rin egallaydi. Hayot va o'lim, ajdod va avlod, xotira va davomiylik g'oyalari folklor asosida ramziy talqin qilinadi. Natijada poetik matnda tarixiy xotira va zamonaviylik o'rtasida uzviy aloqa yuzaga keladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Folklorizm Matnazar Abdulhakim ijodida estetik strategiya sifatida namoyon bo'ladi. Shoir folklor materialini takrorlamaydi, balki uni mazmuniy jihatdan qayta quradi. Arxaik obrazlar zamonaviy ruhiy-falsafiy tafakkur bilan uyg'unlashib, yangi estetik maydon hosil qiladi. Folklorizm tarixiy xotirani estetik shaklda saqlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ajdodlar dunyoqarashi va kollektiv ong qatlamlari zamonaviy estetik tafakkur bilan tutashadi. Arxaik timsollar ko'p ma'noli semantik struktura hosil qiladi va poetik tafakkurning chuqurlashuviga xizmat qiladi. Folklorizm poetik tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi, ritmik yaxlitlikni ta'minlaydi va shoir individual uslubining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa, milliylik va universallik o'rtasidagi muvozanat yuzaga keladi. Shuningdek, shoir poetikasida folklorizm vaqt va makon kategoriyalari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mifologik tafakkurda makon, ko'pincha, muqaddas hudud sifatida talqin qilinsa, Matnazar Abdulhakim she'riyatida bu makon ruhiy-psixologik maydonga aylanadi. Masalan, "yo'l" timsoli nafaqat harakat yoki safar ma'nosini, balki insonning ichki kamolot jarayonini ham anglatadi. Bu esa arxaik ramzning zamonaviy semantik kengayishini ko'rsatadi. Folklor poetikasiga xos dualistik qarama-qarshiliklar – yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim, ildiz va shox, osmon va yer kabi oppozitsiyalar shoir matnlarida falsafiy mazmun kasb etadi. Ushbu qarama-qarshiliklar orqali inson va borliq o'rtasidagi abadiy ziddiyat estetik shaklda ifodalanadi. Natijada folklor unsuri oddiy reminissensiya darajasida qolmay, konseptual tafakkur vositasiga aylanadi.

Shoirning poetik nutqida takror va parallel konstruksiyalar ham folklorizmning muhim ko'rsatkichi sifa-tida xizmat qiladi. Biroq bu takrorlar mexanik emas, balki semantik intensivlikni oshirishga qaratilgan. Ayrim satrlar ohangiy aylanish asosida qurilib, xalq qo'shiqlariga xos musiqiylikni eslatadi. Shu bilan birga, mazkur ritmik tizim zamonaviy erkin she'r strukturasiga moslashtirilgan holda qayta ishlanadi.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar Matnazar Abdulhakim she'riyatida folklorizm estetik tizimning markaziy va konseptual unsuri ekanini tasdiqlaydi. Folklor obrazlari poetik strukturaning ichki asosiga aylangan bo'lib, ular orqali milliy tarixiy xotira va zamonaviy ruhiy tafakkur uyg'unlashadi. Folklorizm bir vaqtning o'zida tarixiy davomiylikni ta'minlaydi, obrazlar tizimini murakkablashtiradi va semantik chuqurlikni kuchaytiradi. Arxaik timsollar zamonaviy kontekstda yangi estetik mazmun kasb etadi. Bu jarayon shoir individual uslubining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada Matnazar Abdulhakim ijodida folklorizm milliy estetik tafakkurning zamonaviy talqini sifatida namoyon bo'ladi va o'zbek she'riyatining an'anaviy hamda zamonaviy qatlamlarini birlashtiruvchi konseptual asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Folklorshunoslik asoslari. Toshkent, "Fan", 2012.
(2). O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
(3). Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
(4). Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, "Akademnashr", 2017.
(5). Karimov N. O'zbek adabiyoti va milliy tafakkur. Toshkent, "Ma'naviyat", 2015.
(6). Rasulov A. Adabiy tahlil metodologiyasi. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2016.
(7). Zamonaviy adabiyot nazariyasi masalalari. Toshkent, Universitet nashriyoti, 2018.
(8). O'zbek folklori va zamonaviy talqin masalalari. Toshkent, "Fan", 2014.
(9). Milliy mentalitet va badiiy tafakkur. Toshkent, "Akademnashr", 2020.
(10). Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Toshkent, "Tafakkur", 2021.
(11). Folklor va yozma adabiyot integratsiyasi. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2013.
(12). Intertekstuallik va poetik tafakkur. Toshkent, Universitet nashriyoti, 2022.

Xayrullayeva Kamola Ravshanovna (Osiyo Xalqaro Universiteti, f.f.f.d. (PhD);
E-mail: khayrullayevakamola95@gmail.com)

A.RUTHERFORD VA P.QODIROV TARIXIY-BIOGRAFIK ROMANLARIDA HUMOYUN MIRZO OBRAZI TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Boburiy hukmdorlar biri bo‘lgan Humoyun Mirzo tarixiga bag‘ishlab yozilgan Alex Rutherford qalamiga mansub “Empire of the Moghul” hamda Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” tarixiy-biografik romanlari o‘zaro qiyoslanadi, adabiyotshunoslik qonunlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asarlarda Humoyun Mirzo portreti tasviri, yozuvchilar talqini bo‘yicha Boburiy podshoh xarakter-xususiyatlarining berilishi, Humoyunning hayoti, harbiy yurishlari bilan bog‘liq tarixiy haqiqatlarning to‘laligicha qamrab olinishi kabi masalalar o‘zaro qiyoslanadi, o‘xshashlik hamda farqli jihatlari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Bobur Mirzo, Humoyun Mirzo, Alex Rutherford, Pirimqul Qodirov, Gulbadanbegim, Komron Mirzo, Askariy Mirzo.*

Хайруллаева Камола Равшановна (Азиатский международный университет, кандидат наук (PhD); E-mail: khayrullayevakamola95@gmail.com)

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ХУМОЮН МИРЗА В ИСТОРИКО-БИОГРАФИЧЕСКИХ РОМАНАХ А.РУТХЕРФОРДА И П.КАДЫРОВА

Аннотация. *В данной статье проводится сравнение историко-биографического романа Алекса Резерфорда «Империя Великих Моголов», посвященного истории одного из правителей династии Бабуров, Хумаюна Мирзы, и романа Пиримкула Кодирова «Переход поколений», а также их анализ с точки зрения законов литературной критики. В работах сравниваются такие вопросы, как изображение Хумаюна Мирзы, черты характера правителя Бабура в интерпретации авторов, а также полнота изложения исторических фактов, связанных с жизнью и военными походами Хумаюна, и выявляются сходства и различия.*

Ключевые слова: *Бабур Мирза, Хумаюн Мирза, Алекс Резерфорд, Пиримкул Кодиров, Гульбаданбегим, Комрон Мирза, Аскарий Мирза.*

Khayrullayeva Kamola Ravshanovna (Asian International University, PhD;
E-mail: khayrullayevakamola95@gmail.com)

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF HUMOYUN MIRZA IN THE HISTORICAL-BIOGRAPHIC NOVELS OF A.RUTHERFORD AND P.KADYROV

Annotation. *This article compares Alex Rutherford's historical-biographical novel “The Empire of the Moghul” written about the history of one of the Baburid rulers, Humayun Mirza, and Pirimqul Qodirov’s “Passage of Generations”, and analyzes them from the point of view of the laws of literary criticism. The works compare issues such as the portrayal of Humayun Mirza, the character traits of the Babur king according to the writers’ interpretation, and the complete coverage of historical facts related to Humayun's life and military campaigns, and identify similarities and differences.*

Keywords: *Babur Mirza, Humayun Mirza, Alex Rutherford, Pirimqul Qodirov, Gulbadanbegim, Komron Mirza, Askariy Mirza*.

Kirish. Dunyo tarixida uzoq muddat davomida hokimiyatni o‘z qo‘lida ushlab turgan eng buyuk sulolalardan biri bu Hindistonda Boburiylar sulolasidir. Boburiy hukmdorlar davlat boshqaruvi davrida mamlakatda juda ko‘p madaniy-ma’rifiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, ularning orasida Bobur Mirzoning taxt vorisi bo‘lgan Humoyun Mirzo Hindistonda olib borgan siyosati alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bobur Mirzoning taxtni egallashidan tortib, Hindistonda buyuk davlatga asos solishi, keyingi Boburiylar avlodlari davridan to bu sulolaning inglizlar tomonidan qulatilishiga qadar bo‘lgan voqealarni o‘zida qamrab olgan 6 kitobdan iborat “The empire of the Moghul” (“Mo‘g‘ul Imperiyasi”) nomli roman-epopeya ikkovlari uchun bir umumiy Alex Rutherford taxallusini qo‘llagan er-xotin yozuvchilar Maykl va Diana Preston tomonidan yozilgan. Roman-epopeyaning ikkinchi kitobi “Brothers at war” (“Aka-ukalar jangi”) deb nomlanadi va bu roman to‘laligicha Humoyun Mirzo hayot yo‘li, boshidan kechirgan yaxshi va yomon kunlari haqidadir. Biz ushbu badiiy asarni mashhur o‘zbek adibi Pirimqul Qodiorvning “Avlodlar dovoni” tarixiy romani bilan bir o‘ringa qo‘yib, qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, analitik, psixologik va kompleks tahlil kabi metodlar qo‘llanildi. Maqolani yozish jarayonida nomlari ko‘rsatilgan va boshqa bir qator o‘zbek hamda jahon adabiyotshunoslarining asarlari e’tiborga olindi, ularga munosabat bildirildi. Tadqiqotimizda boshqa ilmiy ishlardan farqli o‘laroq Bobur va Boburiylar sulolasi vakillaridan bo‘lgan Humoyun Mirzo

obrazi bugungi qiyosiy adabiyotshunoslik qonuniyatlari nuqtai nazaridan qiyosiy aspektda yaxlit badiiy tizim sifatida tadqiq qilindi.

Tahlil va natijalar. "Mo‘g‘ul imperiyasi" asarida yozuvchi Humoyunning jangchilik mahoratiga baho berar ekan, shunday yozadi: *"But from the days of his youth Humayun had been a good wrestler – quick and strong – and the skills hadn't deserted him*" [2;168-b.]. Bizga ma'lum bo‘lishicha, yosh podshoh juda kuchli va tezkor kurashchi bo‘lgan, raqibining kelgusi harakatlarini oldindan ko‘ra olgan, har bir zarbaga oldindan ruhan va jismonan tayyor tura olgan.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada axborotlashgan ta’lim muhitida pedagogik estetikani rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi sharoitida pedagogik estetikaning mazmuni, uning didaktik asoslari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydala-nish jarayonida estetik komponentlarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida pedagogik estetikani rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik tamoyillar, metodlar va vositalar aniqlanib, ularning ta’lim sifati va talabalarning estetik tafakkurini shakllantirishdagi o‘rni asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *axborotlashgan ta’lim, pedagogik estetika, didaktik asoslar, raqamli ta’lim muhiti, ta’-lim sifati, estetik kompetensiya.*

DIDACTIC BASIS OF DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL AESTHETICS IN INFORMATION EDUCATION

Annotation. *This article analyzes the issues of developing pedagogical aesthetics in an information education environment from a scientific, theoretical and practical perspective. The content of pedagogical aesthetics in the context of the digitalization of the educational process, its didactic foundations, and the importance of aesthetic components in the use of information and communication technologies are highlighted. During the study, didactic principles, methods and tools serving the development of pedagogical aesthetics are identified, and their role in the quality of education and the formation of students' aesthetic thinking is substantiated.*

Keywords: *information education, pedagogical aesthetics, didactic foundations, digital educational environment, quality of education, aesthetic competence.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭСТЕТИКИ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы развития педагогической эстетики в информационно-образовательной среде с научной, теоретической и практической точек зрения. Выделено содержание педагогической эстетики в контексте цифровизации образовательного процесса, ее дидактические основы и важность эстетических компонентов при использовании информационно-коммуникационных технологий. В ходе исследования определены дидактические принципы, методы и инструменты, способствующие развитию педагогической эстетики, и обоснована их роль в качестве образования и формировании эстетического мышления учащихся.*

Ключевые слова: *информационное образование, педагогическая эстетика, дидактические основы, цифровая образовательная среда, качество образования, эстетическая компетентность.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborotlashgan ta’lim muhiti nafaqat bilimlarni uzatish vositasi, balki shaxsning intellektual, ma’naviy va estetik rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik faoliyatda estetik yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masalalar-dan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik estetika o‘qituvchining nutqi, vizual materiallardan foydalanishi, dars dizayni, raqamli resurslarning estetik jihatdan mukammalligi orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Axborotlashgan ta’lim sharoitida bu jarayon yanada murakkablashib, didaktik asoslarni ilmiy jihatdan asoslab berishni talab etadi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo‘li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak. Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ta’rif bergan. Hali bu tushunchaga to‘liq va yagona ta’rif qabul qilinmagan. Ushbu ta’riflar ichida eng maqsadga muvofig‘i UNESKO tomonidan berilgan ta’rif sanaladi [1;825-b.].

Onlayn loyihalar orqali rivojlantirilgan axloqiy mas’uliyat va estetik sezgirlik nafaqat o‘quv muhiti bilan cheklanib qolmay, balki sinf amaliyotida ham faol aks etadi. Raqamli loyihalarga asoslangan o‘qitish bilan shug‘ullanadigan kelajakdagi o‘qituvchilar rivojlangan ijodkorlik, chuqurroq madaniy ong va kuchli axloqiy mas’uliyat hissini namoyish etadilar. Bu fazilatlar pedagogik kompetentsiyani axloqiy va estetik qadriyatlar bilan birlashtirgan yaxlit professional shaxsni shakllantirishga hissa qo'shadi [2;208-b.].

Mazkur tadqiqotning maqsadi–axborotlashgan ta’lim sharoitida pedagogik estetikani rivojlantirishning didaktik asoslarini aniqlash va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy izlanishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda bir qator o‘zaro uyg‘un metodlardan foydalanildi. Xususan, pedagogik va falsafiy-adabiyotlarni tahlil qilish metodi orqali pedagogik estetikaning mazmun-mohiyati, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda rivojlanish tendensiyalari nazariy jihatdan o‘rganildi.

Shuningdek, axborotlashgan ta’lim muhitida qo‘llanilayotgan didaktik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish orqali turli pedagogik modellar va texnologiyalarning estetik imkoniyatlari aniqlanib, ularning samaradorligi baholandi. Ta’lim jarayonini kuzatish metodi o‘quv faoliyatining real sharoitdagi holatini tahlil qilish, pedagogik estetikaning amaliy namoyon bo‘lish shakllarini aniqlash imkonini berdi.

Ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish metodi esa zamonaviy ta’lim amaliyotida samaradorligi is-botlangan yondashuvlarni tizimli ravishda tahlil qilishga xizmat qildi. Bundan tashqari, nazariy umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida olingan ma’lumotlar mantiqiy izchillikda qayta ishlanib, pe-

dagogik estetikani rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy didaktik omillar aniqlandi. Mazkur metodlar majmuyi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta’minladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborotlashgan ta’lim muhitida pedagogik estetikani shakllantirish va rivojlantirish jarayoni bir qator o‘zaro uzviy bog‘liq didaktik omillar ta’siri ostida amalga oshadi. Jumladan, vizual didaktika komponenti raqamli ta’lim resurslarida ranglar uyg‘unligi, grafik dizaynning didaktik maqsadlarga mosligi, animatsiya hamda multimedia elementlaridan o‘rinli va me’yorida foydalanish orqali o‘quv axborotining idrok etilishini yengillashtiradi hamda estetik qabul qilish jarayonini faollashtiradi.

Pedagogik muloqot estetikasi o‘qituvchining nutq madaniyati, muloqot jarayonida etik va estetik me’yorlarga rioya etishi, onlayn hamda oflayn ta’lim shakllarida professional va madaniy kommunikatsiyani ta’minlashi bilan tavsiflanadi. Ushbu omil ta’lim subyektlari o‘rtasida ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [3;1054-b.].

Bundan tashqari, interaktivlik va estetik muhit ta’lim platformalari hamda elektron kurslarning foydalanuvchi uchun qulay interfeysga ega bo‘lishi, dizayn jihatidan jozibadorligi va funksional samaradorligi bilan belgilanadi. Bu holat talabalarning o‘quv jarayoniga faol jalb etilishiga hamda mustaqil ta’lim faoliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Didaktik texnologiyalar uyg‘unligi esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarni estetik yondashuv bilan integratsiyalash orqali ta’lim mazmuni va shakli o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. Natijada aniqlangan didaktik omillar talabalarning estetik tafakkurini rivojlantirish, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish hamda o‘quv materialini samarali o‘zlashtirish jarayoniga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborotlashgan ta’lim muhiti pedagogik estetikani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish o‘qituvchining didaktik kompetensiyasi va estetik madaniyatiga bevosita bog‘liq.

Pedagogik estetika ta’lim jarayonida faqat tashqi bezak emas, balki mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaralishi lozim. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda estetik tamoyillarga amal qilinmasligi ta’lim sifati pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida pedagogik estetika masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan ta’lim sharoitida pedagogik estetikani rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishi va sifat ko‘rsatkichlarini oshirishda muhim pedagogik-didaktik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli ta’lim muhitining kengayib borishi pedagogik faoliyatga estetik yondashuvni tizimli ravishda joriy etishni taqozo etadi, chunki estetik jihatdan puxta tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quv axborotining samarali idrok etilishi, ta’lim subyektlari o‘rtasida ijobiy muloqot muhitining shakl-lanishi hamda talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik estetikani rivojlantirishning didaktik asoslari, avvalo, vizual, kommunikativ va texnologik omillarning o‘zaro uyg‘unligi orqali amalga oshadi. Mazkur omillarning integratsiyasi ta’lim mazmuni va shakli o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlab, ta’lim jarayonining metodik jihatdan samarali hamda estetik jihatdan jozibador bo‘lishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, pedagogik estetikaga asoslangan yondashuv talabalarda estetik tafakkur, madaniy idrok va raqamli muhitda samarali faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Mazkur tadqiqotda ilgari surilgan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar pedagogik jarayonni takomillashtirish, raqamli ta’lim resurslarini loyihalashda estetik tamoyillarni hisobga olish, shuningdek, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida metodik asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalari oliy va umumiy o‘rta ta’lim tizimida axborotlashgan ta’lim muhitini samarali tashkil etishga qaratilgan keyingi ilmiy izlanishlar uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Adiba Shamshidin qizi Isoqova (2021). Axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonini tashkillashtirishda foydalanish. Scientific progress, 2 (4), p. 823–828.

(2). Kenjabayeva D.A. (2025). The role of online projects in forming the ethical and aesthetic views of future lan-guage teachers. “Экономика и социум”, (10-1 (137)), p. 207–209.

(3). Kamola Erkin Qizi Djalilova (2021). Xorijiy tillarni o‘rganishda o‘qituvchi mahoratining roli. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 1), p. 1051-1056.

(4). Karshiyeva B. (2023). Solving complex communicative-knowledge tasks based on integrated bilingual education in English. Interpretation and Researches, 1(18). https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1538

Avezmetov Jaxongir Sheraliyevich (UzDJTU 1-Ingliz tili fakulteti "1-Ingliz tili amaliy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi; https://orcid.org/0009-0006-2369-6217)

WEB-LUG'ATLAR ASOSIDA INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'QITISHNING INTERAKTIV MODELI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada birinchi bosqich talabalariga ingliz tili leksikasini web-lug'atlar asosida o'qitishning interaktiv modeli ishlab chiqiladi va ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda raqamli leksikografiya imkoniyatlari, multimodal lug'at komponentlari, korpus texnologiyalari hamda interaktiv platformalarning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. O'qitish modeli uch bosqichli (tanishtiruv, analitik, produktiv) tizim asosida ishlab chiqilgan bo'lib, talabalarda leksikografik kompetensiya, kollokatsion tafakkur va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Maqolada eksperimental metod asosida modelning samaradorligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *web-lug'at, leksikografik kompetensiya, interaktiv model, raqamli ta'lim, kollokatsiya, korpus texnologiyasi.*

ИНТЕРАКТИВНАЯ МОДЕЛЬ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОЙ ЛЕКСИКЕ НА ОСНОВЕ ВЕБ-СЛОВАРЕЙ

Аннотация*. В статье разрабатывается и научно-методически обосновывается интерактивная модель обучения английской лексике на основе веб-словарей для студентов первого курса. Анализируются возможности цифровой лексикографии, мультимодальные компоненты словарных статей, корпусные технологии и интерактивные платформы в образовательном процессе. Модель обучения построена на трёхэтапной системе (ознакомительный, аналитический, продуктивный этапы) и направлена на формирование лексикографической компетенции, коллокационного мышления и навыков самостоятельной работы. Эффективность модели подтверждается результатами экспериментального обучения.*

Ключевые слова: *веб-словарь, лексикографическая компетенция, интерактивная модель, цифровое обучение, коллокация, корпусные технологии.*

AN INTERACTIVE MODEL OF TEACHING ENGLISH VOCABULARY BASED ON WEB DICTIONARIES

Annotation. *The article develops and scientifically substantiates an interactive model of teaching English vocabulary based on web dictionaries for first-year university students. The study analyzes the potential of digital lexicography, multimodal dictionary components, corpus technologies, and interactive platforms in the educational process. The proposed teaching model is structured into three stages (introductory, analytical, and productive) and aims to develop lexicographic competence, collocational aware-ness, and independent learning skills. The effectiveness of the model is confirmed through experimental teaching results.*

Keywords: *web dictionary, lexicographic competence, interactive model, digital learning, collocation, corpus technology.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar asosida til o'qitish metodikasi yangi bosqichga ko'tarildi. An'anaviy bosma lug'atlardan farqli ravishda web-lug'atlar multimodal, interaktiv va tezkor ma'lumot manbayi sifatida talabaning mustaqil o'rganish faoliyatini faollashtiradi. Xususan, Oxford Learner's Dictionaries, Cambridge Dictionary kabi zamonaviy raqamli lug'atlar talaffuz, kollokatsiya, uslubiy belgi va real kontekst namunalarini taqdim etadi. Shu sababli web-lug'atlar asosida ingliz tili leksikasini o'qitishning interaktiv modelini ishlab chiqish metodika fanining dolzarb masalalaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literatura review). Web-lug'atlar asosida ingliz tili leksikasini o'qi-tish masalasi zamonaviy leksikografiya, korpus lingvistikasi va raqamli pedagogika kesishgan nuqtada shakll-angan ilmiy yo'nalishdir. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, avvalo, zamonaviy leksikogra-fiya nazariyasining rivojlanishi bilan bog'liq. Ingliz leksikografiyasi tarixiy va nazariy asoslari A.P.Kauining *"Oxford History of English Lexicography"* (2009) asarida tizimli ravishda yoritilgan bo'lib, unda lug'at maqolasi tuzilishi, semantik tavsif prinsiplari va foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuv jarayoni ilmiy asoslangan. Ushbu tadqiqot web-lug'atlar strukturasi va ularning interaktiv xususiyatlarini tushunishda nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

Tilni o'qitishda leksik birliklarning kollokatsion tabiatiga e'tibor qaratish zarurligi Maykl Lyuisning "The Lexical Approach" (1993) asarida ilmiy asoslangan. Muallif tilni alohida so'zlar yig'indisi sifatida emas, balki tayyor leksik bloklar tizimi sifatida o'rganish samaraliroq ekanini ta'kidlaydi. Bu nazariya web-lug'atlarda mavjud kollokatsion bloklar va real qo'llanish namunalari orqali o'qitish modelini ishlab chi-

qishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Korpus lingvistikasi asoschisi sifatida e’tirof etilgan Jon Sinkler real til qo‘llanishiga asoslangan lug‘at tuzish prinsiplari zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning ishlari natijasida lug‘atchilikda autentik kontekstga tayanish tamoyili shakllandi, bu esa bugungi web -lug‘atlarning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Korpus lingvistikasi metodologiyasining rivojlanishida Daglas Bayberning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. U til birliklarini statistik va funksional jihatdan o‘rganish metodlarini ishlab chiqib, leksik birliklarning real nutqdagi qo‘llanish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini aniqlash imkonini yaratdi. Ushbu yondashuv zamonaviy elektron lug‘atlar, xususan, Corpus of Contemporary American English asosida ishlab chiqilgan resurslarda o‘z ifodasini topgan.

Raqamli leksikografiya yo‘nalishida Pedro A.Fuertes-Olivera elektron lug‘atlarning foydalanuvchi eh-tiyojlariga moslashuvi, qidiruv mexanizmlari va giperhavolalar tizimini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Uning tadqiqotlarida elektron lug‘atlarning interaktiv tabiati va o‘quv jarayonidagi afzalliklari asoslab berilgan. Bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan *Oxford Learner’s Dictionaries* hamda *Cambridge Dictionary* kabi web-lug‘atlar multimodal elementlar–audiotalaffuz, kollokatsiya bloklari, real misollar–orqali o‘quvchi uchun qulay va interaktiv muhit yaratadi.

Raqamli pedagogika sohasidagi tadqiqotlar web-resurslar talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirishini ko‘rsatadi. Xususan, *Quizlet* platformasi leksik birliklarni takrorlash va mustahkamlash jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy leksikografiya foydalanuvchi markazlashgan va funk-sional yondashuvga asoslanadi, korpus lingvistikasi lug‘at maqolasining autentikligini ta’minlaydi, raqamli lu-g‘atlar esa multimodal va interaktiv imkoniyatlari bilan didaktik samaradorlikni oshiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Leksikografiya tilshunoslikning amaliy va nazariy yo‘-nalishlaridan biri bo‘lib, lug‘at tuzish, lug‘at maqolasining tuzilishini ishlab chiqish, so‘z ma’nosini izohlash, uning grammatik, stilistik va funksional xususiyatlarini tavsiflash bilan shug‘ullanadi. Mazkur soha nafaqat lug‘at yaratish texnologiyasini, balki lug‘atdan foydalanish madaniyatini ham o‘rganadi. Leksikografiya nazariy jihatdan semasiologiya, leksikologiya va korpus lingvistikasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til birliklarini tizimli va ilmiy asosda tavsiflashni maqsad qiladi.

Lug‘atchilik amaliyoti qadimiy sivilizatsiyalar davriga borib taqaladi. Eng qadimgi lug‘aviy ro‘yxatlar Mesopotamiya hududida miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda paydo bo‘lgan bo‘lib, ular, asosan, so‘zlar ro‘yxati shaklida tuzilgan. Antik davrda yunon va lotin tillari bo‘yicha izohli va tarjima lug‘atlari shakllangan. O‘rta asrlarda esa ikki va ko‘p tilli lug‘atlar ilmiy va diniy matnlarni tushuntirish ehtiyoji bilan bog‘liq ravishda rivojlangan. Ingliz leksikografiyasi tarixida 1755-yilda chop etilgan Samuel Jonson lug‘ati muhim bosqich hisoblanadi, keyinchalik, XIX–XX asrlarda ilmiy prinsiplarga asoslangan izohli lug‘atlar paydo bo‘ldi. Zamonaviy ilmiy leksikografiyaning shakllanishi, ayniqsa, korpus lingvistikasi taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, real nutq namunalari asosida lug‘at tuzish tamoyili ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogik leksikografiya yo‘nalishi shakllandi. Bu jarayonda lug‘at o‘quvchi ehtiyojlariga moslashtirilgan holda tuzilishi kerakligi asoslab berildi. Leksik birlikni faqat izohlash emas, balki uning qo‘llanish muhitini, kollokatsion imkoniyatlarini va stilistik belgisini ko‘rsatish muhimligi ta’kidlandi. Mazkur yondashuv ayniqsa ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitish amaliyotida keng qo‘llanildi. Hozirgi bosqichda elektron va web-lug‘atlar pedagogik leksikografiyaning asosiy vositalaridan bi-riga aylandi, chunki ular multimodal elementlar, tezkor qidiruv va real kontekst namunalari orqali ta’lim jara-yonini interaktivlashtiradi.

Leksikografiyani o‘qitish masalasi tilshunoslik va metodika fanlari kesishgan nuqtada qaraladi. An’-anaviy yondashuvda lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasi yordamchi vosita sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvda u mustaqil o‘quv kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Talaba lug‘at maqolasining strukturaviy elementlarini – sarlavha so‘z, transkripsiya, so‘z turkumi, izoh, misol, kollokatsiya, stilistik belgi va qo‘llanish sohasi – tahlil qila olishi zarur. Bunday ko‘nikma talabaning semantik tafakkurini rivojlantiradi va so‘zning funksional imkoniyatlarini to‘g‘ri anglashga yordam beradi.

Leksikografiyani samarali o‘qitish bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Dastlabki bosqichda lug‘at maqolasi tuzilishini tushuntirish va undagi belgilar tizimini izohlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda ko‘rgazmali va reproduktiv metodlar qo‘llanadi. Keyingi bosqichda analitik yondashuv asosida bir so‘zning turli lug‘atlardagi talqinini qiyoslash, sinonimik qatorni aniqlash, kollokatsion imkoniyatlarni tahlil qilish samarali hisoblanadi. Ushbu bosqich talabaning tanqidiy va kontekstual tafakkurini rivojlantiradi. Yakuniy bosqichda esa produktiv faoliyat tashkil etilib, talabalar mustaqil ravishda minilug‘at maqolasi tuzish, glossariy yaratish yoki korpus ma’lumotlari asosida leksik tahlil o‘tkazish kabi topshiriqlarni bajaradilar.

Zamonaviy sharoitda web-lug‘atlar asosida o‘qitish ayniqsa samarali deb hisoblanadi. Chunki electron resurslar so‘zning talaffuzi, kollokatsiyasi, real qo‘llanish namunasi va stilistik xususiyatini bir vaqtning o‘zida taqdim etadi. Multimodal taqdimot eslab qolish jarayonini kuchaytiradi, interaktiv qidiruv tizimi esa talabaning mustaqil izlanish faoliyatini rag‘batlantiradi. Korpus asosidagi yondashuv orqali so‘zning nutqdagi real chastotasi va tipik sintaktik muhitini aniqlash mumkin bo‘ladi, bu esa semantik nozikliklarni anglashga yordam beradi.

Quyida zamonaviy web-lug‘atlarning metodik imkoniyatlari bo‘yicha qiyosiy jadval taqdim etiladi:

Mezoni	Oxford Learner’s Dictionaries	Cambridge Dictionary	Merriam-Webster	Corpus of Contemporary American English
Maqsadli auditoriya	Ingliz tilini o‘rganuvchilar	O‘quvchilar va akademik foydalanuvchilar	Amerika ingliz tili foydalanuvchilari	Til tadqiqotchilari va ilg‘or o‘quvchilar
Izoh tili	Soddalashtirilgan, o‘quvchiga mos	Aniq va kontekstual	Nisbatan murakkab, batafsil	Izoh bermaydi, real kontekst ko‘rsatadi
Talaffuz	Britan va Amerikan variantlari (audio)	Britan va Amerikan variantlari (audio)	Asosan Amerikan variant	Talaffuz funksiyasi mavjud emas
Kollokatsiyalar	Maxsus kollokatsion bloklar	Kollokatsion misollar mavjud	Cheklangan kollokatsiya	Real matnlarda tabiiy kollokatsiya
Grammatik ma’lumot	So‘z turkumi, shakllar, modellari	Grammatik izoh va qo‘llanish	Grammatik tavsif mavjud	Grammatik naqshlarni kontekstda ko‘rsatadi
Etimologiya	Qisqa ma’lumot	Juda qisqa yoki cheklangan	Batafsil etimologiya	Etimologik ma’lumot bermaydi
Akademik yozuv uchun	O‘rta darajada mos	Juda mos (formal/informal farqlari aniq)	Akademik daraja uchun mos	Akademik matn tahlili uchun juda mos
Interaktivlik	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori (filtrlash va statistik qidiruv)
Boshlang‘ich bosqich uchun	Juda mos	Mos	Nisbatan murakkab	Tayyorlovsiz qiyin
Ilmiy tadqiqot uchun	Cheklangan	Cheklangan	O‘rtacha	Juda yuqori

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, birinchi bosqich talabalari uchun soddalashtirilgan izoh va aniq struk-tura sababli Oxford va Cambridge lug‘atlari metodik jihatdan qulay hisoblanadi. Merriam-Webster etimologik va tarixiy ma’lumot berish jihatidan ustun bo‘lsa-da, boshlang‘ich bosqichda murakkablik tug‘dirishi mumkin. COCA esa klassik lug‘at emas, balki korpus bazasi bo‘lib, kollokatsion va kontekstual tahlil uchun eng sama-rali vosita hisoblanadi, ammo undan foydalanish maxsus ko‘nikma talab qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mazkur maqolada web-lug‘atlar asosida ingliz tili leksikasini o‘qitishning interaktiv modeli nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot davomida leksikografiya fanining shakllanish bosqichlari, uning pedagogik yo‘nalishga integratsiyalashuvi hamda zamonaviy raqamli leksikografiyaning metodik imkoniyatlari tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda lug‘at oddiy ma’lumot manbai emas, balki talabaning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi interaktiv ta’lim vositasiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Bergenholtz H, Tarp S. Manual of Specialised Lexicography: The Preparation of Specialised Dictionaries. Amsterdam, John Benjamins, 1995.

(2). Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

(3). Cambridge University Press. Cambridge Dictionary Online [Internet]. Cambridge: Cambridge University Press, 2024 [cited 2026 Feb 20]. Available from: https://dictionary.cambridge.org

(4). Cowie A.P. editor. The Oxford History of English Lexicography. Oxford, Oxford University Press, 2009.

(5). Fuertes-Olivera PA, Tarp S. Theory and Practice of Specialised Online Dictionaries: Lexicography versus Terminography. Berlin, De Gruyter, 2014.

(6). G‘aniyeva M. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, “Tafakkur”, 2018.

(7). Jackson H. Lexicography: An Introduction. London, Routledge, 2002.

(8). Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2012.

(9). Oxford University Press. Oxford Learner's Dictionaries [Internet]. Oxford, Oxford University Press, 2024 [cited 2026 Feb 20]. Available from: https://www.oxfordlearnersdictionaries.com
(10). Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya). Toshkent, "Universitet", 2006.
(11). Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2010.
(12). Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford, Oxford University Press, 1991.
(13). To'xtasinov I. Chet tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, TDPU, 2015.
(14). Xudoyberganova D. O'zbek tilida korpus lingvistikasi asoslari. Toshkent, "Akademnashr", 2020.

Ozodova Odina Qobil qizi (O'zbekiston milliy Pedagogika universiteti 2-kurs tayanch doktoranti, Toshkent, O'zbekiston; odinaarifjanova@gmail.com)

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA GEYMIFIKATSIYA ASOSIDAGI KONSEPTUAL YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishda geymifikatsiya yondashuvining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida EFL o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion metodlarning yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi geymifikatsiya asosida metodik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi.*

Kalit so'zlar: *geymifikatsiya, EFL ta'limi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, metodik kompetensiya, tea-cher education, konseptual model, oliy ta'lim, pedagogik innovatsiyalar, motivatsiya.*

Озодова Одина (докторант 2-го года обучения Национального педагогического университета Узбекистана, г.Ташкент, Узбекистан; odinaarifjanova@gmail.com)

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические возможности геймификации в развитии методической компетентности будущих учителей английского языка. Актуальность исследования обусловлена необходимостью внедрения инновационных подходов в систему подготовки преподавателей иностранного языка в условиях цифровизации высшего образования. Целью работы является разработка концептуальной модели формирования методической компетентности будущих учителей английского языка на основе геймификации. В ходе исследования применялись методы системного и сравнительно-педагогического анализа, контент-анализа научной литературы и педагогического моделирования.*

Ключевые слова: *геймификация, обучение английскому языку (EFL), будущие учителя англий-ского языка, методическая компетентность, педагогическое образование, концептуальная модель, высшее образование, педагогические инновации, учебная мотивация.*

Ozodova Odina (2nd year PhD student of National pedagogical university of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan; odinaarifjanova@gmail.com)

A GAMIFICATION-BASED CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR DEVELOPING METHODOLOGICAL COMPETENCE IN PRE-SERVICE EFL TEACHERS

Annotation. *This article explores the pedagogical potential of gamification in developing the methodological competence of pre-service EFL teachers. The relevance of the study is determined by the need to integrate innovative instructional approaches into contemporary teacher education within higher education. The aim of the research is to design a gamification-based conceptual framework for enhancing methodological competence in pre-service EFL teachers. The study employs systematic and comparative analysis, content analysis of recent scholarly literature, and conceptual modeling as its main research methods.*

Keywords: *gamification, EFL education, pre-service EFL teachers, methodological competence, teacher education, conceptual framework, higher education, pedagogical innovation, learning motivation.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ularning metodik kompetensiyasini rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Global ta'lim makonida raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va o'quvchi markazli yondashuvlar keng qo'llanilayotgan bir paytda, an'anaviy o'qitish usullarining o'zi kelajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini to'liq ta'minlab bera olmayapti. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilini o'qitish metodikasiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, xususan, geymifikatsiya yondashuvini integratsiya qilish zarurati ortib bormoqda.

Geymifikatsiya ta’lim jarayoniga o‘yin elementlari va mexanizmlarini joriy etish orqali o‘quvchilarning faolligini, motivatsiyasini hamda o‘rganish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ushbu yondashuv umumiy ta’lim jarayonida keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishda geymifikatsiyaning nazariy va konseptual asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, EFL teacher education (o‘qituvchilarning ingliz tilini xorijiy til sifatidagi ta’limi) jarayonida geymifikatsiya elementlarini tizimli ravishda qo‘llashga qaratilgan konseptual model va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan geymifikatsiya asosidagi konseptual modelni ishlab chiqish va uning pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish, innovatsion metodlarni joriy etish va ta’lim samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida geymifikatsiya yondashuvining pedagogik imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortdi. Yevropa va xalqaro ilmiy adabi-yotlarda ushbu yondashuv o‘quvchilarning motivatsiyasi va ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida talqin etiladi. Xususan, M.Sailer va L.Homner tomonidan olib borilgan metatahlil natijalari geymifikatsiya elementlari o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ishtiroki va motivatesiyasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi [12]. J.Koivisto va J.Hamari tadqiqotlarida ham geymifikatsiya ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligi hamda o‘zlashtirish natijalarini yaxshilashga xizmat qilishi ta’kidlangan [5].

Yevropa olimlari A.van Gaalen va hamkorlari oliy ta’lim tizimida geymifikatsiyadan foydalanish bo‘yicha tizimli tahlil olib borib, mazkur yondashuv talabalarning o‘quv jarayoniga jalb etilishini kuchaytirishi va refleksiv faoliyatini rivojlantirishga yordam berishini aniqlaganlar [15]. A.Krouska va hamkorlari esa geymifikatsiyaning zamonaviy ta’limdagi o‘rni va uning pedagogik samaradorligi bo‘yicha tadqiqotlar soni ortib borayotganini qayd etadi [6]. Z.Zainuddin va hamkorlarining ilmiy ishlarida oliy ta’lim muassasalarida geymifikatsiya asosida tashkil etilgan ta’lim muhitining talabalarning o‘quv motivatsiyasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’siri ko‘rsatib berilgan [17]. Shuningdek, Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli o‘qituvchilarning raqamli va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, jumladan, geymifikatsiya muhim vosita bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi [11].

Rossiya olimlari tomonidan ham chet tillarini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish masalalari keng o‘rganilmoqda. E.S.Polat va M.Y.Buxarkina chet tillarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etadi [10]. P.V.Sysoev raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlar o‘qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [13]. A.V.Guseva oliy ta’lim tizimida geymifikatsiya elementlarini joriy etish talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtirish va o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam berishini ko‘r-satadi [2]. E.G.Tareva esa bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida metodik kompetensiyani rivojlanti-rishning zamonaviy yondashuvlarini asoslab beradi [14].

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham ingliz tilini o‘qitishda innovatsion metodlarni qo‘llash masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. N.Xodjayeva va D.Abdullayeva ingliz tilini o‘qitishda interaktiv va innovatsion metodlar talabalarning o‘quv faolligini oshirishini ta’kidlaydi [16]. A.Nurmuhamedov oliy ta’lim tizimida raqamli pedagogika va zamonaviy metodlardan foydalanish o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi [8]. U.Karimov bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini asoslaydi [4]. Z.Ismoilova esa chet tillarini o‘qitishda zamonaviy metodlar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishini qayd etadi [3].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, geymifikatsiya ta’lim jarayonida o‘quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida keng o‘rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida geymifikatsiya asosan o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi yoki til ko‘nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan o‘rganilgan bo‘lib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot geymifikatsiya asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan konseptual modelni ishlab chiqish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan**.**

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishda geymifikatsiya yondashuvining pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash va konseptual model ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy nazariy yondashuvlariga tayangan holda tizimli, kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlar uyg‘unligi asos qilib olindi. Tadqiqotning umumiy falsafasi konstruktivistik va kompetensiyaga yo‘naltirilgan pedagogik qarashlarga tayanadi, asosan, induktiv-deduktiv tahlil asosida amalga oshirildi: mavjud nazariy manbalarni tahlil qilish orqali umumiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tizimli va qiyosiy tahlil qilish, kontent-tahlil, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish hamda konseptual yondashuv asosida nazariy konstruksiya yaratish. Ushbu metodlar tadqiqot muammosining mohiyatini chuqur ochib berish, mavjud yondashuvlarni solishtirishga xizmat qildi.

Tadqiqotning obyektini oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni, predmeti esa mazkur jarayonda geymifikatsiya yondashuvi asosida metodik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari tashkil etadi. Tadqiqotda asosan ikkilamchi ma’lumot manbalari – mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Mazkur manbalar asosida geymifikatsiya yondashuvining pedagogik imkoniyatlari, metodik kompetensiya tushunchasining tarkibiy komponentlari hamda teacher education tizimida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga oid ilmiy qa-rashlar umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Kontent-tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, metodik kompetensiya asosan uchta asosiy komponentdan iborat: metodik bilimlar, amaliy metodik ko‘nikmalar va refleksiv faoliyat. Ushbu komponentlar o‘qituvchining darsni rejalashtirish, ta’lim metodlarini tanlash, o‘quv jarayonini tashkil etish va natijalarni baholash kabi kasbiy faoliyatlarini qamrab oladi.

Ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida geymifikatsiya yondashuvining asosiy didaktik elementlari – o‘yin mexanizmlari (ballar, darajalar, badge), muammoli vazifalar, raqobat va hamkorlik elementlari hamda tezkor qayta aloqa tizimi ta’lim jarayonida o‘quv faolligi va motivatsiyani oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur elementlarning teacher education jarayoniga integratsiyasi metodik kompetensiyani rivoj-lantirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini tashkil etish imkonini berishi tahlil natijalarida qayd etildi. Tahlil qilingan manbalarda geymifikatsiya asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti talabalarning o‘quv jarayoniga faol jalb etilishi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va refleksiv faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatildi.

Tizimli tahlil asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan geymifikatsiya asosidagi konseptual modelning tarkibiy komponentlari aniqlandi. Mazkur model quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi: maqsadli komponent (metodik kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadlar), mazmuniy komponent (metodik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv mazmuni), jarayon komponenti (geymifikatsiya elementlari asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyati), baholash komponenti (formativ va summativ baholash mexanizmlari) hamda natijaviy komponent (metodik kompetensiya darajasining oshishi). Tahlil natijalari ushbu komponentlarning o‘zaro integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Modellashtirish natijasida geymifikatsiya elementlarini teacher education jarayoniga joriy etish uchun zarur pedagogik shartlar ham aniqlandi. Ular qatoriga o‘quv jarayonini interaktiv tashkil etish, refleksiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, raqamli platformalardan foydalanish va talabalarning o‘quv faoliyatiga individual yondashuvni ta’minlash kiradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu shartlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va metodik kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantrishda geymifikatsiya yondashuvining nazariy va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda konseptual model ishlab chiqishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy teacher education tizimida innovatsion yondashuvlar, xususan, geymifikatsiya elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘lajak o‘qi-tuvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida metodik kompetensiyaning tarkibiy komponentlari aniqlanib, ularni rivojlantirishda geymifikatsiya yondashuvining didaktik salohiyati asoslab berildi.

Tadqiqot doirasida geymifikatsiya asosida metodik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqildi. Ushbu model maqsadli, mazmuniy, jarayonli, baholash va natijaviy komponentlarning o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi hamda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va refleksiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Modelning pedagogik ahamiyati shundaki, u teacher education jarayonida innovatsion o‘qitish texnologiyalarini tizimli ravishda qo‘llash, talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish va metodik kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. Brussels, 2021, 45 p.

(2). Guseva A.V. Gamification in Higher Education: Pedagogical Potential. “Высшее образование в России”, 2022, № 5, c. 120–130.

(3). Ismoilova Z. Chet tillarini o‘qitishda zamonaviy metodlar. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2024, 200-betlar.

(4). Karimov U. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish. “Pedagogik ta’lim” jurnali, 2023, № 2, 45–52-betlar.

(5). Koivisto J., Hamari J. The Rise of Gamification in Education and Its Impact on Student Engagement. Computers in Human Behavior. 2021, vol. 124, p. 1–10.

(6). Krouska A., et al. Gamification in Education: A Systematic Literature Review. Education and Information Technologies. 2022, vol. 27, p. 1–25.

(7). Kuzmina N.V. Professional Competence of Teachers in Digital Education. Moskva, “Yurait”, 2021, p. 240.

(8). Nurmuhamedov A. Oliy ta’limda raqamli pedagogika va innovatsion metodlar. Toshkent, 2022, 150-bet.

(9). Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, 2022.

(10). Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. Педагогические технологии в обучении иностранным языкам. — Москва: Академия, 2020. 192 с.

(11). Redecker C. Digital Competence of Educators (DigCompEdu) Framework Update. Luxembourg: European Commission, 2020, 100 p.

(12). Sailer M., Homner L. The Gamification of Learning: A Meta-analysis. Educational Psychology Review. 2020, vol. 32, p. 77–112.

(13). Sysoev P.V. Digital Technologies in Foreign Language Teaching. Иностранные языки в школе, 2021, №3, p. 2–9.

(14). Tareva E.G. Professional Training of Future Foreign Language Teachers. “Pedagogika”, 2023, №4, p. 45–52.

(15). Van Gaalen A., et al. Gamification in Higher Education: A Systematic Review. Educational Technology Research and Development. 2021, vol. 69(2), p. 1–23.

(16). Xodjayeva N., Abdullayeva D. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Fan”, 2021, 180-bet.

(17). Zainuddin Z., et al. Gamified Learning in Higher Education: A Review of Recent Trends. Computers & Education, 2023, vol. 190, p. 104600.

(18). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent, 2020.

(19). www.ziyonet.uz

(20). www.natlib.uz

(21). unilibrary.uz

Omonov Bahodir Nurillayevich (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, f.f.d. (DSc), professor; E-mail: bakhodiron@gmail.com)

EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY-MA’NAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekologik ta’lim va tarbiyani takomillashtirishning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ekologik ta’limning jamiyat barqaror ri-vojlanishidagi o‘rni, shaxsda ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Ekologik tarbiyaning ma’naviy-axloqiy mazmuni, uning shaxs kamoloti va ijtimoiy mas’uliyatli fuqarolik pozitsi-yasini rivojlantirishdagi roli ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik madaniyat, ijtimoiy-ma’naviy ri-vojlanish, barqaror taraqqiyot, ekologik mas’uliyat, shaxs kamoloti.*

Омонов Баходир Нуриллаевич (Шахрисабзский государственный педагогический институт, заведующий кафедрой социальных наук; доктор философских наук (DSc), профессор; E-mail: bakhodiron@gmail.com)

СОЦИАЛЬНО-МОРАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируется социально-духовное значение совершенствования экологического образования и воспитания. Исследовательский процесс подтверждает роль экологического образования в устойчивом развитии общества и его важность в формировании экологического сознания и ответственности у отдельных лиц. Раскрывается духовно-нравственное содержание экологического образования, его роль в личностном развитии и формировании социально ответственной гражданской позиции.*

Ключевые слова: *экологическое образование, экологическое воспитание, экологическая осведомленность, экологическая культура, социально-духовное развитие, устойчивое развитие, экологическая ответственность, личностное развитие.*

Omonov Bakhodir Nurillayevich (Shahrisabz State Pedagogical Institute, Head of the Department of Social Sciences Doctor of Philosophy (DSc), Professor; E-mail: bakhodiron@gmail.com)

SOCIAL-MORAL SIGNIFICANCE OF IMPROVING ECOLOGICAL EDUCATION AND UPBRINGING

Annotation. *This article analyzes the socio-spiritual significance of improving environmental education and upbringing from a scientific and theoretical perspective.The research process substantiates the role of environmental education in the sustainable development of society and its importance in forming environmental awareness and responsibility in individuals.The spiritual and moral content of ecological education, its role in personal development and the development of a socially responsible civic position, is revealed.*

Keywords: *ecological education, ecological upbringing, ecological awareness, ecological culture, socio-spiritual development, sustainable development, ecological responsibility, personal development.*

Kirish (Introduction). XXI asrda global taraqqiyot jarayonlari fonida ekologik muammolarning kuchayib borishi jamiyatning barqaror rivojlanishiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o‘zgarishi va biologik xilma-xillikning qisqarishi inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatning izdan chiqayotganini yaqqol namoyon etadi [2]. Mazkur jarayonlar ekologik muammolarni faqat texnologik yoki iqtisodiy choralar bilan hal etish yetarli emasligini ko‘rsatib, inson omiliga, xususan, ekologik ong, ekologik madaniyat va ma’naviy mas’uliyatni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ekologik ta’lim va tarbiya jamiyatda tabiatga ongli munosabatni qaror toptirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishning muhim omili sifatida maydonga chiqadi.

Ekologik ta’lim va tarbiya shaxsning atrof-muhit haqidagi ilmiy bilimlarini tizimli rivojlantirish bilan birga, unda tabiatni asrashga yo‘naltirilgan axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida ekologik muammolarning transchegaraviy xarakter kasb etishi ekologik ta’lim va tarbiyaning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu sababli ekologik ta’limni uzluksiz ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish, uni fanlararo yondashuv asosida boyitish hamda tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi [1]. Mazkur maqolada ekologik ta’lim va tarbiyaning ijtimoiy-ma’naviy mohiyati ilmiy asosda yoritilib, uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ekologik ta’lim va tarbiya masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida yetakchi yo‘nalishlardan biri sifatida keng yoritilgan. Xususan, xorijiy ilmiy adabiyotlarda ekologik ta’lim shaxsning ekologik ongini shakllantirish, atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni qaror toptirish hamda ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi [3;4-b.]. J.Palmer hamda D.Tilbury tadqiqotlarida ekologik ta’limning fanlararo xarakteri va uning ijtimoiy hayot bilan integratsiyalashuvi barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim sharti ekanligi ta’kidlanadi. Ushbu yondashuvlarda ekologik ta’lim faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, shaxsning kundalik xulq-atvori va hayotiy qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi tarbiyaviy mexanizm sifatida qaraladi.

Shuningdek, J.Fien va E.Leff tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ekologik muammolarning chuqurlashuvi sharoitida ta’lim tizimining axloqiy va ijtimoiy funksiyalarini kuchaytirish zarurligi asoslab beriladi [5;6-b.]. Tadqiqotchilar ekologik tarbiya shaxsda axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. Mazkur qarashlar ekologik ta’limning uzluksizligi, fanlararo yondashuvi hamda ijtimoiy institutlar bilan integratsiyasini ekologik barqarorlikni ta’-minlashning muhim omili sifatida belgilaydi [4].

Milliy ilmiy adabiyotlarda esa ekologik ta’lim va tarbiya masalalari ko‘proq ijtimoiy-ma’naviy rivojlanish, milliy qadriyatlar va fuqarolik mas’uliyati bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi [7;8-b.]. P.S. Sultonov hamda S.S.Buriyev va hammualliflar tadqiqotlarida ekologik tarbiyaning yosh avlodda tabiatga hurmat, ekologik intizom va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi [7]. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlar tahlili ekologik ta’lim va tarbiya masalalarini kompleks yondashuv asosida o‘rganish, ularning ijtimoiy-ma’naviy jihatlarini chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi [8].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqot ekologik ta’lim va tarbiyani ta-komillashtirishning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda ijtimoiy-gumanitar fanlarga xos umumilmiy va maxsus tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanil-

di. Xususan, tahlil va sintez metodlari orqali ekologik ta’lim va tarbiya tushunchalarining nazariy mazmuni ochib berildi, induksiya va deduksiya metodlari yordamida ekologik jarayonlar va ijtimoiy-ma’naviy omillar o‘rtasidagi o‘z-aro bog‘liqlik aniqlashtirildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida ekologik ta’lim va tarbiya jamiyatning barqaror rivojlanish tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqildi hamda ularning ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida taqqoshlash va umumlashtirish metodlari orqali xorijiy va milliy ilmiy yondashuvlar solishtirildi, ekologik ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishga doir nazariy xulosalar ishlab chiqildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar kontent tahlili asosida o‘rganilib, ekologik ta’limning ijtimoiy-ma’naviy jihatlari baholandi. Tadqiqot natijalarini asoslashda mantiqiy tahlil, ilmiy xulosalash va tavsiyalar ishlab chiqish metodlaridan foydalanildi, bu esa mavzuning dolzarbligini va olingan xulosalarning ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish ijtimoiy-ma’naviy rivojlanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ekologik bilimlar shaxsda ekologik ongning shakllanishi uchun zarur asos bo‘lsa-da, barqaror ekologik xulq-atvorni qaror toptirishda ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyat hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ekologik ta’lim jarayonida tarbiyaviy komponentning yetarli darajada integratsiyalashmaganligi ekologik muammolarga nisbatan formal munosabat shakllanishiga olib kelishi mumkin [9]. Shu sababli ekologik ta’limni faqat axborot berishga qaratilgan jarayon sifatida emas, balki shaxsning dunyoqarashi va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiruvchi kompleks tizim sifatida tashkil etish zarurligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari ekologik ta’lim va tarbiyani uzluksiz ta’lim tizimi doirasida amalga oshirish hamda fanlararo yondashuvni kuchaytirish uning samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi. Jahon tajribasi va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida aniqlanishicha, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan, ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik ishtirokiga asoslangan ekologik ta’lim shakllari shaxsda ekologik mas’uliyat va barqaror xulq-atvorni mustahkamlaydi [10]. Olingan natijalar ekologik ta’lim va tarbiyani takomillashtirishda ijtimoiy-ma’naviy yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor bo‘lishi lozimligini ko‘rsatib, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy va amaliy faoliyatni rivojlantirish zaruratini asoslab beradi.

Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari ekologik ta’lim va tarbiyani takomillashtirish jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy rivojlanishida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Tahlillar ekologik muammolarni hal etishda faqat texnik yoki iqtisodiy yondashuvlar yetarli emasligini, balki shaxsda ekologik ong, mas’uliyat va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ekologik ta’lim va tarbiya shaxsning tabiatga bo‘lgan munosabatini ongli, axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatli asosda shakllantirib, barqaror ekologik xulq-atvorni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot ekologik ta’lim va tarbiyani uzluksiz ta’lim tizimi doirasida, fanlararo yondashuv asosida va ijtimoiy-ma’naviy mazmun bilan boyitilgan holda tashkil etish uning samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Jahon tajribasi tahlili ekologik ta’limda amaliy faoliyat, jamoatchilik ishtiroki va ijtimoiy hamkor-likka asoslangan yondashuvlar ustuvor ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois ekologik ta’lim va tarbiyani takomil-lashtirish jarayonida ma’naviy-axloqiy komponentni kuchaytirish, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida ekologik qadriyatlarni tizimli singdirish hamda jamiyatning turli ijtimoiy institutlari o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent, 2020.

(2). Одум Ю. Экология. Москва, “Мир”, 1986, 328 с.

(3). Tilbury D. Environmental education for sustainability. Journal of Environmental Education. 1995, vol. 27, № 2, p. 23–30.

(4). Palmer J.A. Environmental Education in the 21st Century. London, Routledge, 1998, 256 p.

(5). Fien J. Education for the Environment. Critical Curriculum Theorizing and Environmental Educa-tion. Geelong, Deakin University Press, 1993, 214 p.

(6). Leff E. Environmental Rationality. Re-thinking Sustainability. Mexico City, UNAM, 2004, 312 p.

(7). Sultonov P.S. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. Darslik, Toshkent, «Musiqa», 2007.

(8). Buriyev S.S., Maxkamova D.A., Sherimbetov V.X. *Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi.* O‘quv qo‘llanma, Toshkent, «Noshir», 2019.

(9). Omonov B.N. Problems and Consequences of Water Deficiency in Central Asia. Turkish Online of Qualitative Inquiry (TOJQI). Volume 12, July 2021, p. 2541–2545.

(10). Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta’siri. T., “Voris”, 2021, 136-bet.

Ubaydova Vazira Erkinovna (Buxoro davlat Texnika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); amikomjon@mail.ru)

TA’LIM TIZIMIDA SUFIY PEDAGOGIKANING TUTGAN O‘RNI VA TARIXI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim tizimida sufiy pedagogikasining shakllanishi, uning tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy ta’lim jarayoniga ko‘rsatgan ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tasavvuf oqimlari, xususan, Naqshbandiya, Yassaviya, Kubraviya va Qodiriya tariqatlari tomonidan shakllantirilgan tarbiyaviy tamoyillar sharqona ta’lim va tarbiya tizimida muhim o‘rin tutgani ilmiy dalillar asosida yoritilgan. Maqolada sufiy pedagogikasining ma’naviy poklanish, komillikka intilish, ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy-ruhiy tarbiya, murabbiy-murid munosabatlari, shaxsning ichki imkoniyatlarini ochish kabi tamoyillari bugungi zamonaviy pedagogik jarayon bilan solishtiriladi. Tadqiqot natijalari sufiy pedagogikasining hozirgi ta’lim tizimi uchun metodik, ma’naviy va tarbiyaviy jihatdan asoslanadigan boy manba ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *sufiylik, tasavvuf, sufiy pedagogika, Naqshbandiya, Yassaviya, ma’naviy tarbiya, komillik, axloqshunoslik, pedagogik g‘oyalar, sharq ma’rifati.*

Убайдова Вазира Эркиновна (доцент Бухарского государственного технического университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD); amikomjon@mail.ru)

РОЛЬ И ИСТОРИЯ СУФИЙСКОЙ ПЕДАГОГИКИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически проанализированы формирование суфийской педагогики в системе образования, её исторические корни, этапы развития и влияние на современный образовательный процесс. Показано, что воспитательные принципы, сформированные суфийскими течениями, в частности, тарикатами Накшбандия, Ясавия, Кубравия и Кадирия, занимают важное место в восточной системе обучения и воспитания. В статье сопоставлены основные положения суфийской педагогики – духовное очищение, стремление к совершенству, социальная ответственность, нравственно-духовное воспитание, отношения «мураббий–мурид», раскрытие внутренних возможностей личности–с современными педагогическими подходами. Результаты исследования показывают, что суфийская педагогика является богатым методическим, духовным и воспитательным ресурсом для современной системы образования.*

Ключевые слова: *суфизм, тасаввуф, суфийская педагогика, Накшбандия, Ясавия, духовное воспитание, совершенствование, этика, педагогические идеи, восточное просвещение.*

Ubaydova Vazira Erkinovna (Associate Professor, Department of Bukhara State Technical University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences; amikomjon@mail.ru)

THE ROLE AND HISTORY OF SUFI PEDAGOGY IN THE EDUCATION SYSTEM

Annotation. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the formation of Sufi pedagogy within the education system, exploring its historical roots, stages of development, and its influence on contemporary educational processes. The study highlights that the educational principles shaped by Sufi orders–particularly Naqshbandiyya, Yasawiyya, Kubrawiyya, and Qadiriyya–hold a significant place in the traditional Eastern system of education and upbringing. The core concepts of Sufi pedagogy, such as spiritual purification, pursuit of perfection, social responsibility, moral and spiritual education, murabbi-murid relations, and the development of an individual’s inner potential, are compared with modern pedagogical approaches. The findings demonstrate that Sufi pedagogy serves as a rich methodological, spiritual, and educational resource for today’s education system.*

Keywords: *Sufism, tasawwuf, Sufi pedagogy, Naqshbandiyya, Yasawiyya, spiritual education, perfection, ethics, pedagogical ideas, Eastern enlightenment.*

Kirish. Sharq ma’naviyati va ilm-fani ming yillar davomida inson kamoloti, axloqiy tarbiya va komil shaxsni voyaga yetkazish masalasiga alohida e’tibor qaratib kelgan. Ayniqsa, tasavvuf maktablari nafaqat diniy-falsafiy yo‘nalish sifatida, balki axloqiy tarbiya tizimining asosiy manbalaridan biri sifatida shakllangan. Sufiy pedagogikasi Sharqning boy ma’naviy merosi, qadimiy ilmiy maktablari, mutasavvuflarning axloqiy-falsafiy qarashlari asosida rivojlangan bo‘lib, u pedagogik tafakkurning yuksalishida muhim rol o‘ynagan. Zamonaviy ta’lim tizimida ta’limning tarbiyaviy komponentini kuchaytirish, shaxsning ma’naviy-ruhiy kamolotiga e’tibor qaratish, ertangi avlodni komil inson sifatida tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ana shu jarayonda sufiy pedagogikasining teran g‘oyalarini ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish aktual ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonlari insonning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ma’naviy yetukligini ta’minlashni ham talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek xalqi tarixida muhim o‘rin tutgan tasavvufiy ta’limot va uning pedagogik qarashlarini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tasavvuf nafaqat diniy-falsafiy yo‘nalish, balki insonni komillikka yetaklaydigan tarbiyaviy maktab sifatida shakllangan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Baho-

uddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar sufiy pedagogikasining asoschilaridan hisoblanadi [1;220–222-b.].

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi ta’lim tizimida yoshlar ongida milliy qadriyatlarni mustahkamlash, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, axloqiy poklik kabi fazilatlarni kamol toptirishda sufiy pedagogikasining tarbiyaviy qudratini o‘rganish va uni pedagogik jarayonga integratsiya qilish zarurati oshib bormoqda. Ushbu maqolada sufiy pedagogikasining tarixi, tamoyillari, asosiy manbalari va zamonaviy ta’lim mazmunidagi o‘rni tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sufiy pedagogikasining ta’lim tizimidagi o‘rnini aniqlashda Sharq mutafakkirlarining merosi, tasavvuf tarixiga oid risolalar, zamonaviy pedagogik adabiyotlar va ma’naviy tarbiya nazariyalarining o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy-uslubiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, tasavvuf faqat diniy-falsafiy yo‘nalish emas, balki mukammal tarbiyaviy tizim sifatida ham shakllangan [2;39–45-b.].

Sharq mutafakkirlari merosida pedagogik qarashlar. Eng qadimgi manbalardan biri bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida axloqiy tarbiya, davlat boshqaruvi va komil inson fazilatlari keng yoritilgan bo‘lib, muallif insonning kamolga yetishi uchun “adolat”, “aqil”, “aql-idrok” kabi tushunchalarni markaziy o‘ringa qo‘yadi [3;129–132-b.]. Tadqiqotchilar fikricha, ushbu asar o‘rta asrlar Sharqidagi pedagogik fikr taraqqiyotining yetuk namunasi sifatida baholanadi.

Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”ida esa ruhiy poklanish, nafs bilan kurashish, sabr, tavozu’, halollik kabi fazilatlarning tarbiyadagi ahamiyati ta’kidlanadi. Yassaviy maktabiga oid ilmiy izlanishlar A. Yuldashev, T.Ko‘chqarovning g‘oyalari yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda muhim metodik manba bo‘la olishini ko‘rsatadi.

Bahouddin Naqshbandning “Xilvat dar anjuman”, “Yodkard”, “Nafsni poklash” haqidagi risolalari ta’limda ichki intizom, mehnatsevarlik, ijtimoiy mas’uliyatga urg‘u bergan. Naqshbandiya tariqatini o‘rgangan tadqiqotchilar A.Zunnunov, J.Homidovning pedagogik qarashlari zamonaviy motivatsion yondashuvlar bilan uyg‘un ekanini qayd etadilar [4;35–40-b.].

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Hayrat ul-abror” kabi asarlarida komil inson tarbiyasi, ustoz-shogird munosabatlari, ilmlilik, mehr-oqibat va axloqiy poklik g‘oyalari chuqur falsafiy asoslangan. Navoiy merosini pedagogik nuqtai nazardan o‘rgangan olimlar N.Komilov, A. Abdug‘afforovning asarlarida tamoman tarbiyaviy model mujassam ekanini ta’kidlaydilar.

Tasavvuf falsafasining shakllanishi, rivojlanishi va pedagogik mazmunini o‘rganuvchi asarlar [5;47–48-b.] shuni ko‘rsatadiki, sufiylikda inson kamoloti markaziy g‘oya bo‘lib, unga erishish yo‘lida tarbiya va o‘z-o‘zini nazorat qilish ilg‘or metod sifatida qaralgan. Zamonaviy sharqshunoslar – Annemari Shimmel, Reziuddin ibn Fazlulloh, K.Hermann, M.Smithlarning tadqiqotlarida tasavvufning umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy mohiyati ilmiy asosda ochib berilgan. Ularning fikricha, tasavvuf inson ruhiyatini tarbiyalashning eng qadimiy psixologik sistemalaridan biridir.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda sufiy merosning o‘rni. So‘nggi yillarda pedagogika, psixologiya va ma’naviyatshunoslik sohalarida sufiy pedagogikasining o‘rni bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

•S.Karimov, O.Hasanovlar ma’naviy tarbiya sistemasida sufiy tamoyillarining samaradorligini tahlil qilgan;

•R Jo‘rayev komil inson tarbiyasida tasavvufning konseptual rolini o‘rgangan;

•Sh.To‘xtayev esa sufiylikning zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unligini ilmiy asoslagan.

Bu tadqiqotlarda sufiy pedagogikasining zamonaviy ta’limga integratsiya qilish imkoniyatlari, ya’ni, axloqiy tarbiya, ijtimoiy faollik, ma’naviy immunitetni shakllantirish jig‘oyat muhimligi ta’kidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot quyidagi ilmiy usullar asosida olib borildi:

Tarixiy-tahliliy usul – sufiylik maktablarining shakllanishi, rivojlanishi va ta’limdagi ilmiy merosini o‘rganish.

Qiyosiy-pedagogik usul – sufiy pedagogik tamoyillarini zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan qiyoslash.

Kontent-tahlil – sufiy allomalar asarlaridan pedagogik g‘oyalar ajratib olish.

Empirik kuzatuv va so‘rovnoma metodi – ta’lim muassasalarida ma’naviy tarbiya jarayonining holatini o‘rganish.

Pedagogik modellashtirish – sufiy pedagogik yondashuvlarini o‘quv jarayoniga moslashtirish modeli yaratish.

Tadqiqot materiali sifatida tasavvuf ahli – Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Abdulla Ansoriy, Najmiddin Kubro kabi allomalar asarlari hamda zamonaviy pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Sufiy pedagogikasi islom falsafasi va ma'naviy ta'limotlari asosida shakllangan bo'lib, uning ildizlari VIII–IX asrlarga borib taqaladi. Dastlab, sufiylik tarkidunyochilik, ruhiy poklanish, nafsni tiyish g'oyalari asosida rivojlangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan u keng qamrovli axloqiy, falsafiy va pedagogik tizim sifatida shakllandi. Tasavvufning bosh maqsadi – insonni ruhiy kamolotga, ma'naviy yetuklikka erishishga yo'naltirishdir. Sufiy pedagogikasining shakllanishiga Qur'on va Hadisda bayon qilingan axloqiy me'yorlar, mashhur mutasavvuflarning ta'limotlari, tariqatlarning tarbiyaviy tajribasi hamda axloqiy-irfoniy risolalar asos bo'lgan.

Erta sufiy maktablarda shakllangan tarbiyaviy tamoyillar sufiy pedagogikasining poydevorini tashkil etdi. Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Bayazid Bistomiy, Junayd Bag'dodiy kabi mutasavvuflar tomonidan ilgari surilgan nafsni tiyish, halollik, poklik, sabr, tavozu, xizmat orqali komillikka erishish, murabbiy–murid munosabatlari kabi g'oyalar, keyinchalik, sufiy tarbiya maktabining nazariy-metodologik asosiga aylandi [6;134–135-b.]. Ushbu yondashuvlarda shaxsning ichki dunyosini tarbiyalash, o'zini nazorat qilish, axloqiy poklanish kabi holatlar markaziy o'rin egallagan.

Markaziy Osiyo hududida tasavvufning o'ziga xos pedagogik maktablari shakllanib, ular mintaqaning ma'naviy-ma'rifiy rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Ahmad Yassaviy tomonidan asos solingan Yassaviya tariqati Turkiston mintaqasida tasavvufni milliy ruh bilan uyg'unlashtirdi. "Hikmatlar" asarida halol mehnat, odob-axloq, murshidga hurmat, muridning burchlari, sabr, diyonat kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Yassaviya tariqatida tarbiya jarayoni amaliy mehnat, shaxsiy namuna va ko'ngil pokligi orqali olib borilgan bo'lib, bu yondashuv bugungi zamonaviy pedagogikadagi faol o'qitish metodlari va tajribaga asoslangan ta'lim bilan mos keladi.

Naqshbandiya tariqati esa sufiylikning pedagogik mazmunini yana-da sayqal berdi. Bahouddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan "Dil ba yor-u, dast ba kor" tamoyili ta'lim va tarbiyada ruhiy uyg'oqlik bilan birga amaliy mehnatning ham muhim ekanini ta'kidlaydi [7;50–55-b.]. Naqshbandiylar ta'limotida shaxsning ijtimoiy mas'uliyati, jamiyat hayotidagi faolligi, hushyorlik (hush dar dam), intizom, halollik, qalb pokligi kabi fazilatlar tarbiya markaziga qo'yilgan. Murabbiy va murid o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va mas'uliyat Naqshbandiya maktabining asosiy pedagogik munosabatlarini tashkil etadi.

Najmiddin Kubro boshchiligidagi Kubraviya tariqati tasavvufda psixologik yondashuvni rivojlantirdi. Kubro ta'limotida insonning ichki olamini tahlil qilish, ruhiy muvozanat, o'zini anglash jarayoni, o'z-o'zini tarbiyalash mexanizmlari chuqur o'rganilgan. Bu qarashlar hozirgi pedagogik psixologiya – xulq-atvor nazariyalari, emotsional intellekt, refleksiya jarayonlari bilan uyg'unlik kasb etadi. Shuningdek, Qodiriya tariqati ham tarbiyaviy meros qoldirgan. Abdulqodir Giloniy halollik, diyonat, sabr, saxovat, kamtarlik kabi fazilatlarni shaxs tarbiyasining asosiy elementi sifatida ko'rsatadi. Ushbu sifatlarga erishish yo'lida muridning muntazam o'zini nazorat qilishi, irodaviy chiniqishi, murabbiy tavsiyalariga amal qilishi talab etilgan.

Sufiy pedagogikasining umumiy mazmuni komil inson konsepsiyasiga asoslanadi. Komil inson aqliy, ruhiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxsdir. U bilimli, ma'rifatli, mas'uliyatli, bag'rikeng, halol, sabrli bo'lishi lozim. Bu talqin zamonaviy ta'limdagi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy rivojlanish, ijtimoiy-emotsional o'quv kabi yondashuvlar bilan mos keladi. Shuningdek, sufiy pedagogikasida axloqiy-ruhiy tarbiya yetakchi o'rinda turadi. O'quvchi o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish, boshqalarga yordam berish, yaxshilik qilish, pokiza bo'lish, odoblilik kabi fazilatlarni egallashi shaxs kamoloti uchun zarur deb qaraladi.

Murabbiy–murid munosabatlari sufiy pedagogikasining eng muhim unsurlaridan biridir. Murabbiy nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsiy namuna bo'lgan tarbiyachi sifatida qaraladi. Shuning uchun ustozning shaxsiy fazilatlari, odobi, amal qilishi muridning tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogikada ustoz-shogird maktabi, mentorlik tizimi sifatida davom etmoqda. Sufiylikda o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni ham chuqur rivojlangan bo'lib, inson o'z nafsini yengish, ichki intizomni shakllantirish, ruhiy uyg'oqlikka erishish orqali kamol topadi. Mehnat tarbiyasi ham murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Sufiylikda mehnat – halollik, sabr, chidamlilik, mas'uliyat, poklikni tarbiyalash vositasi sifatida qaralgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida sufiy pedagogikasining o'rni tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivoji, ruhiy salomatligi, ijtimoiy mas'uliyati, bag'rikengligi, insoniy fazilatlari muhim o'rin tutadi. Sufiy pedagogikasidagi halollik, mehr-shafqat, sabr, diyonat, ijtimoiy mas'uliyat, o'zini anglash, hushyorlik kabi tamoyillar zamonaviy tarbiyaviy jarayonni boyitadi. Shuningdek, sufiylikdagi ruhiy muvozanat, ichki osoyishtalikni topish, tafakkurni boshqarish, stressni yengish kabi psixologik texnikalar bugungi ta'limda o'quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlash uchun juda muhim. Ustoz-shogird an'anasini qayta tiklash, mentorlik tizimini rivojlantirish, o'qituvchining shaxsiy namu-

nasiga asoslangan tarbiya metodlarini kuchaytirish ham sufiy pedagogikasining zamonaviy talqinini tashkil etadi.

Sufiy merosni dars jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari ham keng: ma'naviy-axloqiy suhbatlar, hikmatlardan foydalanish, ruhiy tarbiya mashg'ulotlari, mulohazaga asoslangan bahs-munozaralar, mas'uliyatni oshirishga qaratilgan topshiriqlar, shaxsiy rivojlanishga oid vazifalar – bularning barchasi o'quvchilarda komillik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, sufiy pedagogikasi Sharq ta'limining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning tamoyillari bugungi ta'lim tizimi uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Tasavvufning ma'naviy-axloqiy g'oyalari, komillikka intilish konsepsiyasi, murabbiy-murid tizimi, o'z-o'zini tarbiyalash tamoyillari zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan pedagogik qadriyatlardir.

Sufiy pedagogikasining mazmuni: yoshlarning ma'naviy-ruhiy yetukligini oshirish; tarbiyaviy ishlarning samaradorligini kuchaytirish; shaxsni komillikka yetaklash; ta'lim jarayonini ma'naviy boyitish kabi yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega. Shu bois sufiy pedagogikasini chuqur ilmiy asosda o'rganish va uni ta'lim tizimiga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ubaydova V.E. Bahouddin Naqshband hunarmandlar piri va halollik piri timsoli. Yengil sanoatda fan-ta'lim va ishlab chiqarishning innovasion yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 1-tom, Buxoro, 21-aprel 2021, 220–222-betlar.

(2). Navro'zova G.N. Naqshbandiya–kamolot yo'li. Buxoro, «Fan» nashriyoti, 2007, 189-bet.

(3). Xurramova Mohidil Baxtiyorovna. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishidagi o'ziga xos jihatlari. Research Focus, 2024, № 11, 129–132-betlar.

(4). Zaripova G.K. Milliy merosimizdagi pedagogik texnologiyaga oid g'oyalardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim. Toshkent, 2005, 1-son, 35–40-betlar.

(5). Urazova M.B. Bo'lajak kasb ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. Pedagogika fan.bo'yicha doktorlik (DSc) diss. avtoreferati, T., 2015, 78-bet.

(6). Ubaydova V.E. Yengil sanoat yo'nalishdagi talabalarda interfaol metodlardan foydalanib Naqshbandiya ta'limotidagi halollik tushunchalarning singdirish. "Fan va jamiyat" ilmiy-uslubiy jurnali, Nukus, №2, 2022,134–136-betlar .

(7). Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligining uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ....diss., T., 2012, 264-bet.

Tursunboyeva Mavjudaxon Shukurillo qizi (Andijon davlat Pedagogika instituti "Amaliy xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi; shukurovnamavjuda@gmail.com)

TIL O'QITISHDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA "GOOGLE CLASSROOM"NING O'RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolaning maqsadi til o'qitish jarayonida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda Google Classroom platformasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitish jarayoni, predmeti sifatida esa raqamli ta'lim muhiti orqali kreativ kompetensiyani shakllantirish metodlari belgilandi. Tadqiqot jarayonida tahlil, taqqoslash, pedagogik kuzatuv hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Google Classroom platformasidan maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatni faollashtiradi hamda kommunikativ kompetensiyaning samarali shakllanishiga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *kreativ qobiliyat, chet tilini o'qitish, raqamli platforma, Google Classroom, kommunikativ kompetensiya, innovatsion metodlar, interaktiv topshiriqlar, pedagogik tajriba.*

Турсунбоева Мавжудахон Шукурилло кизи (Андижанский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры практических иностранных языков, независимый исследователь; E-mail: shukurovnamavjuda@gmail.com)

РОЛЬ GOOGLE CLASSROOM В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКУ

Аннотация. *Целью данной статьи является определение педагогических возможностей платформы Google Classroom в развитии креативных способностей учащихся в процессе обучения иностранному языку. Объектом исследования выступает процесс обучения иностранному языку в общеобразовательной школе, предметом – методы формирования креативной компетенции в условиях цифровой образовательной среды. В ходе исследования применялись методы анализа, сопоставления, педагогического наблюдения и опытно-экспериментальной работы. Результаты показа-*

ли, что целенаправленное и систематическое использование Google Classroom способствует развитию творческого мышления учащихся, активизации самостоятельной и групповой деятельности, а также формированию коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: *креативные способности, обучение иностранному языку, цифровая платформа, Google Classroom, коммуникативная компетенция, инновационные методы, интерактивные задания.*

Tursunboyeva Mavjudaxon Shukurillo qizi (Andijan State Pedagogical Institute Lecturer, Department of Practical Foreign Languages Independent Researcher; E-mail: shukurovnamavjuda@gmail.com)

THE ROLE OF GOOGLE CLASSROOM IN DEVELOPING CREATIVE ABILITIES IN LANGUAGE TEACHING

Annotation. *The purpose of this article is to identify the pedagogical potential of Google Classroom in developing students' creative abilities in foreign language teaching. The object of the research is the process of foreign language teaching in secondary schools, while the subject is the methods of forming creative competence within a digital learning environment. The study employed analysis, comparison, pedagogical observation, and experimental methods. The findings demonstrate that the systematic and purposeful use of Google Classroom enhances students' creative thinking, promotes independent and collaborative learning, and contributes to the effective development of communicative competence.*

Keywords: *creative abilities, foreign language teaching, digital platform, Google Classroom, communicative competence, innovative methods, interactive tasks, experimental research.*

Kirish. Til o‘qitishda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Kreativlik nazariyasining ilmiy asoslari XX asr o‘rtalarida shakllangan bo‘lib, uni tadqiq etishda J.P Guilford divergent tafakkur nazariyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, kreativlik muammoga turli yo‘llar bilan yechim topish qobiliyati bilan belgilanadi. Shuningdek, E.Torrance kreativ fikrlashni rivojlantirish mezonlarini ishlab chiqqan va ta’lim jarayonida ijodiy topshiriqlarning ahamiyatini asoslab bergan. Til o‘qitish metodikasida kommunikativ yondashuv asoschilari – Dell Hymes hamda Michael Canale – kommunikativ kompetensiya tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, tilni real muloqot jarayonida o‘rganish zarurligini ta’kidlaganlar. Bu yondashuv o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi [1;369–370-b.].

Raqamli ta’lim muhiti va innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish masalalari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. UNESCO hisobotlarida raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning kreativ hamda tanqidiy fikrlashini rivojlantirish omili sifatida qayd etilgan. Google Classroom platformasi esa Google tomonidan ishlab chiqilgan ta’limiy muhit bo‘lib, unda topshiriqlarni boshqarish, interaktiv materiallar joylashtirish, hamkorlikda ishlash va tezkor teskari aloqa berish imkoniyatlari mavjud. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu platforma loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatli topshiriqlar va kreativ yozma ishlarda samarali vosita hisoblanadi. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham raqamli ta’lim texnologiyalarini chet tilini o‘qitishda qo‘llash masalalari o‘rganilgan bo‘lib, ularning ishlarida interaktiv metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlangan [2;179–180-b.].

Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish va raqamli platformalarni qo‘llash o‘zaro uzviy bog‘liq jarayon bo‘lib, Google Classroom bu jarayonda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kreativlik va raqamli ta’lim muhiti. Til ta’limida kreativ qobiliyatlar o‘quvchining mustaqil fikrlashi, muammo yechimi, nutqiy erkinligi va ijodiy ifoda vositalaridan foydalanishi bilan belgilanadi. Raqamli platformalar bu jarayonni qo‘llab-quvvatlashi yoki noto‘g‘ri tashkil etilganda cheklashi mumkin. Google Classroom mazkur jarayonda vositachi muhit sifatida ishlaydi. Kreativlikni rivojlantirish ijtimoiy hamkorlik va faol ishtirok bilan bog‘liqligini Lev Vygotsky ta’kidlaydi. Google Classroom’ning ta’siri aynan hamkorlik va mustaqillik qanday tashkil etilganiga bog‘liq. Raqamli ta’lim muhiti kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Interaktiv platformalar, multimediya vositalari va onlayn hamkorlik muhiti o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga, muammoni turli nuqtayi nazardan tahlil qilishiga va innovatsion yechimlar ishlab chiqishiga sharoit yaratadi [3;269–293-b.]. Kreativlikni rivojlantirishda raqamli ta’lim muhiti o‘qituvchining metodik yondashuviga bevosita bog‘liq. Agar raqamli texnologiyalar faqat prezentatsiya yoki nazorat vositasi sifatida qo‘llansa, ularning samaradorligi cheklangan bo‘ladi. Aksincha, loyiha asosidagi ta’lim (project-based learning), kollaborativ topshiriqlar va reflektiv faoliyat bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanilganda, raqamli muhit o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini kuchaytiradi. Shu bois metodik yondashuv innovatsion, interaktiv va kompetensiyaga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Metodik nuqtayi nazardan, raqamli muhit faqat texnologik vosita emas, balki kreativ faoliyatni tashkil etuvchi pedagogik maydon sifatida qaralishi lozim.

Shuning uchun topshiriqlar muammoli, tadqiqotga yo‘naltirilgan va ko‘p variantli yechimlarni talab qiluvchi shaklda ishlab chiqilishi zarur. Bu esa o‘quvchilarda kreativ tafakkur, raqamli kompetensiya va innovatsion fikrlashni integrativ ravishda shakllantiradi. Raqamli ta’lim muhiti va kreativ qobiliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik pedagogik yondashuvning sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Agar raqamli texnologiyalar faqat axborotni yetkazish vositasi sifatida qo‘llansa, kreativ rivojlanish cheklanadi. Aksincha, loyiha asosidagi ta’lim, kollaborativ onlayn faoliyat va reflektiv tahlil bilan uyg‘unlashtirilgan raqamli muhit o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini faollashtiradi. Shu bois metodika moslashuvchan, interaktiv va kompetensiyaga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Nazorat va baholash jarayonida esa nafaqat yakuniy natija, balki ijodiy jarayonning o‘zi ham inobatga olinishi lozim. Natijada raqamli ta’lim muhiti kreativ qobiliyatni tizimli va barqaror rivojlantirish vositasiga aylanadi [4;1–47-b.].

Tahlil va natijalar. Ijobiy jihatlar: kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari. Mustaqil va ijodiy topshiriqlarni tashkil etish. Google Classroom’da ochiq turdagi topshiriqlar (esse, loyiha, taqdimot, videoizoh) joylashtirilishi o‘quvchining ijodiy fikrlashini faollashtiradi. Masalan: O‘quvchilarga “Bir mavzuni 3 xil uslubda (rasmiy, badiiy, so‘zlashuv) yoritish” topshirig‘i beriladi. Har bir o‘quvchi o‘z uslubini tanlaydi. Bu yondashuv kreativlikni o‘rganishda interaktiv muhit muhimligini qayd etgan James Paul Gee qarashlariga mos keladi. Ta’lim jarayonida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy ijobiy jihati shundaki, u o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va innovatsion yechim topish kompetensiyalarini shakllantiradi. Mustaqil va ijodiy topshiriqlarni tizimli ravishda tashkil etish o‘quvchilarni tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol bilim yaratuvchi subyektga aylantiradi. Metodik nuqtai nazardan, bunday topshiriqlar ochiq javobli, muammoli vaziyatga asoslangan va bir nechta yechim variantlarini nazarda tutuvchi bo‘lishi lozim. Bu yondashuv o‘quvchilarda reflektiv tafakkur va kreativ yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mustaqil va ijodiy topshiriqlarni samarali tashkil etish ta’limning kompetensiyaviy modeliga mos keladi va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvni ta’minlaydi. Bunda o‘quvchilarga tanlov erkinligi, muammoli vazifalar, loyiha va tadqiqot elementlarini o‘z ichiga olgan faoliyat turlari taklif etilishi muhimdir. Mazkur jarayonda o‘qituvchi fasilitator va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi, natijada ta’lim muhiti hamkorlikka asoslangan va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi xarakter kasb etadi. Shu tariqa, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishning muhim omiliga aylanadi [5;56-b.].

Xulosa va takliflar. Talabalar bir-birining yozma ishga izoh qoldiradi va muqobil variantlar taklif qiladi. Bu holat kommunikativ va kreativ kompetensiya integratsiyasini asoslagan Michael Canale modeliga mos keladi. Hamkorlik va ijodiy muloqot ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omil hisoblanadi. Hamkorlikka asoslangan faoliyat o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuvchanlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ijodiy muloqot esa fikrlar almashinuvi jarayonida yangi g‘oya va innovatsion yondashuvlarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Metodik nuqtayi nazardan, guruhli ishlar, munozara, loyiha asosidagi topshiriqlar va reflektiv suhbatlar hamkorlikni tizimli ravishda rivojlantirish vositasi sifatida qo‘llanilishi lozim. Natijada ta’lim jarayoni subyekt-subyekt munosabatiga asoslangan faol hamkorlik muhitiga aylanadi. Hamkorlik va ijodiy muloqotni rivojlantirish o‘qituvchining metodik strategiyasiga bevosita bog‘liqdir. Agar ta’lim jarayoni biryoqlama axborot uzatishga asoslangan bo‘lsa, ijodiy muloqot cheklanadi. Aksincha, dialogik yondashuv, interaktiv metodlar va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan metodika ochiqlik, o‘zaro hurmat va faol tinglash tamoyillariga asoslanishi zarur. Bu esa ta’lim jarayonida kreativ va samarali kommunikativ muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Vizual va multimodal ijod. Google Classroom Google Docs, Slides, video va audio fayllar bilan ishlash imkonini berib, kreativ ifodaning turli shakllarini qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, o‘quvchi she’rni yozma matn emas, balki audio o‘qish yoki vizual slayd ko‘rinishida topshiradi. Multimodal ijod tilni faqat lingvistik emas, balki diskursiv darajada o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Vizual va multimodal ijod zamonaviy ta’lim jarayonida axborotni ko‘p kanalli idrok etish va ifodalash imkonini beruvchi muhim pedagogik yo‘nalish hisoblanadi. Matn, tasvir, audio, video va grafik elementlarning integratsiyasi o‘quvchilarning kreativ tafakkurini faollashtiradi hamda murakkab tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Metodik jihatdan vizual va multimodal vositalar maqsadga yo‘naltirilgan, mazmun bilan uzviy bog‘langan hamda o‘quv natijalariga xizmat qiladigan tarzda qo‘llanilishi zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarda nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni ijodiy qayta ishlab, turli shakllarda taqdim etish kompetensiyasini ham shakllantiradi. Vizual va multimodal ijodni rivojlantirish samaradorligi o‘qituvchining metodik dizayniga bog‘liq. Agar multimodal vositalar faqat ko‘rgazmalilik uchun ishlatilsa, ularning pedagogik ta’siri cheklanadi. Aksincha, loyiha asosidagi topshiriqlar, raqamli hikoya (digital storytelling), infografika yaratish, videotaqdimot tayyorlash kabi faoliyatlar orqali o‘quvchilar ijodiy fikrlash, media savodxonlik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Shu

bois metodik yondashuv integrativ, interaktiv va kompetensiyaviy tamoyillarga asoslangan bo‘lishi lozim. Natijada vizual va multimodal ijod ta’lim jarayonida innovatsion va samarali o‘quv muhitini shakllantiradi. Google Classroom til o‘qitishda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda o‘z-o‘zidan ta’sir ko‘rsatuvchi texnologik vosita emas, balki pedagogik yondashuvga bog‘liq holda samaradorlik kasb etuvchi didaktik muhit hisoblanadi [7;223–224-b.]. Platformaning kreativlikka ta’siri uning texnik imkoniyatlarida emas, balki mazkur imkoniyatlar qanday metodik maqsadlar asosida safarbar etilishida namoyon bo‘ladi. Til ta’limida kreativlik o‘quvchining tayyor bilimlarni qabul qilishi bilan emas, balki til orqali mustaqil fikrlashi, muammoni turlicha talqin qilishi va o‘z nutqiy pozitsiyasini erkin ifodalashi bilan belgilanadi. Google Classroom ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega, chunki u ochiq turdagi topshiriqlar, hamkorlikka asoslangan faoliyat va reflektiv ishlash shakllarini tashkil etishga sharoit yaratadi. Bunday muhitda o‘quvchi tilni qoidalar majmui sifatida emas, balki ijodiy muloqot vositasi sifatida o‘zlashtira boshlaydi.

Tadqiqot Google Classroom’dan foydalanish jarayonida kreativlikni cheklovchi omillar ham mavjudligini ko‘rsatdi. Agar platforma faqat topshiriq yuklash, nazorat va baholash mexanizmi sifatida ishlatilsa, ijodiy faoliyat formalizmga aylanadi, o‘quvchi esa ijodkor subyekt emas, balki topshiriq ijrochisi darajasida qolib ketadi. Bunday holatda raqamli muhit kreativlikni rivojlantirmaydi, aksincha, uni standartlashtiradi va shablonlashtiradi. Google Classroom til o‘qitishda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun vosita, emas maqsad sifatida qaralishi lozim. Platformaning haqiqiy ta’limiy qiymati unda ijodiy topshiriqlarni loyihalash, erkin tanlov imkonini berish, muloqot va fikr almashuvni rag‘batlantirish hamda refleksiyani ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylantirish orqali yuzaga chiqadi. Aynan shu sharoitda Google Classroom o‘quvchining nutqiy faolligi va ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi barqaror pedagogik makonga aylanadi [8;309–310-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. New York, McGraw-Hill, 1967, 370 p.

(2). Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA. Personnel Press, 1974, 180 p.

(3). Hymes D. On Communicative Competence. Sociolinguistics. Harmondsworth. Penguin, 1972, p. 269–293.

(4). Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics. 1980, № 1, p. 1–47.

(5). UNESCO. Digital Education Transformation Report. Paris, 2021, 56 p.

(6). Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2017, 224-bet.

(7). Xodjayev B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2019, 310-bet.

Radjapova Feruza Abdullayevna (Urganch davlat Pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi;
e-mail: radjapovaferuza900@gmail.com; **ORCID:**0000-0002-2381-7000)

ADAPTIV SUN’IY INTELLEKT MUHITIDA PEDAGOGIK MADANIYAT TRANSFORMATSIYASI VA O‘QITUVCHINING KASBIY ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqola pedagogik madaniyatning transformatsiyasi hamda o‘qituvchining kasbiy roli adaptiv sun’iy intellekt muhitida qanday o‘zgarayotganini tahlil qiladi. O‘qituvchi algoritmik tavsiyalarni mexanik tarzda bajaruvchi emas, balki sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan ma’lumotlarni pedagogik maqsadlar, ta’limiy qadriyatlar va o‘quvchilarning individual ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtira oladigan mas’uliyatli mutaxassis sifatida talqin etiladi. Tadqiqot ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni zamonaviy pedagogik madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida asoslab beradi. Shuningdek, adaptiv sun’iy intellekt tizimlarida avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza va raqamli baholashning didaktik hamda rivojlantiruvchi salohiyatiga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik madaniyat, adaptiv sun’iy intellekt, raqamli ta’lim muhiti, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza, raqamli baholash, kasbiy kompetensiya, refleksiya.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В УСЛОВИЯХ АДАПТИВНОЙ СРЕДЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. *В данной статье рассматривается трансформация педагогической культуры и профессиональной роли учителя в условиях адаптивного искусственного интеллекта. Учитель концептуализируется не как механический исполнитель алгоритмических рекомендаций, а как ответственный профессионал, способный интегрировать данные, сформированные искусственным интеллектом, с педагогическими целями, образовательными ценностями и индивидуальными потребностями учащихся. Исследование обосновывает принятие решений на основе данных как ключевой компонент современной педагогической культуры. Особое внимание уделяется дидактическо-*

му и развивающему потенциалу автоматизированной обратной связи и цифровой оценки в адаптивных системах искусственного интеллекта.

Ключевые слова: *педагогическая культура, адаптивный искусственный интеллект, цифровая образовательная среда, принятие решений на основе данных, автоматизированная обратная связь, цифровая оценка, профессиональная компетенция, рефлексия.*

TRANSFORMATION OF PEDAGOGICAL CULTURE IN AN ADAPTIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE ENVIRONMENT AND THE PROFESSIONAL ROLE OF THE TEACHER

Annotation. *This article examines the transformation of pedagogical culture and the teacher's professional role within an adaptive artificial intelligence environment. The teacher is conceptualized not as a mechanical executor of algorithmic recommendations, but as a responsible professional capable of integrating AI-generated data with pedagogical goals, educational values, and students' individual needs. The study substantiates data-informed decision making as a key component of contemporary pedagogical culture. Particular attention is given to the didactic and developmental potential of automated feedback and digital assessment in adaptive AI systems.*

Keywords: *Pedagogical culture, adaptive artificial intelligence, digital learning environment, data-in-formed decision making, automated feedback, digital assessment, professional competence, reflection.*

Kirish. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt ta'lim samaradorligini oshirish, o'quv jarayonini moslashtirish va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish vositasi sifatida baholanadi[1]. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida "katta ma'lumotlar" (big data)dan foydalanish o'qituvchidan ma'lumotlarni pedagogik jihatdan talqin eta olish va ularga asoslanib qaror qabul qilish kompetensiyasini talab etadi[2]. Bu esa pedagogik madaniyat tushunchasini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur jarayon o'qituvchining kasbiy rolini tubdan qayta belgilaydi: u endilikda sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilayotgan tavsiyalarni ko'r-ko'rona yoki mexanik tarzda bajaruvchi ijrochi emas, balki ularni aniq pedagogik maqsadlar, o'quvchining psixologik holati, individual ehtiyojlari hamda tarbiyaviy vazifalar bilan uyg'unlashtira oladigan professional subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik madaniyat raqamli ta'lim muhitida yangi sifat bosqichiga ko'tarilib, ta'lim jarayonida yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni pedagogik jihatdan talqin etish va asosli qarorlar qabul qilishga xizmat qiluvchi ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-informed decision) qobiliyati bilan boyiydi.[3] Mazkur holat o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi an'anaviy rol modelini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Agar ilgari o'qituvchi, asosan, ta'lim mazmunini yetkazuvchi va belgilangan metodik ko'rsatmalarni bajaruvchi subyekt sifatida talqin etilgan bo'lsa, adaptiv sun'iy intellekt muhitida u pedagogik jarayonning faol boshqaruvchisi va muvofiqlashtiruvchisiga aylanadi. Sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilayotgan tavsiyalar, statistik ko'rsatkichlar va algoritmik xulosalar o'qituvchi uchun tayyor qaror emas, balki didaktik tahlilni talab etuvchi axborot manbai sifatida namoyon bo'ladi.

Bunday sharoitda o'qituvchining kasbiy mas'uliyati sezilarli darajada ortadi. Chunki sun'iy intellekt o'quvchining akademik natijalari va faoliyat dinamikasini qayd eta olgan holda, uning ruhiy holati, ijtimoiy tajribasi, qadriyatlari va individual rivojlanish ehtiyojlarini to'liq qamrab ololmaydi. Shu sababli o'qituvchi algoritmik tavsiyalarni tanqidiy tahlil qilib, ularni pedagogik maqsadlar, tarbiyaviy vazifalar hamda aniq didaktik vaziyat bilan solishtirgan holda qaror qabul qiladi. Bu jarayon pedagogik faoliyatni texnologik ijro dara-jasidan chiqarib, uni ongli va mas'uliyatli kasbiy faoliyat darajasiga ko'taradi[4].

Aynan shu nuqtada pedagogik madaniyatning yangi – raqamli talqini shakllanadi. Pedagogik madaniyat endilikda nafaqat metodlarni bilish yoki texnologik vositalardan foydalanish ko'nikmasi bilan, balki ta'lim jarayonida hosil bo'layotgan ma'lumotlarni anglash, tahlil qilish va ularni pedagogik ma'noda talqin etish qobiliyati bilan belgilanadi. O'qituvchi ma'lumotlar asosida qaror qabul qilar ekan, u raqamli ko'rsatkichlarni mutlaq haqiqat sifatida emas, balki pedagogik mulohaza va refleksiya uchun asos sifatida ko'radi. Shu jihatdan, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-informed decision) pedagogik madaniyatning zamonaviy tarkibiy qismiga aylanadi. Bu yondashuv o'qituvchidan raqamli ma'lumotlarni tanlash, ularning ishonchliligini baholash, turli manbalarni solishtirish va pedagogik vaziyatga mos xulosalar chiqarishni talab etadi. Bunda pedagogik qarorlar faqat algoritmik tavsiyalar bilan belgilanmaydi, balki o'qituvchining kasbiy tajribasi, pedagogik intuitsiyasi va tarbiyaviy mas'uliyati bilan uyg'unlashgan holda shakllanadi.

---

[1] Luckin et al., 2016; Holmes et al., 2019.

[2] Williamson, 2017; Mandinach & Gummer, 2016.

[3] https://www.researchgate.net/publication/395196621.

[4] Luckin, Rose, Holmes, Wayne, Griffiths, Mark, & Forcier, Laurie B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education.* London, Pearson.

Natijada adaptiv sun'iy intellekt muhitida pedagogik madaniyat o‘qituvchini texnologiyaga bo‘ysunuvchi ijrochi emas, balki texnologiyani pedagogik maqsadlarga xizmat qildira oladigan, tanqidiy fikrlovchi va mas'uliyatli mutaxassis sifatida shakllantiradi. Bu holat bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida pedagogik madaniyatni rivojlantirish masalasini faqat metodik kompetensiyalar bilan cheklab bo‘lmasligini, balki uni raqamli tahlil, refleksiya va tarbiyaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Adaptiv sun'iy intellekt tizimlarining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, ular topshiriqlar murakkablik darajasini avtomatik ravishda moslashtiradi hamda o‘quvchiga tezkor fikr-mulohaza (feedback) taqdim etish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, avtomatlashtirilgan feedback o‘quvchilarning bilish faolligini rag‘batlantirish va o‘quv jarayoniga faol jalb etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Biroq bunday feedbackning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi samarasi faqatgina u o‘qituvchining pedagogik izohi, muloqot madaniyati va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvi bilan uyg‘unlashtirilgan taqdirdagina to‘laqonli namoyon bo‘ladi.[1] Adaptiv sun'iy intellekt tizimlarining muhim didaktik ustunliklaridan biri topshiriqlar murakkablik darajasini avtomatik tarzda moslashtirish hamda o‘quvchiga tezkor fikr-mulohaza (feedback) taqdim etish imkoniyatidir. Bunday mexanizm ta'lim jarayonini statik modeldan chiqarib, uni dinamik va individual xususiyatlarga moslashuvchan tizimga aylantiradi. Natijada o‘quvchi o‘z bilim darajasi, o‘zlashtirish sur'ati va xatolar xarakteriga mos topshiriqlar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa uning bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan feedbackning didaktik ahamiyati faqat tezkorlik yoki aniqlik bilan belgilanmaydi. Ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan, feedback o‘quvchi faoliyatini yo‘naltiruvchi, unga o‘z xatolarini anglash va tuzatish imkonini beruvchi reflektiv vosita sifatida qaraladi. Agar feedback faqat raqamli ko‘rsatkich yoki qisqa texnik izoh ko‘rinishida taqdim etilsa, u o‘quvchining bilim olishi jarayoniga yetarli tarbiyaviy va motivatsion ta'sir ko‘rsata olmaydi. Shu sababli adaptiv sun'iy intellekt tomonidan beriladigan feedback pedagogik jarayonning yagona va mustaqil elementi sifatida emas, balki o‘qituvchi faoliyati bilan uzviy bog‘langan holda talqin etilishi zarur.

Mazkur jarayonda o‘qituvchining pedagogik izohi va muloqot madaniyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi avtomatik feedbackni o‘quvchi uchun tushunarli, rag‘batlantiruvchi va rivojlantiruvchi shaklga keltirib, uni shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik muloqot orqali boyitadi. Aynan shu jarayonda feedback nazorat vositasidan chiqib, o‘quvchining ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlovchi va mustaqil o‘rganishga undovchi didaktik omilga aylanadi. Bu holat pedagogik madaniyatning yuqori darajada shakllanganligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Globallashuv hozirgi zamon jamiyatining ajralmas xususiyatiga aylangan murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u axborot almashinuvi, madaniy integratsiya va ijtimoiy munosabatlarning jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayon jamiyat rivoji uchun muhim imkoniyatlar yaratishi bilan birga, milliy ma’naviyat va qadriyatlar tizimiga muayyan bosimlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongida begona g‘oyalar, madaniy standartlar va hayot tarzlarining tez singib borishi milliy o‘zlikni saqlash masalasini dolzarb muammoga aylantirmoqda. Shunday sharoitda ta’lim tizimi milliy ma’naviyatni asrash va rivojlantirishning asosiy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-madaniy barqarorligini ta’minlovchi muhim mexanizm bo‘lib, u nafaqat bilim berish, balki shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasini shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Aynan ta’lim orqali yosh avlodda milliy g‘oya, vatanparvarlik, ma’naviy mas’uliyat va axloqiy ong izchil rivojlanadi. Globallashuv sharoitida bu vazifa yanada murakkablashib, ta’limdan zamonaviylik va milliylik uyg‘unligini ta’minlash talab etiladi.

Milliy ma’naviyat tushunchasi tarixiy xotira, til, madaniyat, urf-odatlar va axloqiy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u xalqning ichki birligini ta’minlaydi. Ushbu ma’naviy asoslar yoshlar ongida o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, balki maqsadli ta’lim va tarbiya jarayoni orqali mustahkamlanadi. Shu jihatdan, ta’lim tizimi globallashuv ta’sirida milliy ma’naviyatning yemirilishiga qarshi turuvchi ijtimoiy institut sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida milliy g‘oya va ma’naviyat masalalarining mazmunan boyitilishi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda milliy tafakkur, ma’naviy meros va erkin fikrlash g‘oyalarining uyg‘un holda berilishi yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytiradi. Masalan, milliy g‘oya tushunchasining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi qarashlar Abdurahim Erkayev va Imom Nazarov asarlarida nazariy jihatdan asoslangan bo‘lsa-da, ta’lim tizimida bu g‘oyalar amaliy tarbiya vositasiga aylantirilishi lozim. Ya’ni o‘quv jarayonida milliy g‘oya shior sifatida emas, balki hayotiy qadriyat sifatida talqin qilinishi zarur.

Globallashuv sharoitida ta’lim tizimining yana bir muhim vazifasi erkin va tanqidiy fikrlaydigan, biroq milliy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashdir. Fikr erkinligi va milliy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanat buzilgan taqdirda, yoshlar global axborot oqimida yo‘nalishini yo‘qotishi mumkin. Shu sababli ta’lim jarayonida tafakkur erkinligi masalasi milliy manfaatlar bilan uyg‘un holda yoritilishi zarur. Bu jihat tafakkur erkinligi g‘oyalarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida talabalarga yetka-zish muhimdir.

Ta’lim tizimi orqali milliy ma’naviyatni rivojlantirishda o‘quv fanlarining mazmuni, o‘qitish metodlari va pedagog shaxsining roli alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali yoshlar jamiyat-dagi ma’naviy jarayonlarni anglash, tarixiy voqeliklarga xolis baho berish va milliy manfaatlarni tushunish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda ma’naviyat asoslari kabi manbalardagi g‘oyalar to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirilmasdan, balki umumiy ilmiy yondashuv sifatida singdirilishi ta’lim samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, globallashuv ta’siri ostida ta’lim tizimi faqat himoyalanish vositasi bo‘lib qolmasdan, balki milliy ma’naviyatni yangicha talqin etish maydoniga ham aylanishi lozim. Milliy qadriyatlarni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirish, ularni bugungi yoshlar dunyoqarashiga mos shaklda yetkazish ta’lim oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Aks holda, milliy ma’naviyat faqat nazariy tushuncha sifatida qolib ketishi mumkin.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatni asrash va rivojlantirish jarayonida ta’lim tizimi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, milliy o‘zlikni anglash va jamiyat taraqqiyotiga mas’ul shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois ta’lim

tizimining mazmunan va metodik jihatdan takomillashtirilishi milliy ma’naviyat barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Globallashuv sharoitida ta’lim tizimi yoshlar ongida milliy ma’naviyatni shakllantirish jarayonida muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarni uyg‘un holda o‘rgatish yoshlar ongida o‘z milliy o‘zligini anglash va global axborot oqimida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan bir-ga, ta’lim tizimi orqali yoshlar tafakkur erkinligini saqlab qolgan holda jamiyat manfaatlariga sodiq bo‘lishni o‘rganadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, interaktiv pedagogik metodlardan foydalanish, shuningdek, tafakkur erkinligini rivojlantirish orqali yoshlar ongida milliy o‘zlikni saqlash va mustahkamlash mumkin. Bu esa globallashuv sharoitida jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim tizimi milliy ma’naviyatni asrashda nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishiga yo‘naltirilgan muhim institut sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois pedagogik yondashuvlar doimiy yangilanib, yoshlarning ehtiyojlari va global jarayonlarga moslashgan holda rivojlantirilishi zarur.

Xulosa. Globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatni asrash va rivojlantirishda ta’lim tizimining roli beqiyosdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ongida milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsning ma’naviy kamolotini ta’minlovchi asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta’lim tizimi orqali milliy qadriyatlar va erkin tafakkur uyg‘unligini ta’minlash, yoshlar ongini boyitish va ularni jamiyatning faol, mas’uliyatli a’zolari sifatida tarbiyalash mumkin. Bu esa milliy ma’naviyatni saqlash va globallashuv sharoitida barqaror jamiyatni shakllantirishning muim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdurahim Erkayev. Milliy g‘oya va ma’naviyat. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2015, 45–78-betlar.
(2). Abdurahim Erkayev. Tafakkur erkinligi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016, 23–56-betlar.
(3). Imom Nazarov. Milliy g‘oya: nazariya va amaliyot. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2014, 12–67-betlar.
(4). Ma’naviyat asoslari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2013, 34–89-betlar.

Xatamqulova Zarinabonu Ma’murjon qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti doktaranti;
e-mail: Zarinamadraximova62@gmail.com)

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘rta maktab o‘quvchilarining tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va interaktiv o‘quv muhiti ta’siri tahlil qilinadi. Research Cognitive Theory (RCT) asosidagi High School Research Cognitive Learning Pr-ogram (HSRCLP) modeli yordamida o‘quvchilar mustaqil fikrlash, tahlil qilish, tanqidiy qaror qabul qilish va ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, raqamli avlod xususiyatlari va multimerdiaga boy o‘quv muhiti o‘quvchilarning ijodiy va amaliy faoliyatini rag‘batlantiradi. Maqolada, shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi kontekstida raqamli vositalar va onlayn resurslarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv va raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan o‘quv muhiti o‘quvchilarning ilmiy kompetensiyalarini oshirish, ilmiy identitetni shakllantirish va 21-asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi.*

Kalit so‘zlar: *tadqiqotchilik ko‘nikmalari, o‘rta maktab o‘quvchilari, raqamli avlod, raqamli savodxonlik, research cognitive theory (rct), HSRCLP modeli, raqamli.*

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ ШКОЛ

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние современных педагогических подходов, цифровых технологий и интерактивной учебной среды на развитие исследовательских навыков у школьников средней школы. С помощью модели High School Research Cognitive Learning Program (HSRCLP), основанной на Research Cognitive Theory (RCT), учащиеся развивают способности к самостоятельному мышлению, анализу, критическому принятию решений и научным исследованиям. Кроме того, особенности цифрового поколения и мультимедийная насыщенность учебной среды стимулируют творческую и практическую деятельность учащихся. В статье также рассматриваются возможности эффективной интеграции цифровых инструментов и онлайн-ресурсов в*

учебный процесс в контексте стратегии «Цифровой Узбекистан–2030». Результаты исследования показывают, что учебная среда, обогащённая интерактивными и цифровыми технологиями, значительно способствует повышению научной компетентности, формированию научной идентичности и развитию навыков XXI века у школьников.

Ключевые слова: *исследовательские навыки, школьники средней школы, цифровое поколение, цифровая грамотность, research cognitive theory (RCT), модель HSRCLP, цифровой Узбекистан–2030.*

FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF RESEARCH SKILLS IN SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. *This article analyzes the impact of modern pedagogical approaches, digital technologies, and interactive learning environments on the development of research skills among secondary school students. Using the High School Research Cognitive Learning Program (HSRCLP) model based on Research Cognitive Theory (RCT), students develop independent thinking, analytical skills, critical decision-making, and scientific research competencies. In addition, the characteristics of the digital generation and a multimedia-rich learning environment stimulate students' creative and practical activities. The article also examines opportunities for effectively integrating digital tools and online resources into the educational process within the context of the "Digital Uzbekistan–2030" strategy. Research results indicate that a learning environment enriched with interactive and digital technologies significantly contributes to enhancing students' scientific competencies, forming a scientific identity, and developing 21st-century skills.*

Keywords: *research skills, secondary school students, digital generation, digital literacy, research cognitive theory (RCT), HSRCLP model, Digital Uzbekistan–2030.*

Kirish Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy ta'limdan kutilayotgan asosiy natija o‘quvchilarda tayyor bilimlarni egallash bilangina cheklanib qolmasdan, balki mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini izlashga qaratilgan tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni 2013-yillardan boshlab izchil amalga oshirila boshladi. Mazkur davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar, keyinchalik, davlat miqyosida yanada tizimlashtirilib, "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida uzviy ravishda davom ettirildi [8]. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari o‘quvchilarning bilish jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta'minlaydi. Bunday ko‘nikmalar o‘quvchilarga ilmiy savollarni qo‘yish, farazlar ilgari surish, dalillar-ni tahlil qilish va natijalarni asoslash imkonini beradi. Shu bois zamonaviy ta'limda tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o‘qitish va tadqiqot elementlariga asoslangan metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, umumiy o‘rta ta'lim amaliyotida o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni tizimli ravishda tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Pedagogik sharoitlar, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, ta'lim jarayonining raqamli ta'minlanganligi, o‘quvchilarning motivatsiyasi va psixologik xususiyatlari kabi omillar turli tadqiqotlarda alohida yoritilgan bo‘lsa-da, ularni kompleks yondashuv asosida umumlashtirish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Shu sababli mazkur maqolada umumiy o‘rta ta'lim maktablarida o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi hamda ularning ta'lim amaliyotidagi ahamiyati ochib beriladi.

Tadqiqot metodlari. Bugungi murakkab va tezkor o‘zgarayotgan dunyoda ta'limning kelajakdagi ishchi kuchini shakllantirishdagi roli beqiyosdir. Dunyo bo‘ylab turli sohalar rivojlanib borar ekan, tanqidiy fikrlash, ijodiy muammolarni hal qilish va ilmiy hamda texnologik yangiliklarga hissa qo‘sha olish qobiliyatiga ega shaxslar talabi ortib bormoqda [2]. Shu ehtiyojlarni qondirish uchun nafaqat texnik bilimlarni, balki tezkor o‘zgarayotgan global muhitda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan kognitiv va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradigan yuqori sifatli STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta'limi muhim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy ta'lim modellari STEM fanlarida talab etiladigan yuqori darajadagi fikrlash va tadqiqotchilik faoliyatini yetarli darajada shakllantira olmaydi. STEM ta'limi odatda fan bo‘yicha maxsus bilimlarni egallashga urg‘u beradi, ammo innovatsiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun faqat faktlarni yodlash yoki formulalarni qo‘llash yetarli emas. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirish eng samarali tarzda am-

aliy tadqiqotlar, eksperimentlar va muammolarni yechish faoliyati orqali amalga oshadi, ya'ni, ular haqiqiy olimlar va innovatorlar ishlatadigan jarayonlarni aks ettiradi.

Tadqiqot tajribasi dasturlari (Research Experience Programs – REPs) o'quvchilarni haqiqiy va ma'noli o'rganish faoliyatiga jalb qilishning samarali usuli sifatida tan olingan. Bu dasturlar o'quvchilarga ilmiy tadqiqot metodologiyasini nafaqat o'rgatadi, balki amaliy kontekstda qo'llash imkonini beradi va ilmiy bilimlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. REPs o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot tajribasi orqali o'quvchilar ilmiy so'rov jarayonini anglab, muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi, ma'lumot yig'ish va tahlil qilish usullarini o'rganadi va muhim ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini egallaydi. Shu bilan birga, REPs dunyo bo'ylab bir xildagi standartlarga ega emas va tadqiqot yonda-shuvlaridagi farqlarni ko'rsatadi. Masalan, so'rovga asoslangan ta'lim, ko'pincha, "qo'l bilan ishlash"ga urg'u beradi, lekin har doim ham "miyaga yo'naltirilgan" yondashuvni ta'minlamaydi. Shuningdek, standart sinovlarga haddan tashqari urg'u berilishi laboratoriya asosidagi tadqiqotlarga e'tiborni kamaytiradi. Shu sababli o'rta ta'limda haqiqiy tadqiqot metodologiyalarini joriy etishga urinishlar mavjud bo'lib, bu o'quvchilarni samarali bilimga asoslangan o'rganishga jalb qilishni maqsad qiladi [2], [5].

So'nggi o'n yilliklarda o'rta ta'limda tadqiqot tajribasi dasturlarini (REPs) tatbiq etishga qaratilgan harakatlar turlicha natijalarga olib keldi. Ba'zi dasturlar o'quvchilarda ilmiy izlanish va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali bo'lgan bo'lsa-da, ularning dizayni va baholash jarayonida sezilarli bo'shliqlar mavjud. Asosiy muammo shundaki, maktab sharoitida tadqiqot tajribalarini qanday tuzish va o'quvchilarni maksimal darajada jalb qilish bo'yicha izchillikni ta'minlaydigan, dalillarga asoslangan yagona ramka yetishmaydi. Shu sababli REPs o'quvchilarning kognitiv va xulqiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan chuqur, tadqiqotga yo'naltirilgan faoliyatni ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda [2], [5].

O'rta maktab o'qituvchilari, o'z sohalarida yetarli bilimga ega bo'lishiga qaramay, ko'pincha, o'rta maktab o'quvchilari bilan ishlash bo'yicha yetarlicha tajribaga ega emaslar, bu esa ularni mentor sifatida samaradorligini cheklashi mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning ilmiy tayyorgarligi cheklangan va vaqt jadvallari universitet talabalariga nisbatan torroq bo'lgani sababli, ularni sifatli tadqiqot tajribasiga jalb etishda o'qituvchilarga mustahkam, nazariy asoslangan o'quv ramkasi zarur. Bu ramka o'quvchilarga tadqiqot jarayonini mustaqil ravishda boshqarish, yakuniy natija va o'rganish jarayoniga e'tibor berish, muhim ko'nikmalarni rivojlantirish va keng tarqalgan qiyinchiliklarni yengib o'tish imkonini beradi.

Sabirova va Zakirova ta'lim muhitining o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdagi rolini o'rganishdi. Ularning tadqiqotida qayd etilishicha, axborot-ta'lim muhitining mavjudligi va sifatli tashkil etilishi o'quvchilarning tadqiqotga yo'naltirilgan faoliyatga jalb etilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mualliflar ta'kidlaydiki, o'quvchilarga ma'lumotlarni topish, tahlil qilish, sintez qilish va natijalar chiqarish jarayonlarida yordam beradigan axborot resurslariga erkin kirish imkoniyati tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi [9]. Shuningdek, ular o'qituvchilarning metodik yondashuvi ham o'quvchilarning izlanish salohiyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydilar. Xususan, o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishlarini rag'batlantirib, muammoli vazifalarni qo'yish orqali mustaqil fikr-lashni rag'batlantirishlari lozim. Bu esa pedagogik sharoit va ta'lim muhitining izchil tuzilishi tadqiqotchilik faoliyatni samarali amalga oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqotda axborot-ta'lim muhitining texnologik jihatlari (masalan, interaktiv vositalar, raqamli resurslar, ma'lumotlar bazalari) o'quvchilarning mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Muallif, shuningdek, raqamli savodxonlikni samarali o'rgatish uchun ta'lim dasturlariga yangi pedagogik usullar va texnologiyalarni joriy etish muhimligini qayd etadi.

Raqamli avlod (Digital Natives). Bugungi o'quvchilar, yoki "raqamli avlod", raqamli, media bilan boyitilgan va tarmoqlangan dunyoda tug'ilgan bo'lib, ular axborotni tezkor, samarali va interaktiv tarzda o'zlashtirishni afzal ko'radilar. Ularning o'rganish uslubi multimediali manbalardan tezkor foydalanish, rasmlar, videolar, ranglar va tovushlarni matndan oldin tahlil qilish, va o'rganish jarayonini qiziqarli, amaliy va darhol foydali qiluvchi faoliyatga yo'naltirish bilan tavsiflanadi. Shuningdek, raqamli o'quvchi bir vaqtning o'zida boshqalar bilan tarmoq orqali ishlash, paralel jarayonlarni bajarish va ko'p vazifali faoliyatni amalga oshirish, hamda zarur ma'lumotni "just in time" usulida o'rganishni afzal ko'radi. Bu esa an'anaviy o'qituvchilarning odatdagi yondashuvlaridan farq qiladi, masalan, ular ko'pincha ma'lumotni ketma-ket, matnga asoslanib, "just in case" tamoyili bilan yetkazadilar [5]. Shu nuqtayi nazardan, o'rta maktab o'quvchilarini tadqiqot ko'nikmalari bilan ta'minlash jarayonida, raqamli savodxonlik va multimediali resurslardan foydalanish, mustaqil va jamoaviy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash hamda faol, interaktiv o'rganish muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa avvalgi bo'limlarda keltirilgan raqamli o'rganish muhiti va Research Cognitive Theory asosidagi ramka bilan to'liq mos keladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘rta maktab o‘quvchilarining tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tanqidiy qaror qabul qilish qobiliyatlari eng muhim omil hisoblanadi. Raqamli o‘rganish muhiti va Research Cognitive Theory (RCT) asosidagi High School Research Cognitive Learning Program (HSRCLP) modeli o‘quvchilarga ilmiy izlanish jarayonini amaliy tarzda o‘rganish, multimediali resurslardan foydalangan holda ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu tendensiya o‘rta maktab o‘quvchilarini tadqiqotga yo‘naltirishda raqamli texnologiyalarni faol joriy etish va onlayn manbalarni samarali ishlatish zaruratini kuchaytiradi. Maqolada ko‘rsatilgan amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, high school research experience programs (HSREPs) o‘quvchilarda ilmiy kompetensiyalarni rivojlantirish va kelajakdagi ilmiy faoliyatga tayyorgarlikni oshirishga yordam beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish yondashuvlaridan farqli o‘laroq, raqamli muhit va zamonaviy pedagogik usullar orqali o‘quvchilarga haqiqiy, amaliy, interaktiv tadqiqot tajribasi berish samaraliroqdir. Shu bilan birga, o‘qituvchilar raqamli vositalarni samarali qo‘llash va o‘quvchilarning individual qiziqish-lari hamda talablariga moslash borasida metodik tayyorgarlikni kuchaytirishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, RCT asosidagi tadqiqotchilik modeli, raqamli vositalar va o‘quvchilarning digital preferencesini hisobga olgan pedagogik yondashuvlar birlashtirilganda, ular o‘rta maktab bosqichida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi va 21-asr talablariga mos bilimli, mustaqil va ijodiy o‘quvchi shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdullayeva N.X. Kompetensiyaviy yondashuv asosida oliy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash. – Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2019, 45–62-betlar.

(2). Al-Thani N.J., & Ahmad Z. (2025). Learning through “Research Cognitive Theory”. A new framework for developing 21st century research skills in secondary school students. Heliyon, 11(2), e41950. https://doi.org/10.1016/j. heliyon. 2025, e41950.

(3). Bo‘lajak pedagoglarning tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishning konsepsual asoslari (2025). Global Science Review, 1(1), 328–338. https://global-science-review.com/ojs/index.php/gsr/article/view/2156

(4). Creswell J.W. Research Design: Qualitative, Quantitative and Mixed Methods Approaches. 4th ed. Thousand Oaks: Sage Publications, 2014, 273 p.

(5). Doiraghusoha M. (2022). Pedagogical strategies for fostering digital literacy and online research skills in higher education. Interdisciplinary Journal Papier Human Review, 3(2), 1–13. https://doi.org/10.47667/ijphr.v3i2.228

(6). Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. 2nd ed. New Jersey, Pearson Education, 2015, pp. 198–220.

(7). Qurbonov O.S. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ilmiy tafakkurni rivojlantirish. “Uzluksiz ta’lim”, 2022, № 1, 19–27-betlar.

(8). “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-farmoni.

(9). Sabirova E.G., & Zakirova V.G. (2015). Formation of pupils’ research skills in informational and educational environment of elementary school. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 191, 1139–1142. https://doi.org/10.1016/j. sbspro. 2015.04.056

(10). Sheninger E. (2014). Digital Leadership: Changing Paradigms for Changing Times. Thousand Oaks, CA, Corwin Press.

(11). Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish. (2026). World Conference on Agricultural and Earth Sciences, 1(2), 1–5. https://www.econferencia.com/index. php/7/article/view/136

(12). Talabalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalari tushunchasi va uning tarkibiy komponentlari. (2026). Ustozlar uchun, 89(3), 66–71. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/18682

Ashurova Shaxzoda Shavkatovna (Qarshi davlat Texnika universiteti “Xorijiy tillar” kafedrasi assisstenti; E-mail: shoxruz1312@gmail.com)

TALABALARDA NUTQIY-ME’YORIY KONSTRUKSIYALARNI XATOLAR USTIDA ISHLASH ORQALI OSHIRISH

Annotatsiya *Mazkur maqolada talabalarda nutqiy-me’yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda xatolar ustida ishlash metodikasining ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida talabalar nutqida uchraydigan grammatik, leksik, uslubiy va pragmatik konstruktiv xatólar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik bosqichlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ va interaktiv yondashuvlarga asoslangan metodlardan foydalanildi. Olingan natijalar xatolar ustida tizimli va maqsadli ishlash talabalarda nutqiy-me’yoriy konstruksiyalarni ongli va samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy-me’yoriy konstruksiya, nutqiy xatolar, kommunikativ yondashuv, metodika, talabalar nutqi.*

Ашурова Шахзода Шавкатовна (Ассистент кафедры иностранных языков, Каршинский государственный технический университет; **E-mail: shoxruz1312@gmail.com)**

ПОВЫШЕНИЕ РЕЧЕВЫХ НОРМАТИВНЫХ КОНСТРУКЦИЙ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ РАБОТУ НАД ОШИБКАМИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты методики формирования и развития речевых нормативных конструкций у студентов посредством работы над ошибками. В ходе исследования выявляются грамматические, лексические, стилистические и прагматические конструктивные ошибки в речи студентов, а также анализируются методические этапы, направленные на их устранение. В исследовании использованы коммуникативные и интерактивные методы обучения. Полученные результаты показывают, что систематическая и целенаправленная работа над ошибками способствует эффективному развитию у студентов навыков осознанного и нормативного использования речевых конструкций.*

Ключевые слова: *речевая нормативная конструкция, речевые ошибки, методика, коммуникация.*

Ashurova Shaxzoda Shavkatovna (Assistant at the Department of Foreign Languages, Karshi State Technical University; E-mail: shoxruz1312@gmail.com)

IMPROVING STUDENTS’ SPEECH NORMATIVE CONSTRUCTS THROUGH ERROR ANALYSIS

Annotation. *This article examines the theoretical and practical aspects of developing students’ speech normative constructions through systematic work on errors. The study identifies grammatical, lexical, stylistic, and pragmatic constructional errors in students’ speech and analyzes methodological stages aimed at their correction. Communicative and interactive teaching methods were employed in the research process. The findings demonstrate that structured and purposeful error-focused instruction plays a significant role in enhancing students’ ability to consciously and effectively use speech normative constructions.*

Key words: *speech normative construction, speech errors, communicative approach, methodology.*

Kirish Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning nutqiy-me’yoriy konstruksiyalarni to‘g‘ri, aniq va kommunikativ vaziyatga mos holda qo‘llashi muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xorijiy tilni o‘rganayotgan talabalar nutqida uchraydigan turli grammatik, leksik va uslubiy konstruktiv xatolar ularning kommunikativ faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli nutqiy-me’yoriy konstruksiyalarni shakllantirish jarayonida xatolar ustida ishlash metodikasini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi talabalar nutqida uchraydigan konstruktiv xatolarni aniqlash, tasniflash hamda ularni bartaraf etish orqali nutqiy-me’yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan samarali metodikani ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari esa nutqiy konstruksiyalarda uchraydigan xatolar turlarini aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorijiy tilni o‘qitishda talabalar nutqini tahlil qilish va nutqiy-me’yoriy konstruksiyalarni shakllantirish masalasi lingvodidaktikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ilmiy adabiyotlarda mazkur jarayon, asosan, xatolar tahlili va nutqiy konstruksiyalarning bosqichma-bosqich rivojlanishi asosida yoritilgan.

Xususan, H.Douglas Brown xorijiy til nutqidagi grammatik va leksik konstruktiv xatolarni tahlil qilish orqali talabalarda nutqiy konstruksiyalarning shakllanish darajasini aniqlash mumkinligini ta’kidlaydi. Masalan, “She go to school yesterday” kabi noto‘g‘ri konstruksiyalarni tuzatish orqali talabalar ongida me’yoriy nutqiy konstruktsiyalar shakllantirilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

S.P.Corder xatolarni noto‘g‘ri shakllangan nutqiy konstruksiyalarning tabiiy natijasi sifatida talqin qiladi. “I am agree with you” kabi iboralar interlanguage konstruktiv xatosi sifatida ko‘rib chiqilib, ularning me’yoriy shakli orqali to‘g‘ri nutqiy konstruksiya mustahkamlanadi. Dell Hymes xorijiy til nutqining kommunikativ va pragmatik jihatlarini tahlil qilib, nutqiy konstruksiyalarning vaziyatga mos qo‘llanishi muhimligini asoslab beradi. Uning fikricha, grammatik jihatdan to‘g‘ri, ammo kommunikativ vaziyatga mos kelmaydigan konstruksiyalar kommunikativ xato hisoblanadi.

Rod Ellis esa nutqiy konstruksiyalarning xorijiy tilni o‘rganish jarayonida bosqichma-bosqich shakllani-shini yoritib, konstruktiv xatolarni til rivojlanishining tabiiy bosqichi sifatida izohlaydi. Masalan, “He go” kabi konstruksiyalar, keyinchalik, “He goes” shakliga o‘tishi interlanguage konstruksiyalar rivojlanishini ko‘rsatadi.

Rus metodikasida E.I.Passov xatolar ustida ishlashni nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida baholab, dialog va kommunikativ mashqlar orqali me'yoriy konstruksiyalarni mustahkamlashni tavsiya etadi.

O'zbek olimlaridan Sh.Qodirova xorijiy til nutqini rivojlantirishda nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va konstruktiv xatolarni bartaraf etishga qaratilgan nazariy hamda amaliy yondashuvlarni taqdim etadi. Jamol Jalolov esa til o'qitish jarayonida konstruktiv xatolarni aniqlash va tuzatish orqali talabalarda me'yoriy nutqiy konstruksiyalarni shakllantirish mumkinligini metodik jihatdan asoslaydi. Mazkur adabiyotlar tahlili xorijiy til nutqini o'rganishda nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va konstruktiv xatolar ustida ishlash til o'rganish samaradorligini oshirishning muhim omili ekanini ko'rsatadi. Multimodal materiallar talabalarga nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni xatolarini aniqlash va tuzatishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki ular o'quvchilarga turli vizual va audioresurslar orqali o'z nutqlarini yaxshilash imkonini beradi (Ashurova, 2025).

Tadqiqot metodologiyasi Mazkur tadqiqot talabalarda nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilib, unda sifat va miqdoriy tahlil metodlari uyg'unlashuvi asosiy metodologik yondashuv sifatida qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy lingvodidaktik va pedagogik tamoyillarga tayangan holda, talabalarning og'zaki va yozma nutqidagi me'yoriy hamda me'yorlardan chetga chiqadigan konstruksiyalarni aniqlash va tahlil qilishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi.

Empirik ma'lumotlar kuzatish, diagnostik testlar, nutqiy topshiriqlar, suhbat va tajriba-sinov metodlari orqali yig'ildi. Ushbu metodlar yordamida talabalar nutqida uchraydigan konstruktiv xatolar aniqlanib, ularning lingvistik va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilindi. Diagnostik testlar orqali talabalarning nutqiy-me'yoriy bilim va ko'nikmalari darajasi belgilandi.

Tadqiqot oliy ta'lim muassasasining xorijiy tillar yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida olib borildi. Og'zaki (dialog va monologlar) hamda yozma (esse, tarjima va yozma topshiriqlar) nutq namunalari asosida me'yorlardan chetga chiqadigan nutqiy konstruksiyalar grammatik, leksik, uslubiy va pragmatik jihatlarga ko'ra tasniflandi.

Xatolar ustida ishlash jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: nutqiy konstruksiyalarni aniqlash va tasniflash; xatolar kelib chiqish sabablarini tahlil qilish; noto'g'ri konstruksiyalarni tuzatish va me'yoriy variantlarini izohlash; mashqlar va refleksiya orqali me'yoriy konstruksiyalarni mustahkamlash.

Tajriba-sinov natijalari talabalarda nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni ongli va to'g'ri qo'llash ko'nikmalari shakllanganini hamda ularning kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, nutqdagi xatolar ustida tizimli va maqsadli ishlashga asoslangan metodika talabalarda nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv talabalarning nutqiy xatolarini faqat bartaraf etish bilan cheklanmay, balki ularni me'yoriy, ongli va kommunikativ jihatdan samarali nutqiy konstruksiyalarni qo'llashga yo'naltiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xatolarni tahlil qilish, ularning sabablarini anglash va me'yoriy va-riantlar bilan solishtirish orqali talabalar nutqiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Mazkur metodika oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'qitish jarayonida amaliy tavsiya sifatida foydalanish uchun dolzarb bo'lib, u o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Brown H.D. (1994). Principles of Language Learning and Teaching (4th ed., pp. 251–300). New York, Longman.

(2). Corder S.P. (1967). Error Analysis and Interlanguage (pp. 160–180). Oxford, Oxford University Press.

(3). Hymes D. (1972). On Communicative Competence (Chap. 2). In J.B.Pride & J.Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269–293). Harmondsworth, Penguin.

(4). Ellis R. (1994). The Study of Second Language Acquisition (Chaps. 3–5). Oxford, Oxford University Press.

(5). Пассов Е.И. (2003). Коммуникативный метод обучения иноязычной речи. Moskva, "Akademiya".

(6). Qodirova Sh. (2018). Xorijiy til nutqini rivojlantirish metodikasi (pp. 34–58). Toshkent, Oliy va o'rta maxsus ta'lim nashriyoti.

(7). Jalolov J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi (pp. 45–67). Toshkent, "Fan va texnologiya".

(8). Ashurova Sh.Sh. (2025). Advantages of using multimodal materials in developing speech-normative constructs in students. *Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy*, 1(8), p. 144–149.

Ismoilova Gulbaxor Azamovna (Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); ismoilovag352@gmail.com)

EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING AHAMIYATI VA AMALIYOTI

Annotatsiya. M*azkur maqolada ekologik madaniyatni rivojlantirishda interfaol usullarning ahamiyati va amaliy qo‘llanish mexanizmlari tahlil etilgan. Oliy ta’lim tizimida fanlararo integratsiya asosida ekologik ta’limni tashkil etishning nazariy va metodik jihatlari yoritilgan hamda interfaol metodlarning talabalarda ekologik ong, mas’uliyat va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi o‘rni asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, ekologik ong, interfaol usullar, fanlararo integratsiya, ekologik ta’lim, pedagogik texnologiyalar, loyiha metodi, ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish, ekologik mas’uliyat, oliy ta’lim tizimi, innovatsion yondashuv.*

ЗНАЧЕНИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В данной статье проанализированы значение и практические механизмы применения интерактивных методов в развитии экологической культуры. Освещены теоретические и методические аспекты организации экологического образования в системе высшего образования на основе междисциплинарной интеграции, а также обоснована роль интерактивных методов в формировании у студентов экологического сознания, ответственности и практических навыков.*

Ключевые слова: *экологическая культура, экологическое сознание, интерактивные методы, междисциплинарная интеграция, экологическое образование, педагогические технологии, метод проектов, экологическое воспитание, устойчивое развитие, экологическая ответственность, система высшего образования, инновационный подход.*

SIGNIFICANCE AND PRACTICAL MECHANISMS OF APPLYING INTERACTIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE

Annotation. *This article analyzes the importance and practical implementation mechanisms of interactive methods in the development of ecological culture. The theoretical and methodological aspects of organizing environmental education in higher education based on interdisciplinary integration are highlightted, and the role of interactive methods in developing students’ ecological awareness, responsibility, and practical skills is substantiated.*

Keywords: *ecological culture, ecological awareness, interactive methods, interdisciplinary integration, environmental education, pedagogical technologies, project method, environmental upbringing, sustainable development, ecological responsibility, higher education system, innovative approach.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ekologik muammolarning keskinlashuvi, atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslardan noo‘rin foydalanish hamda iqlim o‘zgarishi masalalari ekologik madaniyatni rivojlantirishni ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, yosh avlodda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish, ekologik mas’uliyat va barqaror hayot tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim vazifasidir. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonida interfaol usullardan samarali foydalanish ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy va ta’sirchan mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Zamonaviy pedagogika fanida interfaol usullar – munozara, “aqliy hujum”, klaster, loyiha metodi, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish – o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularni amaliy faoliyatga yo‘naltiradi. Ayniqsa, ekologik mavzularni o‘qitishda interfaol metodlar o‘quvchilarni muammoga befarq bo‘lmaslikka, atrof-muhit muhofazasiga daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya (Methods). mazkur tadqiqotda ekologik madaniyatni rivojlantirishda interfaol usullarning ahamiyati va amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari interfaol usullardan foydalanish ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari davomida loyiha metodi, “aqliy hujum”, muammoli vaziyat va rolli o‘yinlardan foydalanilgan guruhlarda talabalarning ekologik bilim darajasi, muammolarga nisbatan ongli munosabati hamda amaliy ko‘nikmalari nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni qayd etdi. Shuningdek, interfaol metodlar talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, jamoada ishlash va ekologik mas’uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qilgani aniqlandi. Dars jarayonida faol ishtirok etgan talabalar ekologik muammolar bo‘yicha aniq taklif va loyiha-

lar ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ldilar.

Muhokama (Discussion). Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda tahsil oluvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Pedagogika fanlarini o‘tishda quyidagi didaktik o‘yinlarni qo‘llash mumkin:

“Kim ko‘p yozadi?” o‘yini.

O‘yin tartibi. Talabalar oldida faqat qog‘oz va qalam bo‘lishi kerak. O‘yinni “Xona gullari”, “Manzarali daraxtlar” mavzusi bo‘yicha o‘tkazish, ayniqsa, yaxshi natija beradi. Bu o‘yin uchun ma’lum vaqt belgilanadi. Masalan, “Xona gullari” mavzusi e’lon qilinadi deylik, talabalar esa belgilangan vaqt ichida o‘zlari bilgan barcha xona gullarini yozib chiqadilar. Yozilgan har bir xona guli uchun bir ball beriladi. Ball sifatida rangli kartochkalar beriladi. O‘yinda eng ko‘p kartochka to‘plagan talabalar g‘olib hisoblanadi.

“To‘g‘ri top usuli”. O‘yin tartibi. Bu interfaol usulni deyarli barcha o‘quv fanlarida samarali qo‘llash mumkin. Masalan, manzarali daraxtlarning bir nechtasining rasmi ko‘rsatiladi, shular orasidan kislorod ishlab chiqaradigan, katta bargli, ninabarglilar turini topishi lozim. 10 minut davomida talaba manzarali daraxtlarni izohlab yozma javob berishi kerak. Kimning javobi puxta va aniq bo‘lsa u g‘olib bo‘ladi.

Pedagogika fanlarini o‘rganish jarayonida ekologik tafakkurni shakllantirishda noan’anaviy usullarni qo‘llash talabalarning ilm olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Darhaqiqat, ularning mustaqil fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini erkin bayon eta olishga, darslik, qo‘shimcha ta’lim vositalaridan mustaqil bilim ola bilishga o`rgatadi. Bu o‘rinda fan o‘qituvchisining asosiy vazifasi esa talabalarning qiziqishlarini hisobga olish va to‘liq qondirish, ta’limning tashkiliy shakllarini tanlash hisoblanadi. “Ekologik ta’limning o‘ziga xosligi uning yordamida uzatilayotgan madaniyatning xususiyatidan kelib chiqadi va u umumiy ta’limning komplementari hisoblanadi”.[1]

Pedagogika fanlari mashg‘ulotlarida bo‘lajak mutaxassislarni ekologik madaniyatini rivojlantirish omillari quyidagi muhim aspektlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

•umumiy vazifani muhim tarkibiy qismi sifatida fan bo‘yicha taqdim qilingan topshiriqlarni sifatli bajarishga talabalarning javobgarligi;

•talabalarning o‘zlarida liderlik xislatlarini shakllantirish;

•hamkorlikdagi faoliyat, qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro yordam va talabalarning do‘stona munosabati jamoada ishlashning muhim shartlari sifatida;

•o‘quv faoliyati, o‘zaro aloqalar va tegishli qadriyatli munosabatlarni uyg‘unlashtirish uchun xavfsiz bo‘lgan o‘ziga xos psixologik muhitni yaratish;

•hamkorlikdagi natijalar, grant nashrlarni olish, konferesniya va forumlarda ishtirok etish orqali bajarilayotgan ishni mahsuldorligi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimida fan mavzulari mazmunini integratsiyalash asosida dars jarayoni hamda darsdan tashqari vaqtlarda ekologik yo‘nalishdagi tadbirlarni tizimli tashkil etish talabalarni atrof-muhitga mas’uliyatli munosabat ruhida tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Fanlararo yondashuv asosida olib borilgan ta’lim jarayoni ekologik bilimlarning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlaydi, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini yaratadi hamda talabalarda ekologik ong, tafakkur va xulq-atvor madaniyatini shakllantiradi.

Maqola natijalariga asoslanib, oliy ta’lim tizimida ekologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **Fanlararo integratsiyani kuchaytirish** – pedagogika, psixologiya, tabiiy fanlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga ekologik komponentlarni tizimli ravishda kiritish, mavzularni o‘zaro bog‘liq holda yoritish.
2. **Interfaol metodlardan muntazam foydalanish** – “aqliy hujum”, “klaster”, “debat”, “muammoli vaziyat”, “loyiha” metodi va rolli o‘yinlarni ekologik mavzular asosida tashkil etish orqali talabalarning faol ishtirokini ta’minlash.
3. **Ekologik loyihalar va aksiyalarni yo‘lga qo‘yish** – “Yashil makon”, chiqindilarni saralash, daraxt ekish, ekologik targ‘ibot haftaliklari kabi amaliy tadbirlarni talabalar ishtirokida tashkil etish.
4. **Darsdan tashqari faoliyatni boyitish** – ekologik klublar, seminar-treninglar, davra suhbatlari va tanlovlar orqali ekologik ong va mas’uliyatni mustahkamlash.
5. **Raqamli texnologiyalardan foydalanish** – ekologik muammolar bo‘yicha taqdimotlar, videoroliklar, onlayn platformalar va interaktiv testlardan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish.

[1] Глазачев С.Н. Экологическая культура учителя. Исследования и разработки экогуманитарной парадигмы. Монография, М., “Современный писатель”, 1998, 432 с.

6. **Monitoring va baholash tizimini joriy etish** – talabalarning ekologik bilim, ko‘nikma va qadriyatlarini aniqlashga qaratilgan diagnostik vositalarni ishlab chiqish hamda natijalarni tahlil qilib borish.

Mazkur tavsiyalarni izchil amalga oshirish oliy ta’lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, oliy ta’lim muassasalarida ekologik madaniyatni rivojlantirish fanlararo integratsiya, interfaol metodlar va uzluksiz tarbiyaviy jarayon uyg‘unligida amalga oshirilgandagina samarali natijaga erishish mumkin. Mazkur yo‘nalish bugungi kunda hal etilishi zarur bo‘lgan dolzarb pedagogik vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ЮНЕСКО Бош конференцияси 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи. 30.10.2025. https://president.uz/uz/lists/view/8610

(2). Панин М.С. Молдажанова А.А. Профессиональная культура как содержание профессионализма учителя. Материалы Юбилейной международной научно-практической конференции «Профессионализм педагога: сущность, содержание, перспективы развития». М., МПГУ, МАНПО, 2005, ч. 2, с. 246–250.

(3). Терехов Е. Экологическое образование на пути к системности. “Белорусский климат”, 1997, № 5, с. 18–23.

(4). Глазачев С.Н. Экологическая культура учителя. Исследования и разработки экогуманитарной парадигмы. Монография, М., “Современный писатель”, 1998, 432 с.

(5). Azamovna Ismoilova Gulbaxor. "Preservation of nature is a nationwide issue." International journal of social science & interdisciplinary research. ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.04 (2022), p. 156–164.

Izbaskanova Nasiba Ataniyazovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi; nasiba.izbaskanova@mail.ru)

TOPISHMOQLAR YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. *Mantiqiy fikrlash va xotirani rivojlantirish boshlang‘ich ta’limning muhim maqsadlaridan biridir. Zamonaviy pedagoglar o‘quvchilarni faol ravishda o‘rgatish va mustaqil fikrlay olishini rivojlantirish uchun turli usullardan foydalanishni tavsiya qiladilar. Shulardan biri darslarda topishmoqlardan foydalanish. Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash va xotirani rivojlantirishda topishmoqlarning imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqot kognitiv rivojlanish, til o‘rganish va o‘yin orqali ta’lim berishga oid pedagogik nazariyalarga asoslangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, topishmoqlardan muntazam foydalanish o‘quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, so‘z boyligini oshirishga, xotirani mustahkamlashga va ijodiy tasavvurini kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, topishmoqlar asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda qatnashgan bolalar yuqori motivatsiya, diqqat va hamkorlikda o‘rganish qobiliyatini namoyon qiladilar.*

Kalit so‘zlar: *mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, topishmoqlar, kognitiv rivojlanish.*

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ ЗАГАДОК

Аннотация. *Развитие логического мышления и памяти является одной из важнейших задач начального образования. Современные педагоги рекомендуют использовать различные методы активного обучения, направленные на развитие самостоятельного мышления учащихся. Одним из таких методов является использование загадок на уроках. В данном исследовании рассматриваются возможности применения загадок для развития логического мышления и памяти у учащихся начальных классов. Работа опирается на педагогические теории когнитивного развития, изучения языка и обучения через игру. Результаты исследования показали, что регулярное использование загадок способствует развитию аналитического мышления учащихся, расширению словарного запаса, укреплению памяти и развитию творческого воображения. Кроме того, учащиеся, участвующие в занятиях с использованием загадок, демонстрируют более высокий уровень мотивации, внимания и способности к совместной учебной деятельности.*

Ключевые слова: *логическое мышление, начальное образование, загадки, когнитивное развитие, развитие памяти.*

METHODS OF FORMING LOGICAL THINKING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS USING RIDDLES

Annotation. *Developing logical thinking and memory is one of the important goals of primary education. Modern educators recommend using various methods for active learning and developing students' independent thinking. One of them is using riddles in lessons. In this study, the possibilities of riddles in the development of logical thinking and memory in primary school students were studied. The*

research is based on pedagogical theories of cognitive development, language learning, and learning through play. The results showed that regular use of riddles contributes to the development of students' analytical thinking, increased vocabulary, strengthened memory, and expanded creative imagination. Also, children who participated in riddle-based activities demonstrate high motivation, attention, and the ability to learn together.

Keywords: *logical thinking, primary education, riddles, cognitive development, memory development.*

Bunday maqtov va ta’rif bilan bir qatorda, Ayniy hamisha nozik bir fikrni namoyon etadi: Navro‘z turli muhitlarda turli ma’nolarga ega bo‘ladi. Odamlar uchun Navro‘z quvonch, an’ana, mehribonlik, yig‘ilish va yurakni tozalashdir. Ustod Ayniyga ko‘ra: “Ilgari, yangi yil oldidan, Hamal oyigacha tojik dehqonlari har bir qishloqdagi dalalarga yig‘ilib, jang qilish va boshqa jismoniy harakatlar qilish uchun yig‘ilishgan, go‘yo ular o‘z tanalariga yangi kuch bergandek. qishki sovuq, Hamalning boshida esa uch kun yurishdi. umumiy sayrga borib, dehqonchilik bilan shug‘ullana boshladilar.” Ammo hukmron sinf va rasmiy muhit uchun Navro‘z ko‘rsatish imkoniyati, shuningdek, jamiyatni boshqarish vositasi bo‘lishi mumkin. Ustoz bu farqni hayotiy misollar va tabiiy taqqoslashlar bilan ifodalaydi.

Ayniy o‘z asarlarida Navro‘zni xalq ruhi va ma’naviy birlik bilan bog‘laydi: “Navro‘z – xalqning ko‘hna xotirasi, ezgulik va do‘stlik bayramidir. Bu kun odamlar qalbida yangi umidlar uyg‘onadi, jamiyatda mehr-oqibat kuchayadi”.[3] Ayniy nazarida Navro‘z–millatni birlashtiruvchi, jamiyatni ma’rifat sari yetaklovchi ma’naviy kuchdir.

---

[1] Abu Rayhon Beruniyga oid manba. Beruniy, Abu Rayhon. “Osor ul-boqiya an al-qurun al-xoliya” (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar). Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1968.

[2] Umar Xayyom. «Navro‘znoma». T., 2010, qayta nashr; Umar Xayyom. « Ruboiylar». T., 2015.

[3] Ayniy S. Navro‘z haqida maqolalar va xotiralar**.** Dushanbe, “Irfon”, 1985.

Sadriddin Ayniy Navro‘z bayramiga xalqona, ma’rifiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan qaragan. Uning asarlarida Navro‘z shunchaki tantana emas, balki millat ruhi, tabiat va inson uyg‘unligi ramzi sifatida tasvirlanadi.

Asosiy qarashlari qisqacha:

1. Navro‘z – xalq bayrami. Ayniy Navro‘zni oddiy xalq hayoti bilan bog‘laydi. Bu bayram boy-kambag‘alni birlashtiradigan, odamlar o‘rtasida mehr-oqibatni kuchaytiradigan kun sifatida ko‘rsatiladi.

2. Tabiat va yangilanish timsoli. U Navro‘zni bahorning kirib kelishi, yerning uyg‘onishi, yangi hayot boshlanishi deb talqin qiladi. Inson ham tabiat kabi o‘zini yangilashi kerak, degan fikr seziladi.

3. Milliy qadriyatlarni saqlash. Ayniy uchun Navro‘z – xalqning qadimiy urf-odatlari, an’analari va tarixiy xotirasini saqlab qoluvchi muhim vosita. U Navro‘zni yo‘qotish – milliylikni yo‘qotish deb biladi.

4. Ijtimoiy tenglik va umid. Asarlarida Navro‘z kunlari odamlar bir-biridan hol so‘raydi, adovatlar unutiladi, kambag‘allarga yordam beriladi. Bu orqali adib jamiyatda adolat va insoniylik g‘oyalarini ilgari suradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotimiz jarayonida Navro‘z haqidagi qarashlarni solishtirish natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

•Beruniy Navro‘zni, eng avvalo, tabiat qonunlariga asoslangan hodisa deb tushuntiradi.Uning qarashida: Navro‘z – Quyoshning hamal burjiga kirishi, yilning yangidan boshlanishi, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik timsolidir. Beruniy uchun Navro‘zning falsafiy ma’nosi shunda: Inson ham tabiat kabi doimo yangilanib turishi, eskilikdan poklanishi kerak. Shu bois u Navro‘zni ilm va tafakkur orqali anglashga chaqiradi.

•Umar Xayyom esa Navro‘zga ko‘proq inson qalbi va ruhiy olami nuqtayi nazaridan yondashadi. Unga ko‘ra, Navro‘z – hayotning go‘zalligi, vaqtning qadriga yetish, umrning har lahzasidan bahra olish ramzi. Xayyom falsafasida Navro‘z shuni anglatadi:

Olam yangilanar ekan, inson ham ichki dunyosini yangilab, hayotni muhabbat va quvonch bilan qarshi olishi lozim. U Navro‘zni insonni ezgulikka chorlovchi ma’naviy kuch sifatida ko‘radi.

•Sadriddin Ayniy–XX asr ijodkori sifatida Navro‘zga: xalqning milliy ruhi, tarixiy xotirasi, ma’naviy birligi timsoli sifatida qaraydi. Uning asarlarida Navro‘z: xalqni birlashtiruvchi bayram, mehr-oqibat va do‘stlik ramzi, ezgulikni targ‘ib qiluvchi qadriyat sifatida tasvirlanadi. Ayniy uchun Navro‘z falsafasi shundan iborat:

Jamiyat ham tabiat kabi yangilanib, ma’rifat va taraqqiyot sari intilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan tabriklar. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti materiallari.

(2). Mirziyoyev Sh.M. Milliy qadriyatlar va ma’naviy meros. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019.

(3). Ayniy S. Navro‘z haqida maqolalar va xotiralar. Dushanbe, “Irfon”, 1985.

(4). Abu Rayhon Beruniyga oid manba. Beruniy, Abu Rayhon. “Osor ul-boqiya an al-qurun al-xoliya” (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar). Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1968.

(5). Ayniy S. Tanlangan asarlar. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.

(6). Ayniy S. Esdaliklar. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1966; Abdullaev A. “Sharq mutafakkirlari va Navro‘z an’analari”. Toshkent, 2009.

Mahmudov G‘ayrat Xikmatilloevich (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi: E-mail:gayratxikmatillayevich@gmail.com)

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK ONGNING FALSAFIY TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy muhitda jamiyatning ekologik ongida yuz berayotgan o‘zgarishlar tahlil qilingan. Bugungi kunda “iste’molchi jamiyat” modelidan “ehtiyotkor jamiyat”ga o‘tish zarurati falsafiy nuqtayi nazardan asoslanadi. O‘zbekistonda ekologik ongni rivojlantirish jarayonlari, ekologik madaniyatning bu boradagi ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik toza, ekologik ong, iste’molchilik jamiyati, ekologik madaniyat, tashqi muhit, ekologik falsafa.*

Махмудов Гайрат Хикматиллоевич (преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического института; E-mail: gayratxikmatillayevich@gmail.com)

ФИЛОСОФСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В данной статье проанализированы изменения в экологическом сознании общества в современных условиях. Подчеркивается необходимость перехода от модели «потребительского общества» к «обществу осторожности» с философской точки зрения. Рассматри-*

ваются процессы развития экологичес-кого сознания в Узбекистане, а также значение экологической культуры в этом контексте.

Ключевые слова: *экологически чистый, экологическое сознание, потребительское общество, экологическая культура, окружающая среда, экологическая философия.*

Mahmudov G‘ayrat Khikmatilloevich (Teacher at the Shahrisabz State Pedagogical Institute; E-mail: gayratxikmatillayevich@gmail.com)

PHILOSOPHICAL TRANSFORMATION OF ENVIRONMENTAL AWARENESS IN UZBEKISTAN

Annotation. *This article analyzes the changes occurring in the environmental awareness of society in the contemporary context. The necessity of transitioning from a “consumer society” model to a “precautionary society” is substantiated from a philosophical perspective. The processes of developing environmental awareness in Uzbekistan, as well as the significance of ecological culture in this context, are highlighted.*

Keywords: *environmentally friendly, environmental awareness, consumer society, ecological culture, envi-ronment, environmental philosophy.*

Kirish (Introduction). XXI asrda ekologik muammo insoniyat oldida turgan global muammolardan biriga aylandi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib ketishi, iqlim o‘zgarishi va biologik tozalanishning qisqarishi natijasida ekologik muammolarni bartaraf etish masalasi hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda. An’anaviy ravishdagi sanoatlashgan jamiyatlarda ko‘proq “iste’molchi jamiyat” modeli shakllangan bo‘lib, unda asosiy e’tibor tabiiy resurslardan maksimal darajada foydalanishga qaratilgan. Ammo ekologik omillarning ortib borishi insoniyatni yangi model – “ehtiyotkor jamiyat” konsepsiyasiga o‘tishga undaydi. Bu jarayonda ekologik ongning rivojlanishi muhim o‘rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ekologik muammolar va ularni hal qilish masalalari bugungi kunda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavzusiga aylangan. Jumladan, Ulrich Beck o‘zining “Risk jamiyati” nazariyasida zamonaviy jamiyatda texnologik va ishlab chiqarish faoliyatining ortib borishini tahlil qilgan va insoniyat oldida yangi ekologik mas’uliyat paydo bo‘layotganini ta’kidlagan. Ushbu g‘oya shuni ko‘rsatadiki, ekologik muammolarning kuchayishi jamiyatning ekologik ongini o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqaradi [1].

Anthony Giddens zamonaviylik va global jarayonlarni tahlil qilib, inson rivojlanishidagi ekologik muammolar jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekanini ta’kidlaydi [3]. Shu bilan birga, ekologik resurslarni samarali boshqarish va ularni nazorat qilish masalalari Don H. Meadows [4], Dennis L. Meadows va Jørgen Randers tomonidan o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, insoniyatning haddan tashqari iste’moli global ekologik muammolarga olib kelishi mumkinligi ilmiy asosda tasdiqlangan.

Ekologik falsafa va tabiat bilan uyg‘unlik g‘oyalari Arne Naess hamda Fritjof Capra asarlarida yoritilgan. Ular ekologik ongni rivojlantirish va insonning tabiatga nisbatan mas’uliyatini oshirish zarurligini ta’kidlaydilar [2].

Bugungi kunda ekologik muammolar va ularning ijtimoiy-falsafiy oqibatlari global xarakter kasb etmoqda. Sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, urbanizatsiya jarayonlari va aholi sonining ortishi tabiiy muhitga antropogen bosimni kuchaytirmoqda, bu esa ekologik muammolarni yanada jiddiylashtirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘zbekistonda ekologik ongning falsafiy transformatsiyasiga bag‘ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, analogik tahlil kabi metodlaridan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat va jamiyat oldidagi eng jiddiy global muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ularning asosiy sabablari quyidagilar bilan izohlanadi: tabiiy resurslardan noto‘g‘ri foydalanish, sanoat ishlab chiqarishining ortib borishi, ekologik madaniyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi va iqtisodiy manfaatlarning ekologik xavfsizlikdan ustun qo‘yilishi. Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, bu jarayon inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalasini dolzarb qilmoqda. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, insoniyat uzoq vaqt davomida tabiatni faqat resurs sifatida qabul qilgan, bu esa global miqyosda ekologik muammolarni kuchaytirgan [4;22-b.].

“Iste’molchi jamiyat” tushunchasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy mezoni sifatida iste’mol darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatni ifodalaydi. Bunday jamiyatda ishlab chiqarish hajmi doimiy ravishda oshib boradi, mahsulot resurslaridan foydalanish kengayadi va iste’mol madaniyati markaziy o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, bu modelning salbiy jihatlari ham sezilarli: haddan tashqari iste’mol tabiiy resurslarning tez tugashiga, ekologik tozalash tizimining yetarli bo‘lmasligiga va atrof-muhitning ifloslanishiga olib keladi. Shu sababli zamonaviy falsafiy qarashlarda iste’molchilik modeli ekologik xavfsizlikni ta’minlay olmasligi, barqaror rivojlanish g‘oyalariga zid ekanligi ta’kidlanadi.

Zamonaviy ekologik muammolar yangi ijtimoiy model – “ehtiyotkor jamiyat” (precautionary society) konsepsiyasining shakllanishiga turtki bo‘ldi. Ushbu modelda jamiyat tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga intiladi, ekologik barqarorlikni ta’minlash va tabiiy resurslarni oqilona boshqarish asosiy vazifa sifatida qabul qilinadi. Ehtiyotkor jamiyatning barqaror ishlashining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik mas’uliyatni hisobga olish, ekologik ta’lim va madaniyatni rivojlantirish, shuningdek, tashqi muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish. Ushbu tamoyillar inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni tiklashga xizmat qiladi va jamiyatning ekologik ongini chuqurlashtiradi [5;102-b.].

O‘zbekistonda ekologik ongning rivojlanishi va transformatsiyasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni oshirish bo‘yicha bir qator strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ekologik ta’limni rivojlantirish, aholining ekologik savodxonligini oshirish, ekologik tashabbus va harakatlarni qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash kabi chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu chora-tadbirlar jamiyatning “iste’molchi jamiyat” modelidan “ehtiyotkor jamiyat”ga bosqichma-bosqich o‘tishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, ekologik muammolarni hal etish jarayonida falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, insoniyatning tabiatga nisbatan mas’uliyati va ongli harakati asosiy omil hisoblanadi. Tabiiy resurslar faqat iqtisodiy foyda manbai sifatida emas, balki kelajak avlodlar uchun saqlanishi kerak bo‘lgan umumiy boylik sifatida qabul qilinishi lozim. Shu sababli ekologik ta’lim va madaniyatni rivojlantirish, ekologik ongni oshirish va jamiyatni barqaror rivojlantirishga yo‘naltirilgan siyosiy strategiyalar O‘zbekistonda ekologik falsafa va barqarorlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [4;91-b.].

Umuman olganda, “ehtiyotkor jamiyat” modeli inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni tiklash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik ongni rivojlantirish orqali jamiyatni barqaror va ekologik xavfsiz shaklda rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston tajribasi esa bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zamonaviy chora-tadbirlar va davlat siyosatini birlashtirishning muhimligini ko‘rsatadi.

Ekologik muammolarning kuchayib borishi jamiyatning ekologik ongini saqlash va rivojlantirish masalalarini dolzarb qiladi. Shu munosabat bilan, bir qator taklif va tavsiyalar ilgari surilishi mumkin. Avvalo, maktab va oliy ta’lim muassasalarida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish g‘oyalari asosida maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bu nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki yosh avlodning tabiatga nisbatan mas’uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish muhimdir. Ijtimoiy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish aholi ongini oshirishga yordam beradi va ekologik qadriyatlarni jamiyatda keng targ‘ib qilish imkonini beradi [5;13-b.].

Tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish masalasi ham dolzarb bo‘lib, davlat va jamiyat o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, qayta ishlash va resurslarni tejashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tashabbuslarni amalga oshirish lozim. Shu bilan birga, iqtisodiy jarayonlarda ekologik tamoyillarga rioya qilish va ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatishda “yashil iqtisodiyot”ni keng tatbiq etish muhimdir, chunki bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki iqtisodiy rivojlanishni barqaror va ekologik xavfsiz shaklda amalga oshirish imkonini beradi. Eng muhimi, yosh avlodni yuksak ekologik ong va madaniyat ruhida tarbiyalash orqali jamiyatning “iste’molchi jamiyat” modelidan “ehtiyotkor jamiyat”ga o‘tishini tezlashtirish mumkin. Shu yo‘l bilan inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, ekologik qadriyatlarni hayotga tatbiq etish va barqaror yashashni ta’minlash mumkin. Demak, ekologik ta’limni rivojlantirish, ekologik madaniyatni oshirish va tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish orqali jamiyatda ekologik barqarorlikni ta’minlash mumkin bo‘lib, bu nafaqat tabiiy muhitni himoya qiladi, balki kelajak avlod uchun barqaror yashash sharoitlarini yaratadi.

Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lib, bunga jamiyatda ekologik xabardorlikni rivojlantirish orqali erishish mumkin. “Iste’molchi jamiyat”dan “ehtiyotkor jamiyat”ga o‘tish ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon O‘zbekistonda jamiyat a’zolari o‘rtasida ekologik xabardorlikni oshirish, ekologik ta’limni rivojlantirish, ekologik tamoyillarni xizmat ko‘rsatish jarayonlariga integratsiya qilish orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Beck U. Risikogesellschaft: Auf dem Weg in eine andere Moderne. London, Sage, 1992, 232 p.

(2). Capra F. The Web of Life: A New Scientific Understanding of Living Systems. New York, Anchor Books, 1996, 176 p.
(3). Giddens A. The Consequences of Modernity. Stanford. Stanford University Press, 1990, 102 p.
(4). Meadows D.H., Meadows D.L., Randers J. The Limits to Growth. New York, Universe Books, 1972, 291 p.
(5). United Nations Environment Programme. Global Environment Outlook. Nairobi, 2019.
(6). United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. New York, 2015.

Nurullayev Firdavs Shamsiddin o‘g‘li (Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchisi; nurullayevfirdavs07@gmail.com)

HARBIY SUD AMALIYOTIDA MANIPULYATIV XULQ-ATVORNI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada harbiy sud amaliyotida manipulyativ xulq-atvorni aniqlashning psixologik mexanizmlari, diagnostik mezonlari va sud jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Harbiy muhit o‘ziga xos ierarxik tuzilma va intizomiy talablar bilan ajralib turishi sababli, manipulyativ strategiyalar yashirin va murakkab shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Tadqiqot doirasida manipulyatsiyaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik komponentlari yoritildi. Sud-tergov jarayonida guvohlik ko‘rsatmalarini baholash, ayblanuvchi shaxsining psixologik portretini aniqlash hamda ekspertiza o‘tkazish mezonlari ko‘rib chiqildi. Natijada manipulyativ xatti-harakatlarni aniqlashning integrativ psixologik modeli taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *harbiy sud, manipulyativ xulq-atvor, sud psixologiyasi, psixologik ekspertiza, kognitiv buzilishlar, ijtimoiy ta’sir.*

Нуруллаев Фирдавс Шамсиддин оглу (Военнослужащий Министерства обороны; nurullayevfirdavs07@gmail.com)

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЫЯВЛЕНИЯ МАНИПУЛЯТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ВОЕННО-СУДЕБНОЙ ПРАКТИКЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические механизмы, диагностические критерии и влияние на судебное разбирательство манипулятивного поведения в военно-судебной практике. Поскольку военная среда характеризуется собственной иерархической структурой и дисциплинарными требованиями, манипулятивные стратегии могут проявляться в скрытых и сложных формах. Исследование охватывает когнитивные, эмоциональные и социально-психологические компоненты манипуляции. Рассмотрены критерии оценки свидетельских показаний, определения психологического портрета обвиняемого и проведения экспертизы в ходе судебного расследования. В результате предложена интегративная психологическая модель выявления манипулятивного поведения.*

Ключевые слова: *военный суд, манипулятивное поведение, судебная психология, психологическая экспертиза, когнитивные нарушения, социальное влияние.*

Nurullayev Firdavs Shamsiddin oglu (Serviceman of the Ministry of Defense; nurullayevfirdavs07@gmail.com)

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DETECTION OF MANIPULATIVE BEHAVIOR IN MILITARY COURT PRACTICE

Annotation. *This article analyzes the psychological mechanisms, diagnostic criteria and impact on the trial of manipulative behavior in military court practice. Since the military environment is characterized by its own hierarchical structure and disciplinary requirements, manipulative strategies can manifest themselves in hidden and complex forms. The study covered the cognitive, emotional and socio-psychological components of manipulation. The criteria for evaluating witness testimony, determining the psychological portrait of the accused person and conducting an examination during the judicial investigation were considered. As a result, an integrative psychological model of detecting manipulative behavior was proposed.*

Keywords: *military court, manipulative behavior, forensic psychology, psychological examination, cognitive impairment, social influence.*

Kirish (Introduction). Harbiy sud amaliyoti huquqiy adolatni ta’minlash bilan birga, inson omilini chuqur psixologik tahlil qilishni talab etadi. Harbiy xizmat sharoitida qat’iy intizom, buyruqbozlik va vertikal boshqaruv tizimi mavjud bo‘lib, bu muhitda shaxslararo munosabatlar o‘ziga xos tarzda shakllanadi. Bunday sharoit manipulyativ xulq-atvor uchun ham qulay fon yaratishi mumkin. Manipulyatsiya ongli yoki yarim ongli ravishda boshqalar xulqini boshqarishga qaratilgan psixologik ta’sir shaklidir.

Harbiy sud jarayonida manipulyativ strategiyalar yolg‘on ko‘rsatma berish, emotsional bosim o‘tkazish, aybni boshqalarga yuklash yoki ierarxik mavqedan foydalanish orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois mazkur masala nafaqat huquqiy, balki psixologik jihatdan ham dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Harbiy sud amaliyotida manipulyativ xulq-atvorni aniqlash masalasi bevosita sud psixologiyasi, yuridik psixologiya va harbiy psixologiya kesishgan nuqtada shakllanadi. Mazkur muammo ilmiy adabiyotlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri “harbiy sudda manipulyatsiya” nomi bilan keng yoritilmagan bo‘lsa-da, unga daxldor bo‘lgan nazariy va empirik tadqiqotlar yetarli darajada mavjud. Ushbu manbalar manipulyativ xatti-harakatlarning psixologik mexanizmlarini, yolg‘on ko‘rsatma fenomenini, guvoh xotirasining buzilishlarini hamda qaror qabul qilishdagi kognitiv xatolarni chuqur tahlil qiladi.

Sud psixologiyasining klassik namoyandalaridan biri – William Stern guvohlik ko‘rsatmalarining ishonchliligi muammosini ilmiy asosda o‘rgangan. U guvoh xotirasi subyektiv talqinlarga moyil ekanini va tashqi ta’sir ostida o‘zgarishini eksperimental tarzda isbotlagan. Ushbu tadqiqotlar manipulyativ xulq-atvor sud jarayonida aynan xotira buzilishi yoki ataylab faktlarni o‘zgartirish orqali namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Sternning yondashuvi harbiy sud sharoitida guvohlik ko‘rsatmalarini baholashda psixologik omillarni inobatga olish zarurligini asoslaydi [1;1–42-b.].

Yolg‘on ko‘rsatma va manipulyativ ta’sir mexanizmlarini o‘rganishda Aldert Vrij tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. U yolg‘onni aniqlashda faqat neverbal belgilar emas, balki kognitiv yuklama va nutq strukturasini tahlil qilish samaraliroq ekanini ta’kidlaydi. Vrijning fikricha, manipulyativ shaxs, ko‘pincha, ortiqcha nazorat qilinadigan mimika namoyon etadi, ammo nutq mazmunida mantiqiy uzilishlar kuzatiladi. Bu yondashuv harbiy sud jarayonida ayblanuvchi va guvohlarning bayonotlarini tizimli tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi [2;233–248-b.].

Ijtimoiy ta’sir va manipulyatsiya masalalarini chuqur o‘rgangan olimlardan biri Robert Cialdini hisoblanadi. Uning ijtimoiy ta’sir tamoyillari avtoritet, ijtimoiy isbot, o‘zaro majburiyat va defitsit effekti harbiy muhitda ayniqsa dolzarbdir. Harbiy tizimda avtoritet omili kuchli bo‘lgani sababli, yuqori lavozimdagi shaxs tomonidan bildirilgan fikr, ko‘pincha, tanqidsiz qabul qilinadi. Bu esa manipulyativ strategiyalarga imkoniyat yaratadi. Cialdini konsepsiyasi harbiy sud amaliyotida ierarxik bosimni psixologik tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [3;591–621-b.].

Harbiy psixologiya sohasida ekstremal sharoitda qaror qabul qilish va stress omilini o‘rgangan Dave Grossman tadqiqotlari ham mazkur mavzu bilan bevosita bog‘liqdir. U yuqori stress sharoitida insonning kognitiv funksiyalari torayishini, bu esa manipulyativ axborotni tanqidsiz qabul qilish xavfini oshirishini ta’kidlaydi. Harbiy sud muhitida ham stress va vaqt bosimi manipulyatsiyani aniqlash jarayonini murakkablashtirishi mumkin [4;10–34-b.].

Mahalliy va MDH olimlari tomonidan sud-psixologik ekspertiza masalalari doirasida shaxsning motivatsion sohasi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda shaxsning aksentuatsiyalangan tipologiyasi va agressiv-kompensator xatti-harakatlari manipulyativ strategiyalar bilan uzviy bog‘liq ekani qayd etiladi. Ayniqsa, demonstrativ va epileptoid tipdagi shaxslar sud jarayonida dramatizatsiya va bosim strategiyalaridan foydalanishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan [5;1449–1475-b.].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotlarda manipulativ xulq-atvorning umumiy psixologik mexanizmlari yetarli darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, harbiy sud amaliyoti kontekstida kompleks integrativ model yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli mazkur yo‘nalishda sud psixologiyasi, harbiy psixologiya va ijtimoiy ta’sir nazariyalarini uyg‘unlashtirgan ilmiy yondashuv zarur hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid ilmiy manbalar manipulyativ xatti-harakatlarni tushuntirish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Biroq harbiy sud muhitining o‘ziga xos iyerarxik va stress omillarini inobatga olgan holda yangi empirik tadqiqotlar o‘tkazish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan konseptual yondashuvni taklif etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqot harbiy sud amaliyotida manipulativ xulq-atvorni aniqlashning psixologik mexanizmlarini kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy va empirik yondashuvlar uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot dizayni aralash (mixed-method) model asosida tashkil etildi, ya’ni sifat va miqdoriy metodlar integratsiyasi qo‘llanildi. Bunday yondashuv manipulyativ xatti-harakatlarning nafaqat tashqi namoyonini, balki ichki motivatsion va kognitiv omillarini ham aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini sud psixologiyasi, ijtimoiy ta’sir nazariyasi, shaxs tipologiyasi va kognitiv xatolar konsepsiyalari tashkil etdi. Shuningdek, harbiy psixologiya doirasida ekstremal sharoitda qaror qabul qilish modellari tahlil qilindi. Metodologik yondashuv tizimli, faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillarga asoslandi.

Empirik bosqichda harbiy sud jarayonlarida ishtirok etgan shaxslar (sudya yordamchilari, tergov organi vakillari, sud-psixolog mutaxassislar hamda sobiq ayblanuvchilar) orasida tanlov asosida kuzatuv va so‘rov ishlari amalga oshirildi. Tanlanma maqsadli (purposive sampling) usulda shakllantirildi. Ishtirokchi-

lar sud jarayonida bevosita qatnashgan yoki psixologik ekspertiza tajribasiga ega bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘ldi.

Ma’lumot to‘plash jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. Strukturali va yarim strukturali intervyu – manipulyativ xulqning subyektiv va obyektiv belgilarini aniqlash maqsadida.
2. Psixologik kuzatuv – sud jarayonida verbal va neverbal reaksiyalarni tahlil qilish uchun.
3. Shaxs tipologiyasini aniqlovchi testlar – dominantal, demonstrativ yoki makiavellistik xususiyatlarni baholash uchun.
4. Emotsional barqarorlik va stress darajasini o‘lchash metodikalari – manipulyatsiyaning affektiv komponentini aniqlash maqsadida.
5. Kontent-analiz – sud bayonnomalari va ko‘rsatmalar matnini mantiqiy izchillik hamda semantik og‘ishlar nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun.

Olingan ma’lumotlar statistik ishlovdan o‘tkazildi. Deskriptiv tahlil orqali o‘rtacha ko‘rsatkichlar va dispersiya aniqlanib, shaxs tipologiyasi hamda manipulyativ tendensiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelatsion tahlil asosida baholandi. Sifat ma’lumotlari tematik kodlash asosida guruhlashtirildi.

Tadqiqotning ishonchliligini ta’minlash uchun triangulyatsiya usuli qo‘llanildi, ya’ni bir xil hodisa turli metodlar orqali tekshirildi. Validlikni oshirish maqsadida ekspert baholash va takroriy o‘lchov mexanizmi joriy etildi.

Etik tamoyillarga qat’iy rioya qilindi: barcha ishtirokchilardan yozma rozilik olindi, shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi ta’minlandi va natijalar umumlashtirilgan ko‘rinishda taqdim etildi.

Shu tariqa, mazkur metodologik yondashuv harbiy sud amaliyotida manipulyativ xulq-atvorni aniqlash jarayonini tizimli, ilmiy asoslangan va ko‘p qirrali tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari harbiy sud amaliyotida manipulyativ xulq-atvor, ko‘p hollarda, yashirin shaklda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Strukturali intervyular va psixologik kuzatuvlar davomida ishtirokchilarning 37 foizida manipulyativ-kommunikativ strategiyalar aniqlangan. Ayniqsa, ayblanuvchilar orasida dramatizatsiya va selektiv fakt taqdim etish holatlari ko‘proq uchradi. Sud jarayonida verbal izchillikning buzilishi ham manipulyatsiyaning asosiy indicatorlaridan biri sifatida qayd etildi. Olingan ma’lumotlar manipulyativ tendensiyalar shaxs tipologiyasi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Demonstrativ va dominantal tipdagi shaxslarda manipulyativ ko‘rsatkichlar yuqoriroq bo‘ldi. Bu natijalar shaxsiy xususiyatlar sud jarayonidagi xulq-atvorga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Psixologik test natijalari asosida manipulyativ tendensiya va emotsional barqarorlik o‘rtasida teskari bog‘liqlik aniqlandi ($r=–0,46$). Ya’ni, emotsional beqarorlik darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda manipulyatsiya ehtimoli ko‘proq kuzatildi. Stress ko‘rsatkichlari ham manipulyativ xatti-harakat bilan ijobiy korrelatsiyani namoyon etdi ($r = 0,52$). Bu esa ekstremal yoki zo‘riqishli vaziyatlarda shaxsning himoya mexanizmi sifatida manipulyativ strategiyalardan foydalanishi mumkinligini anglatadi. Kuzatuv jarayonida neverbal nomuvofiqlik, ya’ni nutq mazmuni va mimika o‘rtasidagi tafovut 29 foiz holatda qayd etildi. Sud psixologlari tomonidan baholash mezonlari qo‘llanganda, manipulativ ehtimol darajasi yanada aniqlashtirildi.

Quyida manipulativ xulq-atvorning aniqlangan asosiy indikatorlari bo‘yicha umumlashtirilgan natijalar keltiriladi:

1-jadval

Harbiy sud jarayonida manipulyativ xulq-atvor indikatorlari (n = 84)

№	Indikatorlar	Aniqlanish foizi (%)
1	Verbal izchillikning buzilishi	34 %
2	Haddan tashqari dramatizatsiya	31 %
3	Savollardan qochish yoki javobni cho‘zish	28 %
4	Neverbal nomuvofiqlik	29 %
5	Aybni boshqalarga yuklash tendensiyasi	33 %

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, manipulyatsiya, ko‘pincha, kompleks belgilar tizimi orqali namoyon bo‘ladi. Eng ko‘p uchragan ko‘rsatkich verbal izchillikning buzilishi bo‘ldi.

Shaxs tipologiyasi va manipulyativ ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ham alohida tahlil qilindi. Test natijalari demonstrativ va dominantal tipdagi ishtirokchilarda manipulyativ indeks o‘rtacha 7,8 ballni tashkil etganini ko‘rsatdi, bu boshqa tiplar bilan solishtirganda sezilarli yuqori ko‘rsatkichdir. Emotsional barqaror shaxslarda esa mazkur indeks 4,1 ball atrofida qayd etildi. Bu tafovut statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi t-test natijalari bilan tasdiqlandi ($p<0,05$). Natijalar manipulyatsiyaning shaxsning psixologik tuzilmasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Quyidagi jadvalda shaxs tipologiyasi kesimida manipulyativ indeks ko‘rsatkichlari taqdim etiladi:

2-jadval

Shaxs tipologiyasi va manipulyativ indeks o‘rtasidagi bog‘liqlik

Shaxs tipi	O‘rtacha manipulativ indeks (M)	Standart og‘ish (SD)
Demonstrativ	7,8	1,2
Dominantal	7,4	1,4
Konform	5,2	1,1
Emotsional barqaror	4,1	0,9

Jadval natijalari manipulyativ xulq yuqori dominanta va demonstrativ tipdagi shaxslarga xos ekanini ko‘rsatadi.

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, harbiy sud muhitida manipulyativ xatti-harakatlar ko‘proq ierarxik bosim va shaxsiy manfaat bilan bog‘liq vaziyatlarda yuzaga keladi. Kontent-analiz natijalariga ko‘ra, sud bayonnomalarining 26 foizida semantik og‘ish yoki faktlarni selektiv talqin qilish elementlari mavjud bo‘lgan. Bu holatlar sud qarorining obyektivligiga potentsial xavf tug‘diradi.

Natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, manipulyativ xulq-atvorni aniqlashda yagona belgi yetarli emas, balki indikatorlar majmuyi asosida kompleks baholash talab etiladi. Psixologik kuzatuv, test natijalari va kontent-analiz birgalikda qo‘llanganda aniqlik darajasi sezilarli oshadi. Empirik ma’lumotlar harbiy sud amaliyotida psixologik ekspertiza mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O‘tkazilgan nazariy va empirik tahlillar harbiy sud amaliyotida manipulativ xulq-atvor sud adolatining obyektivligi va haqqoniyligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omil ekanini ko‘rsatdi. Manipulyatsiya, ko‘pincha, yashirin shaklda, verbal izchillikni buzish, dramatizatsiya, aybni boshqalarga yuklash yoki iyerarxik bosimdan foydalanish orqali namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari manipulyativ tendensiyalar shaxsning tipologik xususiyatlari, emotsional barqarorligi va stress darajasi bilan uzviy bog‘liq ekanini tasdiqladi. Ayniqsa, demonstrativ va dominantal tipdagi shaxslarda manipulyativ indeksning yuqoriligi aniqlangan. Bu esa shaxs psixologik portretini tahlil qilish sud jarayonida muhim metodik bosqich bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, manipulativ ta’sir faqat ayblanuvchi yoki guvoh tomonidan emas, balki sud jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan ham yuzaga kelishi mumkinligi aniqlashtirildi. Kognitiv xatolar, stereotipik fikrlash va avtoritetga haddan tashqari ishonch sud qaroriga bilvosita ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud. Shu sababli harbiy sud tizimida inson omili va psixologik xavf omillarini inobatga olgan holda qaror qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, harbiy sud tizimida sud-psixolog mutaxassislarning ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Psixologlar manipulyativ xulq indikatorlarini aniqlashda, shaxsning motivatsion sohasi va emotsional barqarorligini baholashda muhim rol o‘ynaydi.

Ikkinchidan, sudya va tergovchilar uchun “manipulativ kommunikatsiyani aniqlash” mavzusida maxsus psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bunday treninglar neverbal signallarni tahlil qilish, kognitiv xatolarni kamaytirish va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Uchinchidan, harbiy sud jarayonlarida manipulyativ xavfni baholash uchun standartlashtirilgan diagnostik protokol ishlab chiqish zarur. Ushbu protokol kuzatuv, intervyu va test natijalarini yagona mezon asosida integratsiyalash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, sud bayonnomalarini semantik va kontent-analiz asosida tekshirish amaliyotini joriy etish tavsiya qilinadi. Bu faktlarni selektiv talqin qilish yoki mantiqiy uzilishlarni aniqlashda qo‘shimcha nazorat mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, harbiy jamoalarda profilaktik psixologik xizmatni kuchaytirish lozim. Stressni boshqarish, konstruktiv kommunikatsiya va axloqiy mas’uliyat bo‘yicha treninglar manipulyativ xatti-harakatlar ehtimolini kamaytiradi.

Umuman olganda, harbiy sud amaliyotida manipulyativ xulq-atvorni aniqlash kompleks psixologik yondashuvni talab etadi. Ilmiy asoslangan diagnostika, psixologik ekspertiza va profilaktik choralar sud tizimining shaffofligi hamda adolatli qaror qabul qilish jarayonini mustahkamlaydi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni kengaytirish harbiy sud tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Stern William. Zur Psychologie der Aussage. Zeitschrift für angewandte Psychologie. Leipzig, Verlag von Johann Ambrosius Barth, 1902, № 1, s. 1–42.

(2). Vrij Aldert. Detecting Lies and Deceit: Pitfalls and Opportunities, Applied Cognitive Psychology. Chichester: Wiley, 2004, vol. 18, № 3, p. 233–248.

(3). Cialdini Robert B. Social Influence: Compliance and Conformity. Annual Review of Psychology. Palo Alto. Annual Reviews, 2004, vol. 55, p. 591–621.

(4). Christie Richard; Geis, Florence. Studies in Machiavellianism. Academic Press Journal of Personality Research. New York, Academic Press, 1970, № 2, p. 10–34.

(5). Kahneman Daniel. Maps of Bounded Rationality. Psychology for Behavioral Economics. American Economic Review. Nashville, American Economic Association, 2003, vol. 93, № 5, p. 1449–1475.

Abduvaxabova Dilnoza Nurmaxamatovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalai universiteti, f.f.f.d. (PhD), dotsent)

MAKRO VA MIKROEKOLINGVISTIKA: TIL VA EKOLOGIK MUHIT O‘ZARO TA’SIRINING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekolingvistikaning muhim yo‘nalishlari hisoblangan makro va mikroekolingvistikaning nazariy asoslari hamda ularning zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda til va ekologik muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir turli darajalarda ko‘rib chiqilib, tillar ierarxiyasi, globallashuv jarayonlari va lingvoekologik omillarning nutq faoliyatiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, emotsional lingvoekologiya doirasida kommunikativ muhitdagi “og‘riqli nuqtalar”ni aniqlash masalasi muhokama etiladi. Tadqiqot natijalari makro va mikroekolingvistik yondashuvlar tilning ekologik holatini kompleks baholash imkonini berishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *makroekolingvistika, mikroekolingvistika, lingvoekologiya, globallashuv, tillar iyerarxiyasi, emotsional lingvoekologiya.*

Абдувахабова Дилноза Нурмахаматовна (Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезми, PhD по филологическим наукам, доцент)

МАКРО- И МИКРОЭКОЛИНГВИСТИКА: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЯЗЫКА И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы макро- и микроэкологической лингвистики как важнейших направлений эколингвистики, а также их место в современной лингвистике. В исследовании взаимодействие языка и экологической среды рассматривается на различных уровнях; освещаются иерархия языков, процессы глобализации и влияние лингвоэкологических факторов на речевую деятельность. Кроме того, в рамках эмоциональной лингвоэкологии обсуждается проблема выявления «болезненных точек» в коммуникативной среде и оценки их социально-культурных последствий. Результаты исследования показывают, что макро- и микроэкологический подходы позволяют комплексно оценить экологическое состояние языка, определить факторы его устойчивого развития и глубже понять современные коммуникативные процессы.*

Ключевые слова: *макроэкологическая лингвистика, микроэкологическая лингвистика, лингвоэкология, глобализация, иерархия языков, эмоциональная лингвоэкология.*

Abduvakhabova Dilnoza Nurmakhamatovna (Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, PhD in Philology, Associate Professor)

MACRO- AND MICRO-ECOLINGUISTICS: A LINGUISTIC ANALYSIS OF THE INTERACTION BETWEEN LANGUAGE AND THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT

Annotation*. This article analyzes the theoretical foundations of macro- and micro-ecolinguistics as key directions within ecolinguistics and examines their role in modern linguistics. The study explores the interaction between language and the ecological environment at different levels, highlighting language hierarchy, globalization processes, and the impact of linguo-ecological factors on speech activity. Furthermore, within the framework of emotional linguo-ecology, the issue of identifying “pain points” in the communicative environment and assessing their socio-cultural consequences is discussed. The research findings demonstrate that macro- and micro-ecolinguistic approaches enable a comprehensive evaluation of the ecological state of language, the identification of factors ensuring its sustainable development, and a deeper understanding of contemporary communicative processes.*

Keywords*: macroecolinguistics, microecolinguistics, linguo-ecology, globalization, language hierarchy, emotional linguo-ecology.*

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, kommunikativ makonning kengayishi hamda lingvistik xilma-xillikning qisqarishi zamonaviy tilshunoslik oldiga yangi ilmiy vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, til va muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni turli darajalarda o‘rganish zarurati ekolingvistikaning ichki differensiasiyasini kuchaytirdi. Natijada mazkur yo‘nalish doirasida makroekolingvistika va mikroekolingvistika kabi ikki asosiy tadqiqot darajasi shakllandi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, tilning ekologik holatini baholashda global va lokal omillarni kompleks ko‘rib chiqish zarurati tobora ortib bormoqda. Tadqiqotning maqsadi – makro va mikro-ekolingvistik yondashuvlarning nazariy asoslarini yoritish, ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatish hamda til va ekologik muhit o‘rtasidagi munosabatlarni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot integrativ yondashuv asosida amalga oshirildi bo‘lib, unda tilni murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik tizim sifatida talqin etish tamoyiliga tayanildi. Ish jarayonida tizimli-tavsifiy metod, sotsiolingvistik tahlil, diskursiv tahlil, qiyosiy-tipologik metod hamda fanlararo interpretatsiya usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Metodologik asos sifatida A.de Svan va L.J.Kalvetning tillar ierarxiyasi modeli, shuningdek, zamonaviy lingvoekologik konsepsiyalar qabul qilinib, ular tilning global va lokal makondagi funksional maqomini aniqlashda nazariy platforma vazifasini bajardi [5;55–60-b.; 6; 72–b.]. Tadqiqot materiali sifatida ekolingvistika, globallashuv va til siyosatiga oid fundamental hamda zamonaviy ilmiy manbalar tanlab olinib, ularning konseptual yo‘nalishlari qiyosiy tahlil qilindi. Til va ekologik muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarini aniqlash maqsadida lingvistik birliklarning funksional-semantik va pragmatik xususiyatlari chuqur o‘rganildi. Makro va mikro darajadagi lingvoekologik omillarning kommunikativ jarayonlarga ta’siri diskurs doirasida tizimli ravishda tahlil etildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda konseptual modellash va ilmiy abstrahatsiya usullaridan foydalanilib, tilning ekologik barqarorligi hamda ijtimoiy-kommunikativ muvozanatini ta’minlovchi omillar nazariy jihatdan asoslab berildi.

Natijalar va muhokama. Zamonaviy ekolingvistika an’anaviy ravishda makro va mikro darajalarga ajratiladi [1;26-b.]. Makroekolingvistika til tizimining global va mintaqaviy miqyosdagi ekologik holatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, mikroekolingvistika tilning konkret kommunikativ vaziyatdagi namoyon bo‘lish shakllarini tahlil qiladi [3;14-b.]. Ushbu ikki yondashuv o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, tilning umumiy ekologik manzarasini kompleks tushunishga xizmat qiladi.

Makroekolingvistik tahlil doirasida globallashuv jarayonlarining dunyo tillari tizimiga ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar qayd etishicha, jahon kommunikativ makonida tillar o‘rtasidagi funksional notekislik tobora kuchayib bormoqda. A.de Svan va L.J.Kalvet tomonidan ishlab chiqilgan tillar tortishish modeli lingvosferadagi iyerarxik tuzilmani tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [5;125-b.;6;108-b.]. Ushbu modelga ko‘ra, tillar periferik, markaziy, supermarkaz va gipersentral guruhlarga ajratiladi. Bunday ierarxiya globallashuv sharoitida ayrim tillarning kommunikativ salohiyati ortib borayotganini, boshqalari esa funksional maydondan siqilib chiqayotganini ko‘rsatadi.

Lingvistik xilma-xillikning qisqarishi makroekolingvistik nuqtai nazardan jiddiy ekologik muammo sifatida baholanadi. Chunki har bir til o‘zida muayyan madaniy va kognitiv tajribani mujassam etadi. Til yo‘qolishi esa insoniyatning konseptual olami kambag‘allashuviga olib kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy ekolingvistika tillarning yashovchanligini ta’minlash va lingvistik muvozanatni saqlash masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda.

Mikroekolingvistika esa e’tiborni bevosita nutq jarayoniga, kommunikativ muhitga va til birliklarining real qo‘llanishiga qaratadi. Ushbu yo‘nalishda tilning ichki ekologik holati, nutq madaniyati, kommunikativ stress omillari hamda emotsional lingvoekologiya masalalari o‘rganiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy kommunikativ makonda agressiv nutq, manipulativ diskurs va informatsion ortiqchalik kabi omillar lingvoekologik muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Emotsional lingvoekologiya doirasida kommunikativ muhitdagi “og‘riqli nuqtalar”ni aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi [7;14-b.]. Bunday nuqtalar nutq ishtirokchilarining psixologik holati, ijtimoiy ziddiyatlar yoki media bosimi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Til birliklarining emotsional yuklamasi ortishi kommunikativ muhitning ekologik sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Shu bois mikroekolingvistik tadqiqotlarda nutq etikasi, diskurs gigiyenasi va kommunikativ mas’uliyat tushunchalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Makro va mikro darajadagi jarayonlar o‘zaro chambarchas bog‘liq. Globallashuv natijasida kuchaygan til raqobati lokal kommunikativ amaliyotga ham ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, nutq madaniyatidagi salbiy tendensiyalar tilning umumiy ekologik maqomiga ta’sir qilishi mumkin. Shu jihatdan, ekolingvistik tadqiqotlarda ko‘p darajali, integrativ yondashuvdan foydalanish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda raqamli kommunikatsiyaning kengayishi makro va mikroekolingvistik jarayonlarning yangi ko‘rinishlarini yuzaga chiqarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn media va virtual diskurs maydonlarida tilning ekologik holatini monitoring qilish ekolingvistikaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari makro va mikroekolingvistika til hamda ekologik muhit o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni turli darajalarda o‘rganishga xizmat qiluvchi o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi yo‘nalishlar ekanligini ko‘rsatdi. Globallashuv jarayonlari lingvosferada iyerarxik notekislikni kuchaytirib, ayrim tillarning funksional mavqeini mustahkamlash barobarida lingvistik xilma-xillikka tahdid solayot-

gani aniqlandi. Shu bilan birga, kommunikativ stress, agressiv diskurs va boshqa mikroekolingvistik omillar til muhitining ekologik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi asoslandi. Emotsional lingvoekologiya esa zamonaviy kommunikativ makonni sog'lomlashtirish, nutq madaniyatini barqaror rivojlantirish va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda muhim nazariy platforma sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, makro va mikroekolingvistik yondashuvlarning uyg'unligi tilning ekologik holatini kompleks baholash hamda uning barqaror taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Kelgusida ekolingvistik tadqiqotlarni raqamli diskurs, media makon va korpus materiallari asosida chuqurlashtirish ilmiy natijalarning empirik asosini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Haugen E. The Ecology of Language. Stanford, Stanford University Press, 1972, 366 p.

(2). Halliday M.A.K. New Ways of Meaning. The Challenge to Applied Linguistics. Journal of Applied Linguistics, 1990, vol. 6, p. 7–36.

(3). Mühlhäusler P. Linguistic Ecology. Language Change and Linguistic Imperialism. London, Routledge, 1996, 279 p.

(4). Haarmann H. Language in Ethnicity. A View of Basic Ecological Relations. Berlin, Mouton de Gruyter, 1986, 270 p.

(5). de Swaan A. Words of the World. The Global Language System. Cambridge, Polity Press, 2001, 253 p.

(6). Calvet L.-J. Towards an Ecology of World Languages. Cambridge, Polity Press, 2006, 209 p.

(7). Марусенко М.А. Глобальная лингвистика. Москва, Флинта; Наука, 2015. 320 с.

Kushmanov Jasur Bahodirovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD); email: jasur.k@urdu.uz),

Shomurotova Hilola Axmadjon qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi stajyor o'qituvchisi; email: hilola.shomuratova@urdu.uz)

BEVOSITA TARJIMADA PRAGMATIK MUAMMOLAR: NAZARIY VA AMALIY ASPEKTLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bevosita tarjimada yuzaga keladigan pragmatik muammolar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda pragmatik ekvivalentlik, kommunikativ maqsadning saqlanishi, madaniy kontekstning uzatilishi kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Maqolada bevosita tarjimada pragmatik muammolarning kelib chiqish sabablari aniqlangan hamda ularni bartaraf etish yo'llari taklif qilingan. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *bevosita tarjima, pragmatika, pragmatik ekvivalentlik, kommunikativ maqsad, madaniy kontekst, tarjima strategiyalari, lingvopragmatika.*

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЯМОГО ПЕРЕВОДА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Аннотация. *В этой статье анализируются прагматические проблемы прямого перевода с теоретических и практических точек зрения. Исследование рассматривает такие вопросы, как прагматическое эквивалентность, сохранение коммуникативной цели и передача культурного контекста. В статье выявляются причины прагматических проблем при прямом переводе и предлагаются решения. Результаты исследования вносят вклад в развитие теории и практики перевода.*

Ключевые слова: *прямой перевод, прагматика, прагматическая эквивалентность, коммуникативная цель, культурный контекст, стратегии перевода, лингвопрагматика.*

PRAGMATIC PROBLEMS IN DIRECT TRANLATION: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS

